

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XURSHIDA QODIROVA

**O‘ZBEK VA RUS TILLARI
SINTAKSISINING TIPOLOGIYASI**

Monografiya

Toshkent – 2021

Monografiya o‘zbek va rus tillari sintaksisining qiyosiy tipologiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ikki tilning sintaktik qurilishidagi umumiy va xususiy jihatlari tahlilga tortilgan. Unda o‘zbek va rus tillarining sintaksisiga oid ilmiy xulosalar tipologik tahlil etilgan. Monografiyani yaratishda ko‘plab o‘zbek tilining nazariy manbalari hamda rus tilining so‘ngi adabiyotlaridan foydalanildi. Ushbu monografiya tilshunoslik, tarjimashunoslik, o‘zga tili guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi vakillariga hamda bu sohaga qiziuvcilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Saodat Muhamedova

filologiya fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

Nargiza Musulmonova

filologiya fanlari nomzodi

Dilbar Urinbayeva

filologiya fanlari doktori (DcS)

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2021-yil 29-noyabrdagi 8-sonli bayonnoma)

MUQADDIMA

O‘zbek va rus tillarini qiyosiy tahlil qilish bilan bog‘liq ishlarning dastlabkisi 1934-yilda yozilgan Yevgeniy Dmitriyevich Polivanovning “Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком” kitobi hisoblanadi. Ushbu kitob nafaqat ikki tilni qiyoslashda, balki tillardagi umumiy va xususiy jihatlar borasidagi ilmiy qarashlarni tizimlashtirishda katta rol o‘ynadi. Polivanov ilk bora rus va o‘zbek tillarining fonetik hamda grammatik tizimlarini qiyosiy tahlilga tortdi. Biroq uning grammatikasi mazkur tillarning butun tizimini emas, faqat fonetika va morfologiyasini qamrab olgan.

Undan keyin esa 1965-yilda O.Azizov va uning hammualliflari tomonidan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi,¹ filologiya fakultetlari uchun qisqa kurs yaratiladi. Olimlarning bu qo‘llanmasi qiyosiy tipologiyadan ilk manba bo‘lganligi sababli ayrim to‘ldirilishi kerak bo‘lgan jihatlari, 1995-yilda Shavkat Rahmatullayev tomonidan muayyan darajada to‘ldirilgan va u ikki tilni qiyoslab, o‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha tahsil olayotganlar uchun qisqacha bayonli o‘quv qo‘llanma yaratadi.² Bu tipologik asarlar asosiy manba sifatida bugungi kunga qadar yagona adabiyot bo‘lib qolmoqda. Bu xildagi adabiyotning kun tartibga qo‘yilmaganligining sababini 2000-yillarning boshida oliy ta’lim muassasalarida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishining to‘xtab qolganligidan ko‘rish mumkin.

1989-yilda V.D.Arakin “Типология языков и проблема методического прогнозирования”³ nomli qo‘llanmasida rus, ingliz, island, turk va itatiya tillarining tipologik pasportini yaratgan edi. Unda, turk tili tipologiyasi pasporti uchun asos sifatida ko‘proq o‘zbek tili grammatikasidan foydalanganligi ko‘rish mumkin. Biroq o‘zbek tilshunosligining rivoji natijasida, qolaversa, rus tilidan farqli o‘laroq, tilning tarixiy ildizlari o‘rganilib, uning mantiqqa asoslanishi kashf etilgandan so‘ng, o‘zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlarning paydo bo‘lishi bilan rus tili grammatikasidan tubdan farq qilishi ma’lum bo‘lib qoldi. Endilikda o‘zbek tilini dunyoga yoyish, o‘zga til vakiliga targ‘ib qilish, til taraqqiyotiga ta’sir etuvchi tarjima masalalari davr taqozosi hisoblanib, o‘zbek tiliga ixtisoslashgan oliy ta’limda rus va o‘zbek tillarini

¹ Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси (қисқа курс). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 140 б.

² Rahmatullayev Sh. O‘zbek va rus tillarini qiyoslash. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 112 b.

³ Аракин В.Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. – М.: Высшая школа, 1989. С.142

qiyosiy o‘rganish maxsus predmet sifatida joriy qilinganligi quvonarli holdir. Mazkur monografiyada rus va o‘zbek tillarining sintaksisiga oid masalalar, so‘z birikmasi, gap va qo‘shma gapga tegishli ma’lumotlar ilmiy tahlilga tortilgan. Bu ish yillar mobaynida to‘xtab qolgan fanni tiklash uchun bo‘lgan bir qadam bo‘lib, kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun, fikr mulohazalarni kutib qolamiz.

I BOB. TILLARNING TIPOLOGIYASI

TILLARNING GENEALOGIK XUSUSIYATLARI

Dunyo tillari ikki xil yondashuv, ya'ni genetik tipologiya (shajaraviy tasnif) va morfologik tipologiya (grammatik tasnif) asosida tasnif qilingan. Tillarning genealogik tasnifi tillarning qarindoshlik munosabatlarini aniqlaydi.

Genealogik tasnif (qadimgi yunon tilidan “*shajara, kelib chiqishi, oila*” va “*so‘z, bilim*”) deb dunyo tillarini ularning guruhlari o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda oilaviy aloqalari asosida turli guruhlarga ajratishga aytiladi. Bunday holda, til qarindoshlik munosabatlari bu tillarning bitta asosiy tildan yoki ajdod tilidan umumiy kelib chiqishi tufayli bir hil lingvistik elementlar o‘rtasidagi o‘xshashlik mavjudligi tushuniladi.

Genetik tipologiya tillarni qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillarga ajratadi. Bir manbadan tarqalgan tillar **qarindosh tillar** deyiladi. Ana shunga ko‘ra zamonaviy tilshunoslikda tillar oilasi 14 tadan 24 tagacha tasnif qilingan.

Ma’lum bir oilaga mansub tillarning barchasi bir **asos tildan** yuzaga kelgan. Asos til (bobo til) ma’lum tillarning shakllanishi uchun manba bo‘lib, o‘zi aloqa vositasi sifatida muomaladan chiqqan, jamiyatlar orasidagi so‘zlashuv aloqalari uzilgan. Har bir jamiyat tili o‘z holicha rivojlana boshlagan. Natijada dunyo tillarining soni ko‘payib borgan. Alsher Navoiy hazratlari dunyo tillariga asos bolgan uch bobo til, ya'ni **turkiy, forsiy** va **hindi** tillari haqida o‘z mulohazalarini bayon qilgan. Bobo til bilan bog‘liq nazariy qarashlar genetik tipologiya (shajaraviy tasnif)ning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Qarindosh tillar guruhlari aniqlashga ilk urinish J.J.Skaliger (1540-1609) tomonidan amalga oshirilgan. 1610-yilda Fransiyada Skaligerning 1599-yilda yozilgan “Yevropa tillari haqida mulohazalar” asari chop etilgan. Unda muallif o‘ziga ma’lum bo‘lgan tillar doirasida 11 “ajdod” tilni belgilagan: 4 ta “yirik” — yunon, lotin, tevtan va slavyan va 7 ta “kichik” — epirot, irland, qrim-tatar, fin, venger va bask tillari. Skaliqer ushbu 11 til o‘rtasida hech qanday qarindoshlik aloqalari yo‘q deb e’lon qilgan.

Nisbatan kengroq tasnif, birmuncha noaniq bo‘lsa-da, taniqli matematik va faylasuf G.Leybnits (1646-1716) tomonidan berilgan bo‘lib, u o‘ziga ma’lum tillarni ikki katta oilaga va ulardan birini yana ikki guruhga ajratgan:

I. Aramey (semit) tillari.

II. Yafet tillari:

1. Skif guruhi (fin, turk, mo'g'ul va slavyan tillari).

2. Kelt guruhi (boshqa yevropa tillari).

Leybnitsning tadqiqotlarini shved F.Stralenberg (1676-1750) davom ettirib, 1730-yilda Shimoliy yevropa, Sibir va Shimoliy Kavkaz tillarining qiyosiy jadvallarini tuzadi. Bu bilan hind-yevropa tillaridan tashqari, jumladan, turk tillarining genealogik tasnifiga asos soladi.

XVII asrda rus olimlari Gmelin, Lepyoxin, Pallas va boshqalar tomonidan yirik tarjima-qiyosiy lug'at tuziladi va ilk nashri 1786-1787-yillarda e'lon qilinadi. Uning nomi "Barcha tillar va lahjalarning qiyosiy lug'atlari" bo'lib, unda rus tilidagi so'zlarni yevropa va Osiyoning 200 tiliga tarjima qilish yo'li bilan "Tillar katalogi" to'plangan. Ushbu lug'atning 1791-yilgi ikkinchi nashriga Afrika va Amerikaning ayrim tillari qo'shilib, hammasi bo'lib 272 ta tilga yetkazilgan.

Shunga o'xshash lug'at ispan missioneri L.Panduro tomonidan 1784-yilda (1-nashr) va 1800-1805-yillarda (2-nashr) etilib, 6 jildda 400 dan ortiq tillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Tillarni tasniflashning ushbu urinishlari, qanchalik sodda bo'lmasin, fanga katta hissa qo'shdi: ular tillarning turli-tuman ekanligi, ular orasida o'xshashlik va farqlar mavjudligi to'g'risidagi faktlarni tasdiqlab, tillarni qiyoslashga qiziqishni uyg'otishga ko'maklashdi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab turli tizimli tillarni qiyoslab o'rganishga qiziqish orta boshlagan.

Rus va boshqa tillarning tuzilishini chuqur o'rgangan birinchi tilshunos olimlardan biri Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov bo'lib, 1934-yilda uning "Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком" kitobi chop etilgan. Ushbu kitob nafaqat ikki tilni qiyoslashda, balki tillardagi umumiy va xususiy jihatlar borasidagi ilmiy qarashlarni tizimlashtirishda katta rol o'ynadi. Polivanovning xizmati shundaki, u ilk bora turli til oilalariga mansub bo'lgan rus va o'zbek tillarining fonetik hamda grammatik tizimlarini qiyosiy tahlilga tortdi. Bu bilan olim kelib chiqishi turli bo'lgan tillarning tizimini binar qiyoslashning ilmiy poydevorini yaratdi. Biroq uning grammatikasi qiyoslanayotgan tillarning butun tizimini emas, faqat fonetika va morfologiyasini qamrab olgan.

Genealogik tasnifda tillarning eng katta birlashmasi til oilasi deyiladi. **Til oilasi** deb qaysidir ma'noda qarindoshlik va ma'lum elementlarning o'xshashliklarini saqlagan holda muayyan darajada (katta yoki ozroq) birlashishi, ularning majmuiga aytiladi. Bu bitta ajdod tilidan kelib chiqqan

(masalan, hind-yevropa), umumiy tildan keng tarqalgan, umumiy materiallar fondini meros qilib olgan (soʻzlar, morfemalar, ildizlar, affikslar) tillardir.

Dunyo tillari orasida bir necha oʻnlab tillar oilalari ajralib turadi. Bular, masalan, hind-yevropa (dunyoning barcha qitʼalarida tarqalgan tillar), turkiy (yevropa va Osiyoning koʻp mamlakatlari), finn-ugor (Vengriya, Norvegiya, Gʻarbiy Sibir) kabi tillarning birlashmalaridir.

Shuni aytish mumkinki, tillarning tipologik jihatlari, grammatik aspektlari, leksik zahirasi asos tilning semantik-struktur xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgani bilan, glaballashuv jarayonida muayyan bir tilning ayrim xususiyati ikkinchi tilning shu kabi xususiyati bilan qorishib ketishini kuzatish mumkin. Bu esa tipologik tasniflarda anglashilmovchiliklarga, turli xil yondashuvlarga olib kelishi mumkin.

TILLARNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tillarning morfologik tipologiyasi. Jahon tilshunosligida qadimdan soʻz, oʻzak va negiz bilan bogʻliq nazariy qarashlar mavjud boʻlgan. Hozirgi zamon tillari morfologik tipologiyasiga nemis tilshunoslari Fridrix Shlegel, Avgust Shlegel va Vilgelm Gumboldlar asos solishgan.

Morfologik tipologiya asosida tillarni toʻrt guruhga ajratganlar:

1. Flektiv tillar ichki fleksiya (soʻz tarkibidagi undoshlarning oʻzgarishi) asosida soʻzlar yasaladi. Baʼzi affiksial tillar ham shu guruhga kiradi. Flektiv tillarga ingliz, fransuz, nemis, rus va shu kabilar kiradi. Bunda affikslarning oʻzak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik maʼnolar fleksiya yoʻli bilan ifodalanadi: masalan, arab tilida kitob (birlikda) — kutub (koʻplikda) yoki rus tilida друг (birlikda) — друзья (koʻplikda), ularga hind-yevropa va som tillari oilalari kiradi. Flektiv tillar sintetik va analitik tillarga ham ajratiladi. Sintetik tillarda grammatik maʼnolar (gapda soʻzlarning oʻzaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi (masalan, rus, nemis tillari). Analitik tillarda esa grammatik maʼnolar soʻz shakllari (shakl yasovchi qoʻshimchalar) vositasida emas, balki yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, ohang yordamida ifodalanadi (masalan, ingliz, fransuz, ispan tillari).

Flektiv tillar nomi egiluvchan degan maʼnoni anglatuvchi lotincha “flectivus”dan kelib chiqqan. Agglyutinativdan farqli oʻlaroq, bu turdagi tillarda soʻzlarning shakllanishi bir vaqtning oʻzida bir nechta grammatik xususiyatlarga ega boʻlgan formani qoʻshish orqali sodir boʻladi.

2. Agglyutinativ tillarda affikslar bevosita o'zak yoki negizga qo'shiladi. Masalan, fin-ugor, turkiy, drovid, yapon, manjur tillar. So'zlar o'zak va unga birikib keladigan affikslardan iborat bo'ladi hamda so'zning morfologik tuzilishi (o'zak va affiks) aniq ajralib turadi. Bunda har bir affiks bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Masalan, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga muayyan izchillik bilan affikslar qo'shish orqali hosil qilinadi va bunda affikslarning har biri o'z ma'nosi bilan qatnashadi: *ogohlantirmaganingizdandur-da*. Agglyutinativ turga millionlab odamlar gapiradigan tillarning uzun ro'yxati kiradi: turkiy tillar (turk, qirg'iz, ozarbayjon, tatar va boshqalar), koreys, yapon, gruzin, fin-ugor tillari (chuvash, fin, Mari, venger va boshqalar), ba'zi Afrika va sun'iy tillar shular jumlasidan. Arman tilini ham bu turga qo'shishadi, lekin har doim ham shunday bo'lmagan.

3. Amorf (ajratuvchi) tillarda so'zlar yolg'iz o'zakdan iborat bo'lib, affikslar qo'llanmaydi. Masalan, xitoy, birma, tay, tibet tillari. Bu tillarning lug'at tarkibi, asosan, bir bo'g'inli so'z-o'zaklardan iborat bo'lib, ularda turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'q. O'zak tillarda so'z tartibi muhim ahamiyat kasb etadi. Amorf tilning yorqin namunasi xitoy tilidir. Unda fe'l tuslanishi va moslashuvi mutlaqo yo'q. Shuningdek, unda vaqt tushunchasi ham yo'q, ular voqeaning vaqtini anglatish uchun mustaqil so'zlar va payt hollarini ishlatiladi.

4. Polisintetik tillar (mujassamlashtiruvchi tillar)dagi so'zlar, boshqa tillardagi gapga to'g'ri keladi. Masalan, chukot, koryak, amerikalik hindular tili. Bunda asosiy nutq birligi so'zgapdir. Tasnif etilgan tillar orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki bir tilda uchraydigan ayrim til hodisalari boshqalarida ham uchrab qolishi mumkin. Masalan, Okeaniya tillarini ham amorf tillar, ham agglyutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin. Ingliz tili ko'p yillar davomida xalqaro muloqot tili bo'lganligi va soddalashtirilganligi sababli, u deyarli butunlay flektiv turdan amorf turga aylangan.

Tillarning sintaktik tipologiyasi. Tillarning sintaktik aloqasidagi farqlar gapning asosiy bo'laklari va shakliy tuzilishining eng muhim xususiyatlariga asoslanadi. Shuni aytib o'tish kerakki, dunyo tilshunosligida sintaktik jihatdan bir nechta tillar farqlanadi. Bu esa tilning sintaktik aloqa, birliklarning o'zaro bog'lanish xususiyatlarida o'z aksini topadi.

Tillarning sintaktik tipologiyasi akademik I.I.Meshaninov (1883-1967) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda uchta asosiy gap qurilishi farqlanadi: aktiv, ergotiv va nomitativ.

Gaplarning *nominativ* tuzilishi (dunyo tillarida eng keng tarqalgan) fe'lining ma'nosi va shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar eganing bir xil shakllanishi bilan xarakterlanadi. Nominativ tuzilishga ega tillarning fe'li, odatda, ega bilan moslashadi. Bu tillar tipida gaplar ega (harakat subyekti) bilan to'ldiruvchi (harakat obyektini) bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Nominativ tillarda o'timli va o'timsiz fe'llar, ot so'z turkumining bosh va tushum kelishiklari, vositasiz va vositali to'ldiruvchilar ajratiladi. Fe'llarning tuslanishida turli obyektiv va subyektiv affikslardan foydalaniladi. Bunday tillarga hind-yevropa, semit, dravidiy, fin, turkiy, mo'g'ul, tay, yapon, koreys va xitoy tillari kiradi.

Ergotiv tillar tipida gaplar subyekt bilan obyekt ziddiyatiga asoslanmaydi. Ular agentiv (harakatni qo'zg'atuvchi) va faktitiv (harakatni boshqaruvchi)lar asosida quriladi. Bu tipdagi tillarda *ergotiv* va *absolyut* kelishiklar farqlanadi. Vositali to'ldiruvchisi bor gapda ega – ergotiv, to'ldiruvchi – absolyut kelishikda bo'ladi. To'ldiruvchisi yo'q gapda ega absolyut kelishikda keladi. O'timsiz harakatda ega o'timli harakatning obyekt shakli (absolyut kelishik) bilan mos tushadi. Ergotiv kelishik shaklidagi ot so'z turkumi o'timli harakatning subyektidan tashqari bilvosita obyektini (ko'pincha harakatning vositasi)ni ham anglatadi. Yanada tushunarliroq bo'lishi uchun dargin tilidan misol keltiramiz.

Адамъий	Варткел	хлабушиб
Odam	Bug'uni	O'ldirdi
Ergotiv kelishik	Absolyut kelishik	

Варткел	Башар
Bug'u	Yuradi
Absolyut kelishik	

Ergotiv tillarga bask, abxaz-adige, nax-dog'iston, ko'plab papuan, avstraliya, chukot-kamchatka, eskimos-aleut va boshqa hind tillari kiradi.

Bundan tashqari yana *aktiv* tillar ham bo'lib, ularda subyektning faollik va nofaollik kategoriyasi grammatik jihatdan istifoda etiladi. Ot so'z turkumi aktiv/inaktiv kelishiklarni farqlaydi, fe'llarning bir qancha aktiv va inaktiv qo'shimchalari bor. To'ldiruvchi esa yaqin va uzoq tushunchalari bilan birga qo'llaniladi. Bu tipga na-dene, siu, guarani, elam tillari kiradi.

Aktiv tuzilishning mazmuni harakat fe'li bilan holat fe'lining keskin ziddiyatida o'z aksini topadi, ergotiv tuzilishning ma'nosi shunday keskin ziddiyat o'timli va o'timsiz fe'llar orasida kuzatiladi. Ikkala tuzilish ham nominativ tuzilishdan farqli o'laroq subyektning yagona grammatik shakllanishining yo'qligi bilan ajralib turadi: fe'lining grammatik

xususiyatiga qarab undagi qator affikslar subyektga ishora qiladi. Subyektning o‘zi esa turli kelishiklar bilan ifodalanadi: aktiv (dinamik) yoki (ergativ tuzilishda) faqat o‘timli fellar subyektining kelishigi alohida (aktiv yoki ergotiv) kelishik bilan shakllanadi.

Yana tillarning *guruhli* tipi bo‘lib, gapning strukturasi barcha gap bo‘laklarida ism guruhlarining belgisiga tayaniladi. Bu tillarda ot so‘z turkumi maxsus affikslar bilan belgilangan guruhlariga ajratiladi. Ular suaxili, zulu, kongo kabi tillardir.

Shunday qilib, hind-evropa tillari oilasiga kiruvchi rus tili va turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek tili nominativ tillar tipidan ekan, ular santaktik aloqa borasida muayyan o‘xshashlikka ega.

TILLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Grammatika – bu so‘zlar, jumlar, matnlarni bog‘lash va ularning tuzilishining to‘g‘riligini tartibga solish imkonini beradigan til qonunlari to‘plami. Grammatika o‘zbek tilida ham rus tilida ham o‘zaro bog‘langan ikki qismdan – morfologiya va sintaksisdan iborat. Farqi shundaki, o‘zbek tili agglyutinativ tillar, rus tili flektiv tillar sirasiga kiradi.

Demak, grammatika ham tilning ana shundan xususiyatlaridan kelib chiqadi va tasniflanadi. O‘zbek va rus tillarining genetik farqi bo‘lsada, grammatik bo‘linishi bir xil.

Morfologiyada so‘zlarning tuzilishi va o‘zgarishi, yasalishi va so‘z turkumlari o‘rganiladi.

Sintaksisda gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, gap qurilishi va turlari o‘rganiladi.

Morfologiya o‘rganilayotgan tilning imlo qonuniyati bilan, sintaksis shu tilning punktuatsion (tinish belgilari) qonuniyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Rus tili flektiv tillar turiga aloqador bo‘lganligi uchun rus tili morfologiyasida murakkabliklarni yuzaga keltiruvchi o‘ziga xos xususiyatga ega. So‘z o‘zgarishi morfema deb tavsiflanuvchi **окончание** bilan xarakterlanadi. O‘zbek tilida окончание degan tushuncha yo‘q. Rus tili nafaqat yangi o‘rganuvchilar, balki tarjimonlar uchun ham grammatikani tushunishda qiyinchilik tug‘diradigan bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, rus tilida turlanish o‘zbek tilidagi turlanishga nisbatan keskin farq qiladi. O‘zbek va rus tilida 6 ta kelishik bor, flektiv tillar sirasiga kiruvchi ingliz tilida esa ular 2 ta. Bu uning ergotiv⁴ tuzilishga yaqinligidan dalolat beradi.

⁴ Ergotiv tillar yoki ergotiv (grek. ἐργάτης – “faol, serharakat; amaldagi, harakatdagi”) tipdagi tillardir. Grammatikada nominativ tillar singari obyekt bilan subyekt emas, balki harakatni

Shunday bo'lsada, so'zning o'zgaruvchanligi hisobidan ingliz tili va o'zbek tilidan ko'ra rus tilining lug'at boyligi ancha ustun. Masalan, ingliz tilidagi *to get* fe'li rus tilida bir nechta so'zlar bilan tarjima qilinadi: *получать, становится, покупать, приносить, сделать, добираться*.

So'zlarning joylashuvidagi o'rni ham boshqa tillarga nisbatan erkinligi bilan farqlanadi. Ega kesimdan keyin, undan oldin, gapning o'rtasida, boshida yoki oxirida joylashishi mumkin. Ingliz tilida bunday imkoniyat yo'q. So'z tartibini o'zgartirish natijasida ifodaning mazmuniga ta'sir qilish mumkin. Masalan,

Билл бьет Джона. Джона бьет Билл. Бьет Билл Джона. Бьет Джона Билл – bunda so'z tartibi o'zgargan, ammo mazmun o'sha-o'sha. Ingliz tilida esa quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin.

Bill hits John. (Билл бьет Джона)

John hits Bill. (Джон бьет Билла)

O'zbek tilida odatdagi tartibga ko'ra ega gap boshida, kesim gap oxirida keladi. Biroq shunday bo'lsada, meyor hisoblanmasa ham nutq uslubi, gap urg'usining ko'chishi, pragmatik omillar bunday imkoniyatga yo'l ochib beradi.

Biz ertaga muzeyga boramiz.

Biz boramiz muzeyga ertaga.

Ertaga biz boramiz muzeyga.

Ertaga muzeyga boramiz biz.

Muzeyga ertaga biz boramiz.

Muzeyga boramiz biz ertaga.

Ingliz tilining gaplarida, albatta, bosh bo'laklarning – ega va kesimning qatnashishi shart hisoblanadi. Rus tili va o'zbek tilida bitta bosh bo'lakning o'zi bilan ham gap tuzish mumkin. Masalan,

Он актёр – He is an actor (Он есть актёр)

Светлеет – It is getting light (Это становится светлее)

O'zbek tilida agglutinativlik xususiyati ustunlik qiladi. Qo'shimchalarning ahamiyati leksik ma'no berishi kerak bo'lgan birlikning o'rnini qoplashda, ayniqsa, yuqori. Masalan, *otam – мой отец*.

Zamon kategoriyasi ham genetik farqli tillarning grammatikasida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rus tilida 3 ta zamon kelasi, o'tgan va hozirgi zamon bo'lib, bu grammatikani biroz osonlashtiradi. Ingliz tilida 16 ta active

qo'zg'atuvchisi agens bilan harakatning ijrochisi patsiyens o'rtasidagi ziddiyat ustunlik qiladi. Ergativlik asosan fe'li aktantini kodlashtirish strategiyasi hisoblanadi. U, xususan, shumer, bask, ko'pchilik kavkaz, burusha, ko'plab papua, avstraliya, chukot-kamchatka, eskimo-aleut, hind tillarida ifodalangan. Ergativlik nazariyasiga tilshunos olimlar G. Shuhardt, I. I. Meshchaninov, G. A. Klimov, R. Dikson, F. Plank, A. E. Kibrik va boshqalar katta hissa qo'shgan...

voice (действительный залог – aniq nisbat) va 10 ta passive voice (страдательный залог – majhul nisbat)da zamon mavjud. O‘zbek tilida ham zamonlar uchga bo‘linadi, biroq ularning ifodasi ko‘pincha fe’l orqali bo‘lib, o‘z tarkibida ichki bo‘linishlar, turli zamon fe’llari mavjud. Masalan, o‘tgan zamonning 5 ta turi bor: yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon davom fe’li, o‘tgan maqsad fe’li. Hozirgi zamon fe’li hozirgi zamon davom fe’li, hozirgi kelasi zamon shakllariga ega. Kelasi zamonning kelasi zamon maqsad va kelasi zamon gumon fe’llari mavjud.

Bir tilni o‘rganishda ikkinchi til egasiga anglashmovchilik keltirib chiqaradigan xususiyatlar yana biri omonom va omofonlardir. Rus tilini o‘rganuvchi o‘zga til vakiliga omonimlar qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Misol uchun: *ключ – chashma, ключь – kalit, ключ – gayechnik, ключ – musiqiy belgi*. Omofonlar esa yozuvda ayrim qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin. *Луг – лук, плод – плот, код – кот*.

Rus tilining grammatikasi o‘zga til egasi uchun yana bir murakkab jihati bu rod katogoriyasidir. Turlanish va tuslanishda bunday gender xoslik leksikaning ichiga singib ketadi. Flektivlik xususiyadi mana shunda o‘z aksini topadi. Masalan, ayol kishiga nisbatan komu so‘rog‘i berilsa – *Хуршуде*, erkak kishiga nisbatan so‘ralsa – *Хуршуду* kabi o‘zgarishga yuz tutadi. Ko‘plikda ham tubdan so‘zning almashinuvi sodir bo‘ladi: *ухо – ушу* kabi. O‘zbek tilidagi kabi bir o‘zakning ketidan istalgancha qo‘shimcha qo‘shish imkoniyati (*ogohlantirmaganingizdandur-da*) yo‘q.

Sintaksisdagi farqlar, asosan, qo‘shma gaplarda, ajratilgan oborotlarda ko‘zga tashlanadi. Aniqlovchili va sifatdoshli oborotlar rus tilida gapdan tashqarida ajratilgan bo‘lak bo‘lib, o‘zbek tilida esa gap tarkibida aniqlovchi bo‘lib singib ketadi. *Поезд, который едет. – Yurayotgan poyezd*. Shuningdek rus tilidagi qo‘shma gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilganda ko‘pincha sodda gapga aylanish holati kuzatiladi.

Shunday qilib, o‘zbek va rus tillarining grammatikasi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, ularning tipologiyasi o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari bor. Eng asosiysi, keyingi yillarda olib borilgan tadqiqod ishlari o‘zbek tilining mantiqqa asoslangan grammatik xususiyatlari o‘ziga xosligini ko‘rsatmoqda.

II BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA SINTAKTIK ALOQA VA GAP

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA SINTAKTIK ALOQA TURLARI

Sintaktik aloqaning qiyosiy o‘rganilishi. O‘zbek va rus tillarini qiyosiy o‘rganish O‘zbekistonda 1965-yilda boshlangan bo‘lib, O.Azizov va boshqalar tomonidan “O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi” qo‘llanmasi chop etiladi. Biroq unda sintaktik aloqa bilan bog‘liq masalalar ko‘rilmaydi. Sintaksis bo‘limi sodda gaplar bilan boshlanadi. Ushbu asarning bir qancha yutuqlari bo‘lib, avvalo, mazkur predmet uchun tamal toshini qo‘ygan adabiyot sifatida qadrlidir. Hozircha bunday asar hali o‘zbek tilshunosligida yaratilmaganligi, uning naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Oradan 30 yil o‘tib 1995-yilda Sh.Rahmatullayev o‘zining “O‘zbek va rus tillarini qiyoslash” asarida sintaksis bo‘limiga o‘ziga xos yondashib, aniq va lo‘nda bayon etadi. U “so‘zlarning bog‘lanishi tobe hokimlikka, qo‘shilishi esa tenglikka asoslanadi”, deya teng aloqa uyushiq qatorni yuzaga keltirishini ta’kidlaydi va bunday aloqani “O‘zbek va rus tillarida uyushiq qator” mavzusi ostida mufassal ochib beradi. Odatda o‘zbek tilshunosligida sintaktik aloqa xususida so‘z ketganda uning teng va tobe aloqaga bo‘linishi aytiladi, biroq olim bu masalada rus tili grammatikasiga moslashadi va tobe aloqani “uyushiq qator”, ya’ni “однородный ряд” deb ataydi. O‘zbek tilida bunday aloqadan paydo bo‘lgan birikmaga nisbatan ishlatiladigan “so‘z qo‘shilmasi” tushunchasini birinchilardan bo‘lib aynan Sh.Rahmatullayev o‘z asarida taklif etgan.

O‘zbek va rus tillarida teng aloqa. Teng aloqadagi uyushiq bo‘laklar, asosan, tilida teng bog‘lovchilar bilan bog‘lanib, o‘zaro teng munosabatni tashkil etadi. Rus tilida bunday aloqa alohida qayd etilmaydi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham teng holda bo‘g‘lanish so‘z tizmalari deb atalmoqda. Ular ochiq (bir qancha komponentlarni bog‘lagan) va yopiq (ikki komponentni bog‘lagan) shaklida bo‘lishi mumkin.

Rus tilida bog‘lovchilar bilan ifodalanadigan munosabat faqat gaplarda o‘z aksini topadi deyiladi:


1. Bog‘lovchi munosabat bilan bog‘langan uyushiq so‘zshakllar qatorida: *Ходил на Оку-кормилицу, и на Цну-голубку, и на Волгу-матушку и много людей видал;*

2. Takrorlanuvchi fe‘lning ellipsisli konstruksiyalarida: *Люблю отчизну я, но странною любовью. Qiyoslang: Люблю отчизну я, но люблю странною любовью; Он воловался, конечно, но не очень.*

Qiyoslang: *Он волновался не очень.* (Bunday konstruksiyalar gap tarkibidagi soʻz birikmalarining transformatsiyasi oqibatidir);

3. Bogʻlovchilar vositasida kiritilgan ajratilgan boʻlaklarda: *Откуда-то тянуло затхлой сыростью, точно из погреба.*

Bunga oʻxshash tasnif hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham bor:



Bunda oʻzbek tilining uslubiy tejamkorligi, oʻzbek xarakteridagi oʻziga xos xususiyatlarning tilga koʻchganligini koʻrishimiz mumkin. Sh.Rahmatullayev quyidagi misollarni keltiradi: “Oʻzbek tilida, rus tilidan farqli holda, bunday uyushiq qator aʼzolarining grammatik shakli umumlashtirilishi, grammatik koʻrsatkich uyushiq qatorga yaxlitligicha qoʻshilishi mumkin, bunda goʻyo uyushuvchi aʼzolarining grammatik koʻrsatkichi qavslardan tashqariga chiqariladi. Masalan, *oʻqituvchilarimizni* va *talabalarimizni* uyushiq qatorida grammatik koʻrsatkichlarning umumlashtirilishini qavslardan tashqariga chiqarib shunday ifodalash mumkin:

(oʻqituvchilarimizni) va (talabalarimizni)

[(oʻqituvchilarimiz-) va (talabalarimiz-)]ni

[(oʻqituvchilar-) va (talabalar-)]imizni

[(oʻqituvchi-) va (talaba-)]larimizni

Koʻrinadiki, birinchi misolda grammatik shakllanish har bir uyushuvchi qismda mustaqil amalga oshadi, ular ikki mustaqil qism tarzida shakllanadi; ikkinchi misolda uyushuvchi misollar sonlanish va nisbatlanish jihatidan mustaqil shakllanadi, lekin kelishigi umumlashadi; uchinchi misolda esa bu qismlar sonlanish jihatidan mustaqil shakllanib, nisbatlanishi va kelishigi umumlashadi; toʻrtinchi misolda esa har uch grammatik kategoriyaning koʻrsatkichi umumlashadi. Uyushuvchi soʻz shakllar tarkibidagi grammatik koʻrsatkichlarni bunday umumlashtirish rus tiliga xos emas: har bir uyushuvchi soʻzshakl oʻzicha toʻliq grammatik shakllangan boʻladi: *наших*

преподавателей и студентов, нашим преподавателям и студентам kabi.

O‘zbek tilida uyushiq qator a’zolarini shakllantiradigan ko‘makchini ham umumlashtirish mumkin:

(O‘qituvchilarimiz bilan) va (talabalarimiz bilan)

[(O‘qituvchilarimiz) va (talabalarimiz)] bilan

Rus tilida ham uyushiq qator a’zolarini shakllantiradigan predlogni umumlashtirish mavjud:

Для (наших преподавателей и студентов)

Fe’llarning analitik shakllarida yordamchini umumlashtirish har ikki tilda mavjud: *будешь (учиться и работать), хочу (не только понять, но и осмыслить)*; *(ham o‘qib, ham ishlab) turibman, (ham o‘qiyotgan, ham ishlayotgan) emish* kabi. Bu hodisa o‘zbek tilida juda ko‘p uchraydi.

Demak, rus tilida umumlashtirishga analitik grammatik, grammatik shakllarda yo‘l qo‘yilsa, o‘zbek tilida, bundan tashqari, sintetik grammatik shakllarda ham voqe bo‘ladi.

Rus tilida uyushiq fe’l kesimning har ikki a’zosi odatda mustaqil grammatik shakllanadi: *я днём работаю, а вечером учусь* kabi. Bunday gaplarda birinchi fe’lni деепричастие shaklida ishlatish mumkin, lekin unda деепричастный оборот yuzaga keladi: *я, работая днём, учусь вечером* kabi.”⁵

O‘zbek va rus tillarida tobe aloqa. Zamonaviy o‘zbek va rus tillarida tobelanishda uch xil sintaktik aloqa mavjud. Rus tilida *moslashuv* согласование deb ataladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, rus tilida moslashish jarayoni o‘zbek tiliga nisbatan o‘ziga xosdir. Bunda tobe so‘zning rod shakli, son va kelishik shakli bosh so‘zning rod, son va kelishik shakli bilan belgilanadi. Moslashuv aloqasi boshqaruvchining grammatik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lganidek, tobe so‘z morfologik xususiyati bilan moslashish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak.


O‘zbek tilida ham tobelik asosidagi sintaktik aloqaning ikki turi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinatsiya) va b) bir tomonlama aloqa (subordinatsiya) ajratilib, tobedosh aloqa, munosabatdorlashish, muvofiqlashuv ikki tomonlama aloqaning muhim jihati hisoblanadi, bu rus grammatikasidagi moslashuvga juda o‘xshaydi. Chunki, o‘zbek tilida haqiqiy **moslashuv** bir tomonlama bog‘li aloqaning bir turi sifatida ko‘rsatilib, tobe qismning o‘z shaklini hokim qism shakliga muvofiq shakllantirilishi qayd



⁵ Rahmatullayev Sh. O‘zbek va rus tillarini qiyoslash. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

etiladi. Masalan, *men keldim* – shaxs va son jihatidan moslashgan.

Moslashuv jarayonida muayyan munosabat oʻrnatiladi: toʻliq va toʻliqsiz turlarga boʻlinadi. Bu har ikki tilda ham mavjud. Rus tilida *Зеленая трава, маленький мальчик, деревянное изделие* – bular rod, son va kelishikda moslashib, toʻliq munosabatni oʻrnatgan. *Наша врач, бывшая секретарь* – son va kelishikda; *озеро Байкал, на озере Байкал* – sonda; *на семи ветрах, девятью мальчиками* – kelishikda moslashgan shakllari toʻliqsiz munosabat hisoblanadi. Oʻzbek tilida *talabalar toʻplandilar* – toʻliq, *talabalar toʻplandi* – notoʻliq moslashuv aloqasini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida moslashuv aloqasi ega va kesim oʻrtasida, shuningdek, qaratquvchi-qaralmish oʻrtasida munosabat oʻrnatishi mumkin.



Rus tilida ega-kesimning moslashuvi haqida maʼlumot yoʻq. Biroq *женщина-космонавт, студент-отличник, злодейка-западня* kabi soʻzlar qoʻshilmasining sintaktik aloqasini faqat shartli ravishda moslasguv deb atash mumkinligi aytiladi. D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy buni **paralellilizm** deb atashga loyiq moslashuvning alohida turi deb hisoblaydi. Aloqaning bunday tobe soʻzning son va rod shakli boshqaruvchi soʻzning shakllariga shartlanmay mos keladigan turini baʼzan **korrelyatsiya** deb ham atashadi.

Boshqaruv (управление) aloqasi hokim qism talabi bilan tobe qismning muayyan shaklda kelishidir. Rus tilida boshqaruvda obyektli (*писать письмо, любовь к родине*), subyektli (*приезд брата*), kompletiv (*четыре сына, ножка стула*) munosabatlar oʻrnatiladi. Boshqaruv tipi bilan qurilgan birikmalar, har doim predmet bilan bogliq ravishda ifodalanadi.

Oʻzbek tilida ikki xil: 1) feʼl boshqaruvi (*uyini qurmoq*); 2) ot boshqaruvi (*devdan kuchli, shamoldan tez*) mavjud. Rus tilida soʻzshakllarning boshqariluvchisi sifatida har doim ot soʻz turkumi yoki uning ekvivalenti boʻladi: *подошел к соседу, подошел к отъезжающему*. Boshqaruvchi soʻz sifatida feʼl, ism va ravish keladi, ushbu xususiyatidan **felli** boshqaruv – *купить книгу, подъехать к дому*; **otli** boshqaruv – *стакан молока, пять братьев, вид спорта, ненависть к врагу, покорный судьбе*; **ravishli** boshqaruv – *украдкой от родителей, наедене с братом, в низ головой* ajratiladi.

1982-yilda F. Abdullayev va F. Ibrohimovalar tomonidan “O‘zbek tilida boshqaruv” monografiyasida o‘zbek tilida faqat otli va fe’lli boshqaruv emas, balki ot boshqaruvi, sifat boshqaruvi, son boshqaruvi, ravish boshqaruvi, modal so‘zlar boshqaruvi, undovlar boshqaruvi, fe’l boshqaruvi, kelishikli boshqaruv turlarini ajratib, o‘zbek tilining keng imkoniyatini muayyan miqdorda ochib beradi. “Ravish tobe holatda kelganda hokim so‘zga ko‘pincha bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi: *tez gapirmoq, qattiq qichqirmoq, ko‘p oqimoq* kabi. Lekin ular nutqda hamma vaqt ham tobe vaziyatda kelavermay, hokim holatda kelib, boshqa turkumga oid so‘zlar bilan (ko‘pincha otlar bilan) boshqaruv munosabatiga kirishuvi ham mumkin: *o‘qdan tez, uydan baland, do‘stlardan uzoq, haqiqatga yaqin, senga ko‘p, menga oz va hokazo...* rus tili grammatikasida ravish boshqaruvi alohida ajratib ko‘rsatiladi. Turkologiyada ham bu masala ayrim olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Masalan, M.B. Balakayev “kesim vazifasida kelgan holat ravishlari hokim vaziyatda kelib, obyektli munosabatlarni ifodalovchi ot boshqaruvchili birikmalar hosil qilishini aytib o‘tadi”⁶ O‘zbek tilshunosligida ham ravishning boshqaruvchi rolida kela olishi e’tirof etiladi^{7,8}

Shuningdek, tobe qismda ko‘makchi (предлог)ning bor yoki yo‘qligiga ko‘ra ko‘makchili (предложные) – *любовь к родине, уехать на родину* va ko‘makchisiz (беспредложное) – *послать письмо, понятный всякому, полный надежды, ломать хлеба* turlari ajratiladi. O‘zbek tilida esa kelishikli boshqaruv – *qishliqqa ketdi*: ko‘makchili boshqaruv – *qishloq tomon ketdi*: kelishik bilan ko‘makchining birga qo‘llanish – *qishloq tomonga ketdi* turlari mavjud.

Rus tilida boshqaruv aloqasi moslashuvdan farqli o‘laroq tobe shakl bosh so‘z shaklining grammatik o‘zgarishida o‘z holicha qoladi: *любить жизнь, люблю жизнь, любит жизнь, любя жизнь, любящий жизнь*. Tobe so‘zning o‘zgarishi birikma ma’nosining o‘zgarishga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq: *поехать к другу, поехать с другом, поехать за другом*.

Bitishuv (примыкание) deb o‘zbek tilida hokim qismga so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga aytiladi. Masalan, *katta bino, tez yurmoq*. U rus tilida ham tobe aloqaning tobe qismi o‘zgarmas gap bo‘lagi yoki so‘zshakl kelishik tizimidan holi, bosh so‘zga nisbatan o‘z tobeligini

⁶ Балакаев М.Б. Основные типы словосочетаний в казахском языке. – Алма-Ата: 1957, – с. 48

⁷ G‘ulomov A. G‘., Asqarova M.A. Hozirgi zamon o‘zbek tili. Sintaksis. – Toshkent: 1961, – B.28; Abdurahmonov D. O‘zbek tilida boshqaruv munosabatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960, – 1-son.

⁸ Abdullayev F. Ibrohimova F. O‘zbek tilida boshqaruv. – Toshkent: Fan, 1982, – 140 b.

ma'nosi va joylashgan o'rni bilan ifodalaydi. Bitishuv aloqasi bilan birikkan birikmalar hol va ba'zan aniqlovchini to'ldirish munosabatini bildiradi.

O'zbek tilida bitishuv hech qanday vositasiz sifatlovchi va sifatlanmish, hol va kesim munosabatlarini tashkil qiladi. Rus tilida ravish (yoki funksional unga yaqin so'zshakllar), ravishdosh, infinitiv bitishadi. Sintaktik munosabatlarning grammatik o'zgaruvchi shakllarini qabul qilmaganligi uchun, bitishuvning formal belgisi o'zgarmaslik hisoblanadi: *читать вслух, приехать поздно, гулять днем, работать в двоem, находиться неподалеку; сидеть согнувшись; ехать быстрее; хотеть учиться, предложить приехать; очень хороший, непривычно веселый; совсем рядом, сегодня днем; возможность отдохнуть, причина приехать.*

Bitishuvchi so'zlar boshqa so'zlar bilan aloqada aslo erkin degani emas. Masalan, ravishdosh faqat fe'llar bilan birikadi; ravishlarga ham fe'llar bo'lgandagina qo'llanish xos, vaholangki, ularing aloqasi birmuncha keng (ular ot so'z turkumiga, sifat va ravishlarga bitishib kelishi mumkin); infinitiv fe'llarga, otlarga, sifatlarga bitishib kela oladi. Faqat ular chegaralangan: bir qancha fe'llar va, ayniqsa, ot va sifatlar bilan infinitiv umuman muvofiq kelmaydi. Masalan, infinitiv modal fe'llar bilan, buyruq-istak fellari bilan va harakat fe'llari bilan (*могу писать, хочу заниматься; советовать полечиться; поехал отдохнуть*), ot, asoslovchi fe'llar yoki ularga xos so'zlar (*мысль отдохнуть, желание учиться*), shuningdek, infinitifni qo'sha oladigan asoslovchi sifatlar (*готовый приехать, готов приехать, готовность приехать; обязанный сдать, обязан сдать, обязанность сдать; способный петь, способен петь, способность петь*) bilan juda oson bog'lana oladi.

Sh.Rahmatullayev tobe aloqaning bu jihatlarini e'tibordan chetda qoldiradi. U ikki mustaqil leksik birlikning sintaktik tobe aloqaga kirishuvini bog'lanma deb ataydi va ularni ikki turga ajratadi: predikativ va nopredikativ. "O'zbek va rus tillarida predikativ bog'lanma", "Kesimning ega bilan muvofiqlashuvi", "O'zbek va rus tillarida nopredikativ bog'lanmalar" mavzulari ostida tilning hukm bilan bog'liq jihatlariga urg'u beradi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA SO 'Z BIRIKMASI

So'z birikmalarining qiyosiy tipologiyasi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning tobelanish asosida birikuvidan tuzilgan sintaktik birlik so'z birikmasi deyiladi. Ular tarkibida hokim va tobe so'zlar bo'lib, tobe

so‘z hokim so‘zga ergashib keladi. Sh.Rahmatullayevning ularni predikativ va nopredikativ turga ajratadi. O.G.Shitova, A.G.Shitovlarning «Теория языка. Грамматика» kitobida so‘z birikmalariga oid quyidagi jadvalni ko‘rishimiz mumkin.

Сочетания слов			
Предикативные	Непредикативные		
	Подчинительные сочетания слов – СЛОВСОЧЕТАНИЯ		Соченительные
	Тип подчинительной связи		
	Согласование	Управление	примыкание

Ko‘rinib turganidek, birikma (словосочетание) tushunchasi faqat so‘zlarni ergashish yo‘li bilan bog‘langan turiga, ya‘ni tobe aloqaga nisbatan qo‘llanilmoqda. Rus tilida “подлежащее и сказуемое не являются словосочетанием”⁹ deyiladi. Olim rus tilidagidek predikativ aloqani birikma deb emas bog‘lanma deb aytishni taklif etadi.

Sintaksisning o‘rganish predmeti bo‘lgan “So‘z birikmasi” boshqa birikmalardan farqli ravishda ikki yoki undan ortiq so‘zdan tuzilishi, tobelanish aloqasi asosida bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlik qilishi bilan xarakterlanadi. Agar birikma tarkibida yordamchi so‘z bo‘lsa u o‘z oldidagi mustaqil so‘z bilan birgalikda bir komponent sanaladi. Masalan, *ashulani zavq bilan kuylamoq, a) ashulani kuylamoq; b) zavq bilan kuylamoq.*

Rus tilida ham so‘z birikmalari muayyan qolip asosida quriladi: ot va muvofiq keluvchi sifat, fe‘l va boshqariluvchi so‘zshakl va b.

O‘zbek va rus tilida otli, fe‘lli, ravishli birikma. O‘zbek tilida hokim komponent qaysi turkumda bo‘lishiga ko‘ra *otli birikma, fe‘lli birikma, ravishli birikmalar* ajratilib, otli birikma ot (*katta uy*), sifat (*guldan chiroyli, barmoqlari nozik*), son (*otliqlarning to‘rttasi, talabalarning biri*), olmosh va harakat nomi (*topshiriqni bajarish, daryo yoqalab borish*) bilan hokimlangan birikmalarga aytiladi; fe‘lli birikmalarning hokim elementi fe‘l, ravishdosh, sifatdosh; tobe so‘z esa ot turkumidan yasaladi: *bolani chaqirmoq, gulni hidlamoq, uyga ketmoq, yayov yurmoq, tasodifan uchrashmoq* shular jumlasidan. Ravishli birikmalar esa ot-ravish modelidagi birikmalardir: *ovozdan tez, suvdan oz, pulning yarimi*. Shuni aytib o‘tish kerakki, dastlab, o‘zbek tilida ayrim adabiyotlarda ravishli birikma alohida ajratilmaydi. Bu tur keyingi adabiyotlarda ko‘zga tashlanadi.

⁹Асилова Г. Русский язык. – Ташкент: Издательство национального общества философов Узбекистана. 2008, - С. 146

Sh.Rahmatullayev birikmalarni predikativ (ega va kesim aloqasi) va nopredikativ (ikkinchi darajali bo‘laklarning hokim bol`ak bilan aloqasi) bog‘lanmalarni *birikma* deb ataydi. Shuningdek, hokim komponent qaysi turkumda bo‘lishiga ko‘ra an’anaviy – o‘tli, fe’lli va ravishli birikmalar tasnifini bermaydi, faqat tobe a’zosining sintaktik mohiyati asosida (sifatlovchili birikma, to‘ldiruvchili birikma, holli birikma) tasnifini qiyoslab ko‘rsatadi.

Rus tilida ham *глагольные* (*работать добросовестно*), *именные* (*кабинет начальника*), *наречные* (*совершенно секретно*) birikmalari bo‘lib, bu xususiyatidan o‘zbek tili bilan umumiylik kasb etadi. Fe’lli birikmada bosh so‘z vazifasini sifatdosh, ravishdoshlar va fe’lning infinitiv shakllari bajaradi.

Rus tilida fe’lli birikmalar 3 ga bo‘linadi. Ular ko‘makchisiz (безпредложные: *читать книгу*); ko‘makchili (предложные: *стоять у дороги*); infinitiv bilan (*предложить выучить*); ravish bilan (*поступать справедливо*) ifodalanishi mumkin.

Ravishli birikmalar o‘z navbatida 2 ga: ravishli (*очень удачно*); o‘tli (*далеко от дома*) shakllari ajratiladi.

Rus tilida o‘tli birikma bir muncha ko‘proq turlarga ajratiladi. Unda ko‘makchisiz (безпредложные: *тезисы доклада*); ko‘makchili (предложные: *стоять у догори*); aniqlovchili (*полезная книга*), u esa o‘z navbatida a) olmosh-aniqlovchili (*наша страна*), b) tartib sonli (*вторая аудитория*), v) sifatdoshli (*выполненная работа*); ravishli (*прогулка верхом*); infinitivli (*желание учиться*) birikma bo‘lib, ular bosh so‘z o‘rnida kelishi mumkin va shunga ko‘ra nomlanadi.

Bundan tashqari o‘tli birikmaning aniqlovchili turi ham bo‘lib, ularda ham bosh so‘z komakhcisiz (безпредложные: *достойный похвалы*); ko‘makchili (предложные: *способный к музыке*); ravish bilan (*очень интересный*); infinitiv (*способный работать*) bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari o‘tli birikmaning sonli (*две книги, оба друга*) va olmoshli (*кто-то из студентов, нечто новое*) turi ham ajratiladi.

Predikativ bog‘lanma, ya’ni fe’lli birikmaning rus va o‘zbek tillaridagi farqli jihatlarini Sh.Rahmatullayev o‘z asarida batafsil bayon etadi. Masalan, “ma’lumki, rus tilida predikativ bog‘lanma a’zolari orasidagi sintaktik aloqada shaxs, son, rod hisobga olinadi; o‘zbek tilida esa rod yo‘q, shunga ko‘ra, asosan, shaxs va son hisobga olinadi”¹⁰ deydi va rodning predikativ bog‘lanma uchun juz’iy hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, uning moslashuv desa bo‘ladigan va bo‘lmaydigan jihatlarini

¹⁰ Rahmatullayev Sh. O‘zbek va rus tillarini qiyoslash. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

sanab o'tadi. Xullas, predikativ bog'lanma mohiyat jihatdan rus va o'zbek tillarida bir xil bo'lsa ham, bunday bog'lanma a'zolarining grammatik shakllanishida va o'zaro sintaktik munosabatida har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

O'zbek va rus tilida birikmaning tobe so'z tabiatiga ko'ra tasnifi. Zamonaviy o'zbek tilida tobe so'z tabiatidan kelib chiqadigan tasnif ham bo'lib, ular otli birikma, ya'ni nopredikativ to'ldiruvchili, aniqlovchili va holli birikmalardir. Rus tilida bu xususiyat синтаксические отношения между компонентами словосочетания (so'z birikmasi komponentlari o'rtasidagi sintaktik munosabati)ga ko'ra tasnif tarkibida o'rganiladi. Ular *atributiv* munosabat, *obyektiv* va *relyativ* munosabatlarga bo'linadi, ya'ni aniqlovchili, to'ldiruvchili va holli birikmalar singari.

To'ldiruvchili birikma o'zbek tilida vositali, vositasisiz, kelishikli, ko'makchili bo'lishidan qat'iy nazar to'ldiruvchili va hatto taqlid so'z, iboralar to'ldiruvchi bo'lib kelgan holatlarda ham to'ldiruvchili birikma sifatida talqin qilinadi: *shivir-shivirini eshitmoq, boshi osmonga yetganini ko'rmaq* va hokazo.

Rus tilidagi *obyektli birikma* bu – voqelik yoki hodisani uning obyekt bilan bo'lgan munosabatiga ishora qiladi. Tobe so'z gapda to'ldiruvchi hisoblanadi. Bunday birikmalarda fe'l, ot, sifat va sifatdoshlar bosh so'z vazifasida keladi. *Прямое* (vositasisiz) va *косвенное* (vositali) дополнение mavjud bo'lib, odatda vositali kelishikdagi otlar (predlogi bilan yoki predlogsiz ravishda) tobe vaziyatda keladi: *читать доклад, стрелять из ружья, обеспечить необходимым, стакан воды, любовь к Родине, склонный к полноте, воспитанный няней.*

Sh. Rahmatullayev yana quyidagi dalillarni ham taqdim etadi: "Rus tilida родительный падеж bo'lishsiz shakldagi o'timli fe'l boshqargan vositasisiz to'ldiruvchini ham shakllantiradi: *не покупать карандаша, не писать письма, ничего не дала* kabi. O'zbek tilida vositasisiz to'ldiruvchining kelishigiga fe'lning bo'lishli-bo'lishsizligi ta'sir etmaydi: *kitobni o'qimoq – kitobni o'qimaslik* kabi. Rus tilidan farqli holda o'zbek tilida qaratqich kelishiga to'ldiruvchini shakllantirmaydi.

O'zbek tilida tushum kelishigi belgili (affiks qatnashadi: *olmani termoq* kabi) yoki belgisiz (affiks qatnashmaydi: *olma termoq* kabi) ishlatiladi, shunga ko'ra vositasisiz to'ldiruvchi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Rus tilida bunday xususiyat yo'q."¹¹

¹¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.

Rus tilida vositali to'ldiruvchini родительный kelishik ham shakllantiradi. O'zbek tilida esa qaratqich kelishigi aniqlovchilik birikmada, moslashuv munosabatda ishtirok etishi ma'lum.

Aniqlovchili birikmalar. O'zbek tilida tobe vaziyatda kelgan so'z sifatlovchili yoki qaratqichli aniqlovchi bo'lishidan qat'iy nazar, aniqlovchili birikma deyiladi. Masalan, *shirin olma, o'rikning gullashi* singari misollarda tobe so'z aniqlovchi vazifasida keladi va shuning uchun tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra *aniqlovchili birikma* deb tahlil qilinadi. Ular Sh.Rahmatullayev kitobida sifatlovchili birikmalar deb talqin etiladi va uning rus va o'zbek tillarida keskin farq qilinishi isbotlanadi.

Rus tilida **atributiv** (ya'ni aniqlovchili) **birikmalar** bosh so'zning (ya'ni aniqlanmishning) tobe so'zi aniqlovchi bo'lgan birikmalar hisoblanadi. Bunday birikmalar doimo predmet va uning atributi (belgisi) o'rtasida bo'lgan munosabatni ko'rsatadi. Atributiv birikmalarning bosh so'zi odatda ot so'z turkumidagi so'z, uning aniqlovchisi esa ham moslashadigan, ham moslashmaydigan aniqlovchilar bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda, rus tilining moslashadigan va moslashmaydigan aniqlovchilari ajratilishini eslash joiz. Moslashadigan aniqlovchilarni Sh.Rahmatullayev rus tilida ham grammatik, ham semantik jihatdan sifatlovchi deb qaralishga loyiq sifatlovchilar deb aytadi. Ular otning grammatik shakliga mos holda grammatik ko'rsatkich oladi: *весёлый ребёнок — весёлого ребёнка — весёлым ребёнком* kabi. O'zbek tilida esa aniqlovchili birikmaning tobe a'zosi hokim a'zoga bitishuv yo'li bilan sitaktik aloqaga kirishuvi tufayli biror grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi: *qora qalam, katta odam, moviy osmon*.

Moslashadigan aniqlovchilar (согласованные определения) sifat, sifatdosh, son va olmosh kabi so'z turkumlari bilan yuzaga keladi: *высокий дом, поющие фонтаны, первый сорт, моя книга*. **Moslashmaydigan** aniqlovchilar o'zgarmaydigan sifatlar, otlarning vositali shakllari bilan kelgan (predlogli va predlogsiz) otlar, ravishlar, ravishdoshlar va infinitivlar bilan yasaladi: *цвет маренго, друзья из Киева, домик в деревне, кисточка для бритья, книга брата, чтение вслух, поездка сидя, стремление жить*.

Demak, rus tilida aniqlovchili birikmaning ham tobe, ham hokim a'zosi ayni bir vaqtda grammatik shakl oladi; o'zbek tilida esa tobe a'zo birikma doirasida mustaqil shakllanadi, hokim a'zo (aslida birikma yaxlitligicha) grammatik shakl oladi.

O'zbek tilida barcha sonlar sifatlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanaveradi. Rus tilida esa son bilan ifodalanadigan sifatlovchi alohida

xususiyatga ega. Bu Sh.Rahmatullayev asarida batafsil bayon etilgan. “son bilan ifodalanadigan sifatlovchi asosan moslashadi, lekin ba’zan boshqaruv ro‘y beradi: 1) sifatlovchi bo‘lib kelgan *два, три, четыре* sonlari именительный va винительный падежlarda sifatlanmishi родительный падежning birligida shakllanishini talab qiladi: *четыре студента* kabi; 2) sifatlovchi bo‘lib kelgan *пять* va undan yirik son (два, три, четыре sonlariga tugaydigan murakkab sonlardan tashqari) именительный va винительный падежlarda, sifatlanmishi родительный падежning ko‘pligida shakllanishini talab qiladi: *пять студентов* kabi. Boshqa hollarda son bilan ifodalangan sifatlovchi sifatlanmishi bilan moslashadi.”¹²

Rus tilida aniqlovchining moslashmaydigan turi ham ajratilishini aytgan edik. Ular quyidagicha shakllanadi:

1) Родительный падеж: *дом соседа, труд учёного*

2) Предлог bilan: *дом из кирпича, дорога в Ташкент, чай с молоком*

Bunday holatda aniqlovchi aniqlanmishga boshqaruv usuli bilan bog‘lanadi.

Rus tilida qaratqichli aniqlovchi yo‘q. *Qovunning urug‘i, shaharaning chekkasi* birikmalari *семена дыни, окраина города* kabi birikmalarga yaqin turadi, lekin teng emas, deydi Sh.Rahmatullayev. U shu nuqtada o‘zbek va rus tillarining bu kelishiklari o‘zaro o‘xshash ekanligini aytadi va misollar yordamida isbotlab beradi.

Holli birikmalar o‘zbek va rus tillarida deyarli bir xil ajratiladi. Faqat rus tilida sifatdosh hol vazifasida kelmaydi va o‘zbek tilidagi harakat nomiga muqobil hodisa esa rus tilida yo‘q. Rus tilining o‘ziga xos xususiyati shuki, hol bo‘lak infinitiv bilan ifodalanishi mumkin: *она пришла послушать музыку* kabi.

Relyativ (holli) birikma bosh so‘zga hol hisoblangan tobe soz birlashganda hosil bo‘ladi. Relyativ birikmalarning bosh so‘zi sifatida odatda fe’llar, sifat yoki sifatdoshlar keladi. Ularga esa, qoidasiga ko‘ra ravish, predlogli yoki predlogsiz vositali kelishikdagi ot, ravishdoshlar tobelanadi: *весело смеяться, бежать подпрыгивая, отдыхать летом, любить без памяти, постоянно болеющий, всегда спокойный, злой по утрам*.

O‘zbek tilida tobe so‘zning sintaktik vazifasiga ko‘ra tasnif etilganda, tobe so‘z hol vazifasida kelgan bo‘lsa, u albatta holli birikma sifatida belgilanadi: *hovliqib kirib keldi, chalqanchaga yiqildi* kabilar bunga dalil bo‘la oladi.

¹² Rahmatullayev Sh. O‘zbek va rus tillarini qiyoslash. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

O‘zbek va rus tillaridagi bunday birikmalarining farqi shundaki, o‘zbek tilida hol bo‘lak hollanmish oldidan keladi va odatda ajratilmaydi: *meni chin ko‘ngildan sevinib qarshi oldi*. Rus tilida esa hol bo‘lak ko‘pincha hollanmishdan keyin keladi va ajratiladi: *он лёг в постель, закутавшись ватным одеялом* kabi.

O‘zbek va rus tillarida birikmaning strukturasi ko‘ra tasnifi. O‘zbek tilida turg‘un birikmali ibora bilan hosil qilingan so‘z birikmasi tuzilishi jihatidan **sodda** so‘z birikmasi deyiladi. Huddi shunday, qo‘shma so‘zli so‘z birikmasi ham sodda turni tashkil qiladi: *qushqo‘nmas o‘simligi, borsa kelmas oroli, "Yoriltosh" ertagi*. So‘z birikmasining sodda degan turiga murakkab atamali turi qarama-qarshi qo‘yiladi. Ya‘ni bunda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar miqdori kamida uch so‘zning so‘z birikmasi hosil qila oluvchilik imkoniyati bilan belgilanadi. Uch mustaqil so‘z ishtirok etsa, ammo ulardan ikkitasi ajralmas xolatdagi birikma bo‘lsa, y murakkab emas, sodda so‘z birikmasi bo‘ladi. So‘z birikmasining sodda yoki murakkab deb baholanishi so‘zlarning miqdoran bir-biriga tobe (hokim-tobe) - hokim vaziyati asosida belgilanadi. Masalan, *uch o‘rdak – havodagi uch o‘rdak; qora qo‘y – katta qora qo‘y*. Bunda tobe so‘zdan keyin kelgan hokim vazifadagi so‘z keyingi hokim so‘zga nisbatan tobe bo‘lishi mumkin.

Rus tilida ham sodda birikmalar o‘zbek tilidagi bilan aynandir. Ya‘ni ikki mustaqil so‘zning biri tobe biri hokim vaziyati bilan tuzilgan birikmalarga **простое словосочетание** tushunchasi qo‘llaniladi. Ular ikki so‘zdan tarkib topishi majburiy emas. Ular sintaktik butunlik yoki frazeologik yo‘l bilan, shuningdek, analitik grammatik shakl bilan hosil bo‘lishi mumkin, masalan, *человек высокого роста, юноша двадцати лет, принять участие в состязании, самая интересная книга*. Bu birikmalar sodda hisoblanadi (qiyoslang: *высокий человек, двадцатилетний юноша, участвовать в соревновании, интереснейшая книга*), sintaktik jihatdan esa ular murakkab birikmalar bilan tenglashadi.

Murakkab birikmalar (сложное словосочетание)da birikma a‘zolarining hammasi ham bosh so‘zga tobe bo‘lmaydi. Masalan, *успех молодого писателя* birikmasida *молодого* aniqlovchisi mantiqan va shaklan shu guruhning bosh so‘zi *успехga* bog‘lanmayotir. Bundan ikkita birikmani ajratish mumkin, *успех писателя* va *молодого писателя*.

Shuningdek, bitta bosh so‘zga tobe bo‘luvchi uch va undan ko‘p a‘zoli birikmalar ham mavjud. Masalan, *любоваться по вечерам закатом, оклейка комнаты обоями*. Ko‘rinib turibdiki, bu masalada o‘zbek va rus tillarida deyarli farq yo‘q.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA GAP

Sintaksisning asosiy birligi gapdir. N.Mahmudov o‘zining “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” kitobida gapning boshqa sintaktik birliklardan predikativlik belgisi orqali farqlanishini aytadi.¹³ Masalan: *O‘rik gulladi va o‘rikning gullashi* qurilmalarining axborot hajmi bir xil. Ular faqat shu obyektiv mazmunni qanday ifodalashi jihatdan farq qiladi. Birinchisida predikativlik bor, ikkinchisida yo‘q.

Rus tilida ham gap xususida so‘z ketganda uning grammatik strukturasi predikativ asos tashkil qilishi aytiladi.

Rus tili grammatikasida gapning sintaktik birlik sifatida turli darajadagi tuzilishga ajratiladi. Bu

- grammatik tuzilish – bunda gapning **predikativ asosi** nazarda tutiladi (ega va kesim)

- semantik tuzilish – subyekt va uning predikati, harakati mazmunini ifoda etuvchi komponentlar yig‘indisi.

- kommunikativ tuzilish – **tema** (o‘zgarmas uzv) va **rema** (o‘zgaruvchan uzv)larini ifodalovchi komponentlar.

Bu tushunchalar, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham o‘rganilmoqda. Masalan, *Karim nima qildi* so‘rog‘ida *Karim* tema (ma‘lum), *Moskvaga ketdi* – rema (yangi) hisoblanadi.

Moskvaga kim ketdi so‘rog‘ida *Moskvaga ketdi* – tema, *Karim* – rema.

Karim qayerga ketdi – *Karim ketdi* – tema, *Moskvaga* – rema.

Demak, tema va rema sintaktik tuzilishning an’anaviy bosh bo‘laklariga o‘xshaydi: tema – ega, rema – kesim. Ammo tema-rem va ega-kesim bo‘linishlari o‘zaro munosabatda bo‘lgan boshqa boshqa tuzilishlar bo‘linishi bo‘lganligidan, ular bir biridan farq qiladi. Sintaktik tuzilish uzvlari bosh bo‘laklardan tashqari, yana boshqa bo‘laklardan ham tashkil topsa, kommunikativ tuzilish doimo ikki qismdan – tema va rema haqida ma‘lumot beruvchi markaz – remadan tashkil topadi.

Shu ma‘noda rus tilida ham o‘zbek tilida ham gap tipologiyasi 3 xil turli belgilar asosida quriladi degan xulosaga kelamiz. Bular: mazmuniy, funksional va struktur qurilishlardir.

Gaplarning mazmuniy belgisiga ko‘ra bo‘lish uning obyektiv modalligi asosida amalga oshiriladi. Ya‘ni uning ikki komponenti moslashuviga ko‘ra ikki xil – **real** va **irreal** modallik amalga oshadi. Real modallik hozirgi, kelasi va o‘tgan zamonlar aks etadi. Irreal modallik esa vaqtincha

¹³ Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). - Тошкент, Ўқитувчи, 1995 й.

noaniqlikni bildiradi. Tasdiq va inkor xarakteridagi gaplar reallikda ham irreallikda ham namoyon bo'ladi.

Я купил книгу va *я не купила книгу* gaplari real bo'lsa, *напиши письмо* va *не пиши письма*, *пошел бы в театр* va *не ходил бы в театр* ham modallikni anglatadi, faqat **irreal** hisoblanadi, chunki nutqda nazarda tutilayotgan fakt voqelikda o'z o'rniga ega emas. O'zbek tilida bunday tasnif kuzatilmaydi.

Shuningdek, rus tilida inkorni to'liq (полный) va qisman (частичный)ga ajratish mavjud. To'liq inkorga *не* yuklamasini kesimdan oldin qo'yib erishish mumkin. Bunday gaplarni **общеотрицательный** (umumiy inkor) deb ataladi. *Не* yuklamasi boshqa gap bo'laklari oldidan kelsa **частичное отрицание** (qisman inkor)ni ifoda etadi. Bunday gaplar **частноотрицательный** (xususiy inkor) deb ataladi. Zero, umumiy holatda ular tasdiqni ifoda etadi. Masalan, *но Кочубей богат и горд долгогривыми конями, не златом, данью крымских орд, не родовыми хуторами, прекрасной дочерью своей гордится старый Кочубей.*

Xullas, inkorning bunday va boshqa ko'rinishlari o'zbek tilida ajratilmaydi. Zero, *-ma* ko'rsatkichini o'zbek tilida faqat fe'l va uning shakllari qabul qila oladi. Shunga ko'ra gaplar ikki turga ajratiladi:

1. Tasdiq gaplar – misol: *Yaxshilik – insonning eng yaxshi fazilati. Kamtarlik insonning eng yaxshi fazilatidir. Kitob bilim manbai ekanligini biling. Vaqtingizni foydali ishlarga sarflang;*

2. Inkor gaplar – misol: *Bizda hech kim hech qachon unutilmaydi.*

Inkor gaplar ma'lum voqea-hodisaning mavjud emasligini bildiradi. Inkor gaplar tarkibida *hech kim, hech narsa, hech qachon* kabi bo'lishsiz olmoshlar ishtirok etishi mumkin. Inkor gaplarning kesimlari tarkibida bo'lishsizlikni ifodalovchi *-ma* affiksi, *emas* so'zi va *yo'q* so'zi ishtirok etadi. Misol: *Ota-bobolarimiz o'gitlarini hech qachon unutmaymiz. Ukam yalqov emas. Shu kitobni o'qib chiqqanim yo'q.*

O'zbek va rus tillarida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gapning ifoda-maqsadiga ko'ra tasnifi uning funktsional belgisi hisoblanadi. Shunga ko'ra gaplar rus tilida 1) повествовательные (darak), 2) вопросительные (so'roq) va 3) побудительные (buyruq); o'zbek tilida esa 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar va 4) istak gaplar ajratiladi. Bu gaplarning har qaysisi til sathida bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos modeliga ega.

Повествовательные предложения voqelikning biror fakti haqidagi axborotni o'zida aks ettirib, tasdiq yoki inkor shaklida kela oladi. U ham xuddi o'zbek tilidagidek ohangi bilan ajralib turadi: *Кибитка подъехала к*

крыльцу комендантского дома. Народ узнал колокольчик Пугачева и толпою бежал за ним. Швабрин встретил самозванца на крыльце. Он был одет казаком и отрастил себе бороду.

Darak gaplar xususida, o‘zbek tilida, ma’lum voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida tasdiq yoki inkor yo‘li bilan habar beruvchi gaplar, deb tavsif beriladi: *Umarbek guzarga, so‘ng tolmozorga yaqinlashsa hamki, o‘ziga kelolmadi.*

N.Mahmudov bu gaplarning mazmuniy paradigmasini beradi, ya’ni turli so‘z turkumlarini kesim qilib olib, shaklan modellashgan darak gaplarning turli mazmunlari mavjud, ular xabar mazmunini, orzu-umid, ishonch, maslahat, istak, tashviq, mavjudlik, atash ko‘rsatish yoki ishora mazmunlarini ifoda eta oladi.

Вопросительные предложения so‘zlovchini qiziqtirgan fikrni tinglovchidan eshitish maqsadida ifoda etilgan gapga aytiladi. Masalan, *Зачем тебе в Петербург? Что ты теперь скажешь себе в оправдание?*

So‘roq gaplar ham o‘ziga noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida ma’lumot olish maqsadida ishlatiladigan gaplarga aytiladi. Masalan, *Kimga asrashyapti bu joyni?* Har ikki tilda ham bunday gap boshqa tiplardan maxsus grammatik vositalari bilan ajralib turadi. O‘zbek tilida so‘roq yuklamalari, so‘roq olmoshlari, so‘roq ohangi muhim o‘rin tutsa, rus tilida вопросительная интонация, словорасположение, вопросительные слова so‘roq gaplarni shakllanishida ishtirok etadi.

O‘zbek tilida **so‘roq yuklamalari** (-mi, -chi, a/-ya) kesimga qo‘shiladi: *Onaxon nishon olgani uchun sen juda xursandmisan?*

Ayrim turkiy tillarda, xususan, qorachoy – bolqar tilida mantiqiy urg‘u qaysi bo‘lakda bo‘lsa, so‘roq yuklamasi ham shu bo‘lak tarkibida bo‘ladi. Masalan:

Samolyot bilan Ahmadmi ketdi?

Ahmad samolyot bilanmi ketdi?

Ahmad Moskvagami ketdi? va boshqalar.

So‘roq olmoshlari (kim?, nima?, qachon? qayer? nega? va boshqalar): *Nega itingizni og‘zini bog‘lab qo‘ydingiz?*

So‘roq ohangi so‘roq ifodalashning universal vositasidir. U so‘roq gaplarning hamma turida ishtirok etadi. Lekin so‘roq ifodalovchi maxsus shakliy vositalar ishlatilmaganda, ohang asosiy so‘roq ifodalovchi vosita hisoblanadi. Masalan: *Suv keldi — Suv keldi?*

Вопросительная интонация savolning ma’nosi bilan bog‘liq so‘zning yuqori ohangda aytilishi hisoblanadi. Masalan, *Вы на Западном*

фронте были? Вы на Западном фронте были? Вы на Западном фронте были?

Словорасположение – bunda odatda savol bilan bog'liq bo'lgan so'z gapning boshiga ko'chiriladi. Masalan, *Не град враждебный ли горит? Но скоро ль возвратится он с богатой данью?*

Вопросительные слова – so'roq yuklamalari, ravishlar, olmoshlar: *Не лучше ли тебе отстать от них самому? Неужели нет на свете женщины, которой вы хотели бы оставить что-нибудь на память? Зачем мы здесь стоим? Откуда зарево блестит? А что ты делал в моем саду?*

O'zbek tilida bunday gaplarning mazmuniy paradigmasi rus tiliga nisbatan kengroq sanab o'tiladi. Bular sof so'roq gaplar, taajjub, gumon, buyruq, darak, tashvish, g'azab, kinoya ma'nolaridir. Rus tilida esa gumon, shubha, ishonchsizlik, taajjub va boshqalar ajratiladi.

O'zbek tilida shakl va mazmuni nomutanosib bo'lgan ikki guruh so'roq gaplar ajratiladi: so'roq-darak gaplar, so'roq-buyruq gaplar. Ayrim tadqiqotlarda bu ikkichi bir umuiy nom – ritorik so'roq gaplar ostida birlashtirildi.

Rus tilida esa sof so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplar va ritorik so'roq gaplar ajratiladi.

So'roq darak gaplar – shaklan so'roq gaplarga o'xshasada, mazmunan savol mazmunini bermaydi:

She'rdan bahra olmagan kim? – She'rdan hamma bahra oladi.

Pichoqni shu Xolmat uradimi? – Pichoqni Xolmat urolmaydi.

Собственно вопросительные предложения – sof so'roq gaplar javob talab etiladigan so'roq gaplardir: *Написали ли вы свое завещание? Bu gaplarning bir ko'rinishi sifatida so'roq-tasdiq gaplar ko'rsatilib, ular mazkur so'roqda anglashilgan fikrni tasdiqlashga undaydi: Так вы едете? Так это решено, Герман? Значит, в Москву теперь?*

Shuningdek, so'roq-inkor gaplar ham mavjud. Bunda so'roq gapda anglashilgan fikrning inkor etilishiga undov aks etadi: *Что же вам тут может нравиться? Кажется, это не особенно приятно? Что нового он может рассказать?*

Bu gaplar o'zaro birikib, so'roq darak gaplarni hosil qilishi ham mumkin. Zero, ular savoldan axborotga ko'chish xususiyatiga ega.

So'roq-buyruq gaplar o'zbek tilida buyruq mazmunini ifodalovchi so'roq gaplarga aytiladi: *Ог айиqlарни ko'rmaysizmi?*

Вопросительно-побудительные предложения. Rus tilida so'roq-buyruq gaplar savol orqali ifoda etilgan harakat bajarishga undaydi.

Masalan, *Итак, может быть, наш прекрасный поэт продолжит прерванное чтение? Не поговорить ли нам сначала о делах?*

Вопросительно-риторические предложения. O‘zbek va rus tili grammatikasidagi so‘roq gaplar tasnifida asosiy farq bu – ritorik so‘roq gapning ikki xil o‘rinlashuvi. Ya’ni rus tilida u alohida mavqega ega. Ritorik so‘roq gap – tasdiq yoki inkorni anglatib keladi (ответ в форме вопроса): *Скажите, Степан, вы женились по любви? – спросила Машиа. – Какая у нас в деревне любовь? – ответил Степан и усмехнулся.* Bunday gaplar o‘zbek tilida so‘roq-darak gaplar deyiladi.

Побудительные предложения deb so‘zlovchining buyrug‘ini ifoda etadigan gaplarga aytiladi. Uning maqsadi harakatga mayl etish hisoblanadi.

Buyruq gaplar kesimi buyruq maylidagi fe’llardan ifodalangan gaplar hisoblanadi: *Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar.*

Rus tilida ham kesim markaziy bo‘lak hisoblanib, uning ifodalanishiga ko‘ra buyruq gaplar quyidagicha farqlanadi:

✓ Buyruq maylidagi shaklni olgan fe’lning kesim bo‘lib kelishi: *Уж вы капитана разбудите сначала; Вот ты и повози денек.* Buyruq ma’nosini fe’lga maxsus yuklamalar ham berishi mumkin: *Пусть сильнее грянет буря!; Да здравствует солнце, да скроется тьма!*

✓ Buyruq gaplarning kesimi sifatida aniqlik (изъявительное наклонение) maylidagi (o‘tgan va kelasi zamon) fe’llari ham qo‘llanilishi mumkin: *Поговорим о бурных днях Кавказа, о Шиллере, о славе, о любви!; Пошел с дороги!; Поехали!*

✓ Kesim sifatida istak (согласительное наклонение) maylidagi fe’llar ham foydalaniladi: *Ты бы послушала, какая в душе у меня музыка.* Bunday gaplar orasidan *чтобы* so‘zi qo‘llanganlari ajralib turadi: *Чтоб никогда об вас я больше не слыхала.* Bunda fe’l tushib qolishi ham mumkin: *Чтобы ни одна душа – ни-ни.* Bunday gaplar so‘zlashuv nutqiga xos.

✓ Buyruq gaplarning kesimi infinitiv bo‘lishi ham mumkin: *Позвать Бертрана; Не сметь меня раздражать!* Infinitivni *бы* yuklamasi bilan qo‘llansa mayin iltimosni, maslahatni ifodalaydi: *К Татьяне Юрьевне хоть раз бы съездить вам!*

✓ So‘zlashuv nutqida buyruq gaplarni, ko‘pincha, kesimsiz qo‘llash hollari uchraydi: *Карету мне, карету!; Дежурного генерала скорее!; тише, сюда, осторожней. В степь, где не светит луна!; Гопода! Молчание! Наш прекрасный поэт прочтет нам свое прекрасное стихотворение.* O‘zbek tilida ham ba’zan buyruq gapning markaziy qismi

– kesim bevosita ifodalanmasligi mumkin. U nutq vaziyatidan anglashilib turadi: *Hamma dalaga.*

✓ *Айда, марш, цыц* kabi maxsus undalmalar (междометия) buyruq gaplarning (so‘zlashuv nutqida) struktur markazi bo‘lib xizmat qilishi mumkin: *Айда ко мне! – крикнул он.*

O‘zbek ilida buyruq gaplarning shakliy paradigmasi faqat buyruq maylidagi fe’llardan tarkib topishini, uni shaxs va son belgisiga ko‘ra turli variantlarda namoyon bo‘lishini ayta olamiz xolos. Masalan,

I shaxs. *Arz etayin, endi yozib nomalar.*

II shaxs. *Keling, chaqchqlashaylik.*

III shaxs. *Omon bo‘lsin do‘stlarning bari.*

Shuningdek, kerak, lozim, darkor so‘zlarining harakat nomi bilan birgalikda qo‘llanilishidan iborat bo‘lgan gaplar ham buyruq gap sifatida qabul qilinadi.

Buyruq gaplarning mazmuniy paradigmasida ham rus tilining ko‘lami ustunlik qiladi. Masalan,

✚ Buyruq, iltimos, o‘tinch ma’nolari rus tilida bir turda, o‘zbek tilida alohida ko‘rsatiladi. *Молчать! ...ты!; Поезжай, Петр!; Дяденька принорий... наклонись-ка ухом!; А ты, голубчик, не ломай его...* O‘zbek tilida buyruq gaplarning “buyruq” semasi birlashtiruvchi arxisema sifatida qaralib, alohida ajratilmay, bu turdan faqat bir sema, jumladan “iltimos” semasi ko‘rsatiladi: *Alisher, eski ginalarni unuting, yana o‘z joyingizni egallang.*

✚ Maslahat, taklif, ogohlantirish, e’tiroz, tahdid kabi semalar rus tilida bir turga birlashtiriladi: *Оригинальная баба эта Арина: вы заметьте, Николай Петрович.; Питомцы ветреной Судьбы, тираны мира! Трепещите! А вы, мужайтесь и внемлите, восстаньте, падшие рабы!; Смотри, чаще руки-то мой, - берегись!* O‘zbek tilida bunday arxisemalarning faqat “maslahat” semasi tarkibida o‘rganiladi: *Ortiqcha gapirma. Bilim cho‘qqilarni egallash kerak. Ibrat olgil yon qo‘shnimiz Sharif boydan.*

✚ Rozilik, ijozat semalari o‘zbek tilida farqlanmaydi. Rus tilida *Как хочешь, так и поступай; можешь идти куда глаза глядят* kabi ma’nolar o‘zbek tilida ham yo‘q emas. Buni tadqiq etib, adabiyotlarda aks ettirish kerak.

✚ Rus tilida chaqiriq, birgalikdagi harakatga taklif manolari *Ну, вот и давай стараться во всю силу победить болезнь; Мой друг, отчизне посвятим души прекрасные порывы!* kabi buyruq gaplarda o‘z aksini topadi. O‘zbek tilida bunday sema “tashviq” nomi ostida o‘rganiladi:

Bolangni o'ldirgan, xotiningni xazon qilgan boyning, boylarning jazosini ber.

✚ Rus tilida buyruq gaplarning tarkibiga kiritiluvchi istak ma'nosi 5-sema sifatida qaralib “желание”, ya'ni istak semasi farqlanadi: *Дать бы ему сажи голландской с ромом.* O'zbek tilida bunday gaplar gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarning alohida ko'rinishi deb ajratiladi.

Istak gaplar kesimi shart-istak maylidagi fe'llardan ifodalangan gaplardir. Masalan, *Bir go'shai bog' bo'lsa-yu, sen bo'lsangu men.* (Bobur) N.Mahmudov bunday gaplarning alohida modeli borligini va nutqda konnotativ ma'no ma'lum axborot berishi bilan birga, so'zlovchining istagi, xohishining ifodalanishi nuqtai nazardan ifoda maqsadga ko'ra boshqa gaplar bilan bir paradigmani hosil qilishini ta'kidlaydi. *Oliy o'quv yurtini bitirsam, ajoyib muhandis bo'lsam. Shaharlarga, qishloqlarning bog'rog'larga burkanishiga o'z hissamni qo'shsam.*

Olimning xulosasi shunday: so'zlovchi 4 xil niyatda bo'ladi: axborot berish, so'rash, buyurish va istak bildirish. Bu niyatlar gapning ifoda maqsadga ko'ra gap turlarining shaklida o'rin almashishi, mazmuniy paradigmadagi asosiy yoki ikkinchi plandagi semalarni tashishi mumkin. Buni quyidagi jadvalda yorqinroq tasavvur qilish mumkin:

So'zlovchi niyati	Gap turi	Gap shakli
Axborot berish	Darak gap, so'roq-darak gap	Darak
So'rash	So'roq gap, so'roq-buyruq gap	So'roq
Buyurish	Buyruq gap	Buyruq
Istak bildirish	Istak gap	Istak

Gapning emotsionallikka ko'ra turlari. Gaplar nutqda turli variantlarda namoyon bo'lar ekan, unda qo'shimcha belgilar, ottenkalar, niyat va maqsadlar bo'lishi tabiiy. Tilshunoslar bu belgilardan birini his-hayajon deb ataydilar. Shunga ko'ra, o'zbek tilida his-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar farqlanadi. Rus tilida his hayajonli gaplar undov gaplar (восклицательные предложения) deb yuritiladi. Ular maxsus undov ohangi bilan ifodalangan emotsional bo'yoqqa ega. Demak, o'zbek va rus tilida darak, so'roq, buyruq va o'zbek tilida bulardan tashqari yana istak gaplar nutq jarayonida so'zlovchining his-hayajonini ham ifodalashi, ularni his-hayajonli gapga aylantiradi. N.Mahmudov bunday gaplarni undov gap deb yuritiladi, deydi va ularning shakliy tuzilish jihatdan farqlovchi belgilarini ko'rsatadi:

❖ Undov ohangi, kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi.

❖ Tarkibida hayajon bildiruvchi soʻzlar ishtirok etadi. Masalan, *Oh, naqadar goʻzal bu makon!*

Rus tilida bu belgilar quyidagicha:

❖ Turli – quvonch, oʻkinch, ranj, gʻazab, hayrat kabi hissiyotlarni ifodalovchi ohang: *Прощай, письмо любви, прощай! Явись, вдохни восторг и рвенье полком, оставленным тобой!*

❖ Undov soʻz: *Ах, этот человек всегда причиной мне ужасного расстройства; ... и, увы, мое шампанское торжествует над силою магнетических ее глазок; Ух!.. хорошо здесь подают! Ахти, хорошо! Тьфу, господи, прости!*

❖ Ifodaga emotsionallik bagʻishlovchi undov, olmosh va ravishlardan kelib chiqqan soʻroq yuklamalari: *ну, о, ну и, куда как, как, какой, что за ва б. Масалан, Ну что за шейка! Что за глазки! Ну вот вам и потеха! Куда как мил! То ль дело Киев! Что за край! Фу ты какая!*

OʻZBEK VA RUS TILLARIDA SODDA GAP

Sodda gaplarning qiyosiy tahlilida til qurilishi tiplarining oʻrni.

Sintaktik tipologiya toʻgʻrisida N.S. Sharafutdinova oʻzining “Лингвистическая типология и языковые ареалы”¹⁴ nomli kitobida XIX asrning oxirida gap qurilishi tipologiyasi sifatida paydo boʻlgan va hind-eron, kavkaz, eskimo-aleut, bask va boshqa koʻplab tillarda ergativ qurilishning kashf etilishi bilan bogʻliq edi, deb aytiladi. Turli tillar sintaksisida maʼlum darajada tipologik oʻxshashlik va farqlar allaqachon morfologik tipologiyada oʻz isbotini topgan.

Zamonaviy tilshunoslar 5 xil tipologik tillar tizimini (tillarning qurilish tipi)ni ajratadilar. Bular, yuqoridagi mavzularda qayd etilgan nominativ, ergotiv, aktiv, guruhli va neytral qirilishga ega tillardir. Maʼlumki, hind-yevropa va turkiy tillar dunyodagi koʻplab tillar singari nominativ tillar sirasiga kiradi. Sh. Sharafutdinova nominativ tillarda gapning qurilishi harakatning subyektini va uning obyektini maksimal darajada farqlashga qaratiladi, deydi. Birinchidan, harakat subyektini (nominativ yoki bosh kelishik) va obyektini (tushum va boshqa vositali kelishiklar) oppozitsiyasi, ikkinchidan oʻtimli va oʻtimsiz fellarning leksik-grammatik ziddiyati va uchinchidan, vositasiz va vositali obyektlarning qarama-qarshiligi bu tip tillarda oʻz aksini topadi. Ergativ tillarda faolroq, kam faol va mustaqil

¹⁴ Шарафутдинова Н.С. Лингвистическая типология и языковые ареалы. – Ульяновск. УлГТУ. 2011. С. 60. – 160 с.

harakatlar o'rtasida katta farqlar mavjud. Bu farqlar 1) o'timli (aktiv) va o'timsiz (passiv) fe'llarda; 2) harakatning ko'proq yoki kamroq faolligiga ko'ra (harakatning subyekti ko'proq faol bo'lsa, ega ergotiv kelishikda, kamroq faol bo'lsa ega absolyut kelishikda bo'ladi) uning subyekti uchun ikki kelishikning ziddiyatida; 3) harakatning ko'p yoki kam faolligiga qarab (ko'proq faol bo'lsa vositasiz obyekt absolyut kelishikda, harakatning obyektini kamroq faol bo'lsa ergotiv kelishikning vositali obyektini oladi) uning obyektini uchun ikki kelishikning ziddiyatida o'z aksini topadi. Nominativ tillarda qurilmalar subyekt va obyektini ifoda etishda bosh (imenit.) va tushum (vinit.) kelishiklari farqlanadi. Ergotiv qurilmalarda bitta kelishik uning ham buning ham vazifasini bajarib keladi. Bu ikki vazifani bajarish uchun absolyut kelishik maydonga chiqadi. O'zbek va rus tillari bir tip tillar sirasiga kirar ekan, yuqorida zikr etilgan holatlarda katta farqlar kuzatilmagani ma'lum bo'ladi.

Gapning tipologiyasi tillarning sintaktik tuzilishi, ulardagi jumlaning tarkibiy va semantik komponentlari tartibi, gap bo'laklari o'rtasidagi munosabat shakllari va birliklarni bog'lovchi vositalari bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratadi. Turkiy tillar tipologik pasportida gaplar xususida V.D.Arakin so'z tartibini qat'iy ekanligini, kesimning gapning oxiridan o'rin egallashini va so'roq gaplar darak gaplardagidek tartiblanishini ataydi.¹⁵ Lekin o'zbek tilining imkoniyatlari bu masalada ham ustunlik qilishi: birliklarning o'rnini almashishi, inversiya hodisasi, uslubiy, pragmatik omillar, tejamkorlik, qolaversa o'zbek tilining tarixiy ildizlariga borib taqaladigan ko'pma'nolilik jihatlari buning aksini ko'rsatadi. Umuman olganda, gapning bosh bo'laklarining joylashuvidan tashqari o'zbek tili rus tili bilan u qadar katta farq qilmaydi. Masalan, *Hozir 3-kursda 96 ta talaba o'qiydi./ Сейчас на 3 курсе обучаются 96 студентов* gaplari 4 bo'lakdan tarkib topgan.

1. *Hozir /Сейчас*

2. *3-kursda /на 3 курсе*

3. *96 ta talaba /96 студентов*

4. *o'qiydi/обучаются*

Bunda birinchi va to'rtinchi bo'lak yakka so'zshakl, ikkinchi uchinchi bo'lak esa birikma bilan ifodalangan.

O. Azizov o'z asarining sintaksis bo'limini sodda gaplardan boshlaydi, biroq unga umumiy tavsif bermasdan gap bo'laklari kesimida qiyosiy tahlilni amalga oshiradi. Ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar juda

¹⁵ Аракин В.Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. – М.: Высшая школа, 1989. - С.142

batafsil va mukammal ishni bajaradi. Sodda gaplarning umumiy tavsifi ko‘proq Sh.Rahmatullaevning ishida o‘z aksini topadi.

Olimning tavsifida ko‘proq tilning o‘xshashligini ko‘rish mumkin, faqat, ayrim jihatlarida farqini ko‘rsatib ketadi. Masalan, ega xususida

1) rus tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari borligini, uning gapda qatnashuviga zarurat rus tilida o‘zbek tilidagiga nisbatan kuchli ekanligini;

2) rus tilida kesim eganing rodiga va grammatik soniga qarab ma’lum bir ko‘rsatkichni qabul qilishini;

3) rus tilida kishilik olmoshlari (*я, ты, он, она, оно, мы, вы, они*) ega vazifasida kelganda tuslovchini doim qabul qilavermasligini, masalan, *я читаю* tipidagi gaplarda kesim tuslovchili bo‘lsa, *я студент, ты получил* kabi gaplarda kesim tuslovchisiz bo‘lishini aytadi.

Я пришёл, ты пришел, мы студенты kabi gaplarda predikativ shaxs ma’nosi kesim orqali emas, ega (*я, он, они*) orqali ifodalanadi. Shu sababli bunday hollarda eganing ishlatilishi shart, aks holda gap tuzilmaydi.

Rus tilida faqat hozirgi yoki kelasi zamon fe’li bilan ifodalangan kesimdagina shaxs ko‘rsatkichlari bo‘ladi: *Я иду, я получу, ты идёшь, он получит, он получит, они получают*. Faqat shu holatdagina xuddi o‘zbek tilidagidek mustaqillikni oladi, faqat shundagina egani tushurib qoldirish mumkin.

Olmoshlarning *что, что-то, что-нибудь, что либо, ничто, нечто, кое-что* olmoshlari grammatik jihatdan sredniy rod bo‘lgani uchun ega vazifasini bajarganda kesim ham shu rodga keladi: *что произошло, ничто не тревожит, кое-что имеется, что-то случилось* kabi.

Rus tilining yana bir o‘ziga xos tomoni, bu *это* oloshining barcha roddagi ko‘rinishi So‘z birikmasida, *это* shakli esa gapda ega bo‘lib kelishidir. *Это – сад, это – дерево, это – студенты, это – комната...* Demak, kesim qaysi rod oti bilan ifodalanishidan qat’iy nazar, *это* ega vazifasida keladi. *Этот домик, эта комната, эти студенты* – gap emas, ular birikmalardir.

O. Azizov (va b.) ega o‘rnida keluvchi otlashgan sifat va sifatdoshlar, sonlar, infinitiv (fe’lning noaniq shakli)ni ham fe’l bilan rodga, sonda moslashuvini batafsil bayon etadi.

Kesim gapning acosiy grammatik belgisi – predikativlik ekan, unda modallik, zamon va shaxs-son kategoriyasining ifodalanishi ancha ustun. Bu o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati. Olim ham uning o‘zbek tilida gap tarkibida bo‘lmagan holatini kamdan kam uchrashini ta’kidlaydi. Rus tilida, kesimsiz, ya’ni faqat egadan (ega sostavidan) iborat gaplar bor, deydi. Biroq

unda kesimlik xususiyatini aks etishini inkor etmaydi. U kesimlar xususida soʻz ketganda oʻzbek tili va rus tilidagi maʼlumotlarni alohida-alohida beradi. Ularning tasnifi, oʻziga xos xususiyatlari, kesimni ifodalashda qisqa ot, sifat (men qisqa gapiraman – *я буду краток*), ravishlar (*холодно, жарко*), infinitiv, sifatdoshlarning roli, rod, shaxs omillari sanab oʻtiladi. Bizningcha bunday metod, rus tilini alohida va oʻzbek tilini alohida oʻrganuvchilar uchun qulay boʻlib, bunday yondashuv umumiy qiyosiy tahlildan uzoqlashtirgan.

Xullas, O.Azizov va uning hammualliflarining har bir gap boʻlagiga bergan tavsifi bugungi kunda juda ahamiyatli boʻlib, ega va kesimdan tashqari, aniqlovchi, toʻldiruvchi va hollar ham olim tomonidan juda chuqur tahlil qilingan.

Sh.Rahmatullayev sodda gaplarning tartibi xususida gap ketganda, “gap boʻlaklarining tartibi” emas “sintaktik boʻlaklarning tartibi” deb atashni taklif etadi. Chunki “Gap tarkibida gapning boʻlagi (ega, kesim), brikmaning boʻlagi (sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi, toʻldiruvchi, hol) va gap boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan boʻlak (undalma, kirish) qatnashuvini ham hisobga olsak, “gap boʻlaklarining tartibi” deyishdan ham koʻra “sintaktik boʻlaklarning tartibi” deyishimiz toʻgʻri.

Ikki hodisani farqlash lozim: sintaktik boʻlakning oʻrni bor va bu oʻrinni oʻzgartirish mumkin. Oʻrni qatʼiy belgilangan boʻlakka nisbatan tartib haqida gapirib boʻlmaydi. Odatdagi oʻrinni oʻzgartirishga yoʻl qoʻyadigan boʻlakdagina tartib erkinligi mavjud. Sintaktik boʻlaklarning oʻrnini va tartibini belgilashda nasriy adabiy nutq asosga olinadi.

Predikativ bogʻlanmada rus tilida ham, oʻzbek tilida ham avval ega, keyin kesim joylashadi. Uslubga bogʻliq holda yoki boshqa biror maqsad va sabab bilan ega kesimdan keyinga koʻchirilishi mumkin: *Ведь пришел же я! Keldim-ku axir men!*

Sifatlovchili birikmada avval sifatlovchi, keyin sifatlanmish joylashadi: *широкая дорога, кенг yoʻl* kabi. Rus tilidagi moslashmaydigan sifatlovchi sifatlanmishdan keyin joylashadi: *суп с фрикадельками* kabi. Sifatlovchlarda tartib erkinligi yoʻq. Oʻzbek tilidagi qaratuvchilarda ham tartib erkinligi yoʻq.

Toʻldiruvchi oʻzbek tilida toʻldirilmishdan oldin, rus tilida esa koʻpincha keyin joylashadi. Ham vositasiz, ham vositali toʻldiruvchi kelsa, oʻzbek tilida toʻldirilmish oldida vositasiz toʻldiruvchi joylashadi, vositali toʻldiruvchi esa vositasiz toʻldiruvchidan oldin joylashadi (toʻldirilmishga vositasiz toʻldiruvchi yaqin joylashadi); rus tilida esa toʻldirilmishdan keyin odatda vositali toʻldiruvchi, undan keyin vositasiz toʻldiruvchi joylashadi

(to'ldirilmishga vositali to'ldiruvchi yaqin joylashadi): o'quvchilarga topshiriq bermoq – *дать ученикам задание* kabi. Lekin gap tarkibida to'ldiruvchi turli tartibda joylasha oladi.

Hol o'zbek tilida hollanmishdan oldin, rus tilida esa asosan keyin joylashadi. Bundan qat'iy nazar, holning ma'no turlarida o'rin va tartib har xil: hollanmishga eng yaqin ravish holi, undan oldin (keyin) miqdor holi, maqsad holi, undan ham oldin (keyin) holning boshqa turlari joylashadi. Gap tarkibida bular, o'z-o'zidan, turlicha joylasha oladi.

Yoyiq gapda avval ega sostavi (ega dastasi), keyin kesim dastasi joylashadi. To'ldiruvchi va hol odatda kesim dastasiga mansub bo'ladi, lekin gap tarkibida nisbiy mustaqillik qozonib, gapga butunligicha ta'luqli bo'lishi, shu sababli gapning bosh qismida (egadan oldin) joylashuvi mumkin. Bunday xususiyat to'ldiruvchilarga, holning esa ayrim ma'no turlariga (asosan payt va hollariga) xos.

Gapga bir butun holda taalluqli ana shunday sitaktik bo'lakka determinant deyilmoqda (tik chiziq bilan birlamchi tahlilda ajratiladigan sitaktik bo'laklarning chegarasini ko'rsatdik): *Uch kundan so'ng | Shoqosim | tilanchilikdan | qutuldi* (Oybek). *В начале июня | часто | или | необычные для лета дожди* (Шолохов).

Bundan qat'iy nazar, to'ldiruvchi va hol gapda turlicha o'rinda kela oladi, demak, birikmaning bo'lagi holatidan gapning bo'lagi holatiga ko'tarila oladi (bular birikmaning bo'lagi holatida qolishi ham mumkin, bunday hodisa sitaktik bo'lak bog'lanma bilan ifodalanganida yuz beradi): *Bu juvozkashdan | Yo'lchi | o'z xo'jayinining sigir buzoqlari uchun | ba'zi vaqt | kunjara olib, u bilan tanish bo'lgan edi* (Oybek). *В стени за хутором | стыла | прозрачная тишина* (Шолохов).

Xullas, ega, kesim, to'ldiruvchi, shuningdek holning ma'lum turlari tartib erkinligiga ega; sifatlovchida, qaratuvchida qisman izohlovchida bunday xususiyat yo'q, shu sababli bular gap tarkibiga o'z sifatlanmishi bilan birgalikda kiradi va birgalikda bir sintaktik bo'lak vazifasini bajaradi. Tartib erkinligi bor sintaktik bo'laklarda ularning joylashuvi ma'no va uslub talabiga ko'ra turlicha bo'ladi. Yoyiq sodda gapda sintaktik bo'laklarning odatdagi joylashuvi bo'yicha asosiy farq shuki, rus tilida kesim egadan keyin, lekin to'ldiruvchilardan oldin joylashadi, o'zbek tilida esa kesim hamma bo'laklardan keyin, gapning oxirida keladi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA TO‘LIQ VA TO‘LIQSIZ GAPLAR

O‘zbek va rus tillarida gaplar o‘zining ma’lum tipdagi tuzilishiga ko‘ra ya’ni biror zarur bo‘lakning ifodalanmasdan tushib qolishiga qarab ikkiga ajratiladi: 1. To‘liq gaplar. 2. To‘liqsiz gaplar.

Har ikki tilda ham to‘liq gapda biror zarur bo‘lakning tushib qolganligi sezilmaydi. Gap uchun zarur bo‘lgan odatdagi struktura saqlanadi, hamma zarur bo‘lgan bo‘laklar o‘z ifodasini topadi.

Masalan: *Bola kitobni keltirdi.* (to‘liq gap) / *Кто написал комедию «Ревизор»?*

To‘liqsiz gapda odatdagi tipik tartib, sxemadan chiqib biror bo‘lak «yashiringan» yoki «tushirilib qoldirilgan» bo‘ladi. Lekin bu kontekstdan nutq jarayonidan sezilib turadi. Demak, ma’lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan bo‘laklarning bir qismi tushirilgan gaplar to‘liqsiz gap deyiladi. Lekin bunday gaplarda ma’lum bo‘lak tushirilgan bo‘lsa ham, gap fikran to‘liq bo‘ladi. Masalan: *Bola nimani keltirdi* bo‘laklarining yo‘qligi, tushib qolganligi oldingi so‘roq gapdan anglashilib turadi. «*В понедельник иду в театр. В среду — на концерт*».

To‘liqsiz gaplar jonli nutqda savol-javob tipidagi tekstlarda ko‘p qo‘llanadi. Buning sababi shuki, so‘zlash paytidagi vaziyat, mimika va har xil imo-ishoralar fikrni ixcham ifodalashga imkon beradi.

«— *Я завтра уезжаю* (to‘liq).

— *Куда?* (to‘liqsiz)

— *В Санкт-Петербурге* (to‘liqsiz).

— *Зачем?* (to‘liqsiz)

— *На экскурсию* (to‘liqsiz)».

To‘liqsiz gaplar, asosan, diologik nutq uchun, qisman monologik nutq uchun xarakterlidir. Savol-javoblarda diologik mazmuniga yangilik qo‘shadigan gap bo‘laklari ishlatilib, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan aytilgan gap bo‘laklari keyingisida tushirib qoldiriladi. Masalan: *Mana bu chamadonni xujraga kiritib qo‘ygin, Xujrani yasatganmisan?*

- *Yasatganman, bek aka.*

- *Surat-purat qoqqanmisan?*

- *Qoqqanman bek aka.* (A.Q.) Monologik nutq uchun xarakterli bo‘lgan to‘liqsiz gaplarda asosan, kesim qo‘llanmaydi: *Oltin olovda bilinadi, odam-mehnatda.*

To‘liq va to‘liqsiz gaplar xususida qiyosiy izlanishlar, adabiyotlar bo‘lmaganligi sababi, o‘zbek va rus tillarida bunday gaplarda farqlarning kamligi bo‘lishi mumkin. Ular bir va ikki bosh bo‘lakli gaplar mavzusiga

singdirib o'rganilganda ikki tilning muayyan xususiy jihatlarini sezish mumkin. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, gap bo'laklari o'z o'rnida ishtiroq etgan gaplar, odatda, to'liq, ayrim gap bo'laklari ishtirok etmagan gap to'liqsiz gaplar bo'ladi. Bunda bosh bo'lakning ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli, ularning ishtirokiga ko'ra bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarga ajraladi. Shunda, bir bosh bo'lakli gaplar, ko'pincha, to'liqsiz gap hisoblanadi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA BIR BOSH BO'LAKLI GAPLAR

O'zbek va rus tillarida bir bosh bo'lakli gaplar tipologiyasi. Gapning grammatik asosini o'zbek tilida ham rus tilida ham bosh bo'laklar – ega va kesim tashkil etadi. O'zbek tilida kesim vazifasidagi so'zda modallik, zamon, predikativ shaxs ko'rsatkichlari rus tiliga nisbatan ustunlikka ega, shuning uchun, egani kesimning o'zi ham kesimlik shakllari orqali ko'rsatishi mumkin (*Keldim*). Rus tilida esa gap strukturasi ega qatnashishi shart, chunki, odatda, kesimning o'zi egani aniqlab bera olmaydi (*Я пишу*). O. Azizov bilan uning hammualliflari rus tilida o'tgan zamon fe'li shaxs bilan tuslanmaydi, uning rod ko'rsatkichlari bor, deyishadi. Shu sababdan, o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan kesimli gap odatda egasiz ishlatilmaydi. Chunki, shaxs ko'rsatkichsiz kesimli gapning egasi rus tilida gapning predikativ shaxsini ifodalovchi elementdir. Qiyoslang: *men ishladim – ishladim* → o'zbek tilida egali va egasiz gap. *Я работал* → rus tilida faqat egali gap. Shuning uchun, o'zbek tilida ayrim adabiyotlarda bir sostavli, ikki sostavli emas, eganing ishtirokiga ko'ra gap turlari, deb talqin qilinadi. Shunga ko'ra, avvalo, ***egasiz topiladigan*** va ***egasiz topilmaydigan*** gaplar, undan keyin egasi topiladigan gaplar o'z navbatida: ***shaxsi aniq***, ***shaxsi noaniq***, ***shaxsi umumlashgan*** gaplarga ajratiladi. Egasi topiladigan gaplarni kesimdan anglab olish mumkin.

Rus tilida ikki bosh bo'laklardan faqat bittasi ishtirok etgan gaplarga nisbatan bir bosh bo'lakli gap deyiladi. Bir bosh bo'lakli gaplar rus tilining sintaktik birligi hisoblangan predikativlik, ya'ni ma'lum bir vaqt makonida yoki undan tashqarida sodir bo'layotgan voqelikni xabar qilish xususiyatiga ega va bo'laklarning ishtirokiga ko'ra ***egasiz*** («*Вечером*». «*Цыплят по осени считают*» (*Пословица*). «*Откройте дверь!*») va ***kesimsiz*** («*Тишина*». «*Ночь*». «*Какая ночь!*» «*Дым костра*».) bir bosh bo'lakli gaplarga bo'linadi hamda kesimning ishtirokiga ko'ra tasnif deb o'rganiladi (Односоставные предложения с главным членом — сказуемым). Bular:

1. Определённо-личные предложения.

2. Неопределённо-личные предложения.

3. Безличные предложения.

Demak, o‘zbek va rus tillarida shu nuqtada bir sostavli gaplarning tasnifi ziddiyatga uchraydi. Ya’ni, egasi topilmaydigan gaplar, rus tilida bir bosh bo‘lakli gaplar tarkibida shaxssiz gaplar (Безличные предложения) deb talqin qilinadi.

O‘zbek va rus tillarida egasiz gaplar tipologiyasi. O‘zbek tilida bir bosh bo‘lakli gaplarda gapning ega yoki kesimi yashirinmaydi, predikativlik bir bosh bo‘lak orqali ifodalanadi, ya’ni ega ifodalangan bo‘lsa, kesimning mazmuni eganing mazmuni orqali bilinadi yoki kesim ifodalansa, eganing mazmuni kesimning mazmunidan anglashilib turadi. Har ikki tilda ham egasiz gaplarning predikativ axboroti shaxsning bo‘r-yo‘qligiga ko‘ra tasnifi bo‘lib, ular muayyan darajada farqlarga va umumiy jihatlarga ega.

Shaxsi aniq gap (определённо-личные предложения). Kesimi fe’l bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxs yoki predmet – egani bevosita ko‘rsatib turadigan bir sostavli sodda gap shaxsi aniq gap deyiladi. Chunki bunda ega mustaqil ifodalangan bo‘lmaydi. Gapning kesimi o‘zbek va rus tillarida birinchi va ikkinchi shaxsdagi fe’l bilan ifodalanadi. Ular ko‘proq diologik nutqda qo‘llaniladi. Masalan: *Qo‘shiq deb yozdim yurak unlarini. «Иду, смотрю по сторонам». «Держите вора!»*

Shaxsi noaniq gap (неопределённо-личные предложения). Bosh bo‘lagi fe’l bilan ifodalanib, harakat bajaruvchi shaxsni aniq ko‘rsatmaydigan bir sostavli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Shaxsi noaniq gapning bosh bo‘lagi o‘zbek tilida ham rus tilida ham, 3-shaxsdagi fe’l bilan ifodalanadi, lekin bajaruvchi shaxs aniq ko‘rsatilmaydi. *Qush edim, qanotimni qayirdilar. «В дверь осторожно постучали (прошедшее время.)». «Звонят (настоящее время, 3-е лицо)»! «Разрешили бы (условное наклонение) мне сесть за руль»...*

Shaxsi umumlashgan gap (обобщённо-личные предложения). Kesimi fe’l bilan ifodalanib, ma’no jihatdan umumga qaratilgan bir bosh bo‘lakli gapga shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Unda gapning kesimi ko‘pincha fe’lning III shaxs buyruq-istak maylidagi shakl bilan qo‘llanadi, I va II shaxsdagi fe’llar bilan kam ifodalanadi.

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ijro mayli va shart-istak maylidagi fe’llar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Bilmaganni bildim dema, qilmaganni qildim dema.* (Maqol.) *Olim bo‘lsang, olam seniki.* (Maqol.) Maqollar ko‘proq shaxsi umumlashgan gap shaklida bo‘ladi.

Rus tilida ham ba’zi olimlar bir bosh bo‘lakli gaplarning to‘rtinchi turini – shaxsi umumlashgan gapni ham ajratishgan. Bu gaplar shaxsning keng

doirasiga taalluqli bo'lgan harakatni ifodalaydi. «Прожитых лет не воротись» (И. Сурков). «Дни поздней осени бранят обыкновенно...» (А. Пушкин). «На чужой роток не накинешь платок» (Пословица). Ko'rinib turganidek, 3-shaxs ko'plik, 2-shaxs birlik bu masalada faollik qilmoqda.

Shaxssiz gap (безличные предложения). Egasi topilmaydigan gaplarda kesimi orqali harakatni bajaruvchi shaxsni – egani topib bo'lmaydi, ega umuman qatnashmaydi. Egasi topilmaydigan bunday gap shaxssiz gap deb yuritiladi. Bu tip gaplarda o'zbek tilida ham rus tilida ham harakat bajaruvchi umuman qatnashmaydi, uni kiritish mumkin emas. Masalan, «Вечереет». «Скучно, мама». «Об этом надо знать всем».

O'zbek tilida shaxssiz gaplarning bosh bo'lagi uchinchi shaxs formasidagi fe'l bilan ifodalanib, ko'pincha sostavli bo'ladi.

Shaxssiz gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi:

a) fe'lning ravishdosh shakli + bo'ladi, bo'lmaydi so'zlari:	<i>Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi.</i>
b) shart maylidagi fe'l + bo'ladi, bo'lmaydi so'zlari:	<i>Bu masalani janjalsiz hal qilsa bo'ladi.</i>
v) fe'lning harakat nomi shakli bilan kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin so'zlari:	<i>Do'stning aybini yuziga aytish kerak.</i>
g) majhul nisbat qo'shimchasini olgan fe'l bilan:	<i>Samarqandga shu yo'l bilan boriladi.</i>
d) to'g'ri so'zi holida, kelmoq fe'lining tushangan shakli bilan:	<i>Balki undan qochibroq yurishga to'g'ri keladi. Ammo odamni ish tanitadi. (O.)</i>

Rus tilining shaxssiz gaplarida kesimning ifodalanishi quyidagicha:

Shaxssiz fe'l; shaxssiz fe'l+infinitiv	<i>Светает. Мне не спится. Мне не хочется есть</i>
Shaxsi ma'lum fe'l shaxssiz ma'noda	<i>Терпко пахнет полынью. На улице таяло</i>
Holatni bildiruvchi so'zlar; было, стало so'zlari + holatni bildiruvchi so'zlari	<i>Темно и страшно. Мне стало грустно</i>
нет, не было so'zlari; sifatdoshning qisqa shakli	<i>В классе нет никого. В кабинете накурено</i>
Infinitiv; надо, можно, нельзя... kabi so'zlar + infinitive	<i>Нам не забыть таких сражений... (М. Лермонтов) Нам надо спешить</i>

Bir bosh bo‘lakli sodda gaplarda kesimning ahamiyati. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham, xuddi rus tilidagidek, kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar ajratilishi ko‘zga chalinadi. Ular rus tilida nominativ (atov) gaplar deb ataladi, unda kesim ishtirok etmaydi. Biroq O.Azizov (va b.) o‘zbek tilida kesimsiz gap kamdan kam uchraydi va bir sostavli va ikki sostavli gaplarga baravar xos, deydi. Shuningdek, shaxs ko‘rsatkichli va shaxs ko‘rsatkichsiz kesim shakllarini ajratib, kesimi o‘tgan zamon fe‘lidan bo‘lgan bunday gapda ega qatnashishi shartligini, zero predikativ shaxs bunday gapda ega orqali ifodalanishini, chunki shaxs ko‘rsatkichsiz ishlatiladigan kesimlar tarkibida shaxs ko‘rsatkichi bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Og‘zaki nutqda bu xil gaplar ba’zan egasiz ham ishlatilishini inkor etmaydi: *Пощёл! (Jo‘na!). Ушёл (Ketdi). Пошли (Ketdik)* kabi. Ega qatnashmagan bunday gaplarda predikativ shaxs nutq vaziyatida konkretlashadi.

Umuman olganda, mantiqan, kesimsiz gaplar shaklan oddiy so‘z va so‘z birikmalariga o‘xshaydi, ammo maxsus gap intonatsiyasining bo‘lishi bilan va ma’lum bir fikr tugalligining ifodalanishi bilan ulardan farqlanib turadi. Oddiy so‘z intonatsiya orqali gapga aylanadi. Gapda esa hukm bor. Hukm predikativlik belgisi ekan, uni kesimsiz gap deyish munozarali. Kesimsiz gaplar tilshunoslikda nominativ gaplar deb yuritiladi. N.Mahmudov “nominativ gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, faqat hozirgi zamoni bildiradi: Bahor.”¹⁶, deydi. Zamon kategoriyasi esa, ma’lumki, kesimga xos. Shuning uchun ham, bosh kelishikdagi ot otlashgan so‘z bilan ifodalanib, predmet yoki voqea-hodisalarning mavjudligini tasdiqlovchi gaplar, deb aytish kerak. Masalan: *May...Ajoyib so‘lim bir bahor!* (S.Nazarov.)

Hozirgi o‘zbek tilida ham rus tilida ham nominativ gaplarning yig‘iq-нераспространенные (*Тун. Намма shirin uyquda. – Окопы... Грязь...*) va yo‘yiq – распространенные (*Yangi shahar ko‘chalari. Ilk bahor shamollari yoqimli esadi. – Полдень. За окнами душное лето*) shakllari ajratiladi. Gap shundaki, nominativ gapda, undan keyin uning mazmunini to‘ldirib keluvchi gap kelishi talab qilinadi.

Rus tilida nominativ gaplar. Rus tilida nominativ gaplar o‘zbek tiliga nisbatan kengroq o‘rganilgan. Bunday birliklar nutqiy hodisa sifatida mavjudligi shubhasiz. Biroq sintaktik voqelanish masalasi rus tilida ham ochiq qolganligi aytiladi.

¹⁶ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). - Тошкент, Ўқитувчи, 1995 й.

Buni I.P.Raspopov yetarlicha o'rganilmagan, deb baho beradi.¹⁷ Masalan, *Зима* nominativ gapini konstruktiv planda fe'l qurilmali oddiy gap sxemasiga kiritish mumkin. Demak, nol shaklga ega kesimli gaplar turi sifatida talqin etiladi, deydi. Qiyoslang: *зима – была зима; стояла зима; наступила зима* va b. Lekin, anglashiladiki, bu xilda zamonlarning aks etishi har doim ham bo'lavermaydi. Masalan, *Земская больница. За отсутствием доктора, уехавшего жениться, больных принимает фельдшер Курятин...* (Чехов. Хирургия). *Земская больница* nominativ gapini fe'l qurilmali sxemaga, ya'ni zamonga tushmaydi.

Именительный падеж nominativ gapning shakliy belgisi hisoblanadi, biroq nominativ gaplarni shakllantirishda hal qiluvchi omil emas. Chunki har qanday ism ham nominativ gaplarni shakllantirishga qodir emas. Masalan, *студенчество, меньшинство, отклонение, типаж, промежуток* kabi otlar gap vazifasini bajara olmaydi.

Nominativ gaplarni shakllantirishda ismning semantik tabiati asosiy rolga o'ynaydi. Ular ko'rish va his etish idrokiga bo'ysundirilgan voqelikni va predmetni ataydigan so'zlar bo'lishi kerak. Bunday so'zlarga vaqtni tasavvur qilish mumkin bo'lgan voqelik, harakat va holat nomlarini kiritish mumkin: *дождь, холод, снег, жара, тишина, погоня* va hokazo. Qiyos qiling: *был дождь; будет холод* va b. Bunday nomlar orasidan vaqtga to'g'ridan-to'g'ri ishora qiluvchi so'zlar ajralib chiqadi: *лето, зима, утро, ночь*. Buning ustiga, bu ismlar aniq bo'lmagan vaqt (masalan, oy, yil)ni ataganda, nominativ gaplarni shakllantirishda konkretlashadi. *Двадцатый год; Новый год; Март месяц*.

Nominativ gaplarni shakllantirishga qodir ikkinchi so'zlar guruhini makonda joylashgan yoki makonni o'z ichiga olgan predmetlar nomi hosil qiladi. *Стол, книги, мельница; площадь, вокзал, цирк, клуб* va b. Voqelikning real predmetini nomlaydigan borliqni tasdiqlash, o'z navbatida, ot so'z turkumining aniq predmet ma'nosiga asoslanadi. Masalan: *Жыли мы там одни. Три коровы, две лошади, инвентарь. Молотилка, сеялка, два сарая, небольшой прудик. Сад, огород, как полагается. Большой погреб. Пасека – двадцать ульев*.

Shunday qilib, nominativ gaplarni aniqlash uchun sintaktik hodisani tavsiflashda faqat grammatik ko'rsatkichlarni inobatga olish yetarli emasligi, ayniqsa, seziladi. Nominativ gaplar borliq ma'nosini yetkazishga qodir so'zlar bilan leksik jihatdan chegaralangan.

¹⁷ Расповов И.П. Структура простого предложения в современном русском языке. – М.: УРСС. 2013. С. 70-71 – 192 с.

Bosh bo‘lakning grammatik tabiatiga asoslangan **ИМЕНИТЕЛЬНЫЙ падеж** shaklidan tashqari, nominativ gaplar boshqa zaruriy grammatik belgilarga ega:

1) Bu gaplar doim tasdiq gaplar bo‘ladi (inkorlik nominativ gapning mohiyatiga – borliq ma’nosiga ziddir);

2) Nominativ gaplar modal modifikatsiyasiga ega emas (masalan, kelasi va o‘tgan zamon ma’nosi ularning ikki bosh bo‘lakli gaplar turiga aylantirib qo‘yadi: *Была зима; Будет зима*); buning ustiga, ayniqsa, aniq-predmet ma’nosidagi ot so‘z turkumi mavjud aksariyat gaplar, shuningdek, o‘zlik ko‘rsatish ma’nosi bilan murakkablashgan gaplar (*Вот мельница*), vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan emas va biror bir o‘zgarishga qodir emas.

3) Predikativlik ma’nosini tasdiqlovchi ohang bilan istifoda etiladi.

Nominativ gaplar qat’iy shakliy-grammatik belgisi (**ИМЕНИТЕЛЬНЫЙ падеж**)ga qaramay, haddan tashqari differentsial va xilma xildir. Aynan mana shu xususiyatlar nominativ gaplarni va uning bosh bo‘lagi vazifalarini turlicha tushunish va talqin etish sababi hisoblanadi.

Ayrim tilshunoslar (A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy) nominativ gaplarning bosh bo‘lagi kesim deb, ba’zilar (D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, V.A.Bogoroditskiy) ega deb, hisoblaydilar. Boshqa bir olimlar (A.A.Shaxmatov, Ye.M.Galkina-Fedoruk) egali va kesimli nominativ gaplarni ajratadilar. Ikki bosh bo‘lakli gaplarga analog qilib nominativ gapning bosh bo‘lagi vazifasini belgilashdan umuman qochishga urinishlar ham yo‘q emas. (*Академическая грамматика русского языка*¹⁸). Bu nominativ gaplar guruhi chegarasini aniqlashda yanada ko‘proq qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Qanday nominativ gaplarni gap deb hisoblash, qaysilarini gap deb hisoblamaslik haqida, shuningdek, shaklan o‘xshash qurilmalarning bir bosh bo‘lakliligi va ikki bosh bo‘lakliligiga oid masalalar turlicha hal qilinadi va bu ziddiyatning xolis sababi – zamonaviy rus tilida nominativ gaplarning semantik va funksional ko‘lamidir.

О‘ZBEK VA RUS TILLARIDA UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR

О.Азизов (билан ҳаммуаллифлари)нинг “gapning uyushiq bo‘laklari”ga oid qarashlari. O‘zbek tilshunosligida gapning uyushiq bo‘laklari xususida qiyosiy tahlil birinchi bo‘lib O.Азизов (va b.) tomonidan amalga oshirilgan. Aytish kerakki, olimlarning bu urinishi, bugungi kunda yagona ish hisoblanadi.

¹⁸ Академическая грамматика русского языка. – М.: Наука. 1980. <https://sashapanfilova.ru/akademicheskaya-grammatika-russkogo-yazyka-1980-russkaya-grammatika/>

Ma'lumki o'zbek va rus tillarining ikkisida ham gapning uyushiq bo'laklari bir so'roqqa javob bo'lib, gapning ikkinchi bir bo'lagiga hammasi bir xil munosabatda bo'ladi. O.Azizov(lar) ham o'zbek va rus tillaridagi bunday gaplarda katta farq ko'rmaydi. Masalan, *Zavod qurilib bo'ldi va ishga tushirildi. Петров купил радиолу и часы.* O'zbekcha misolda *qurilib bo'ldi* bilan *ishga tushirildi* o'zaro teng holatda bo'lib, ikkisi baravar holda *zavod* so'ziga (egaga) kesim bo'lib kelganligini, ruscha misolda esa *радиолу* bilan *часы* so'zlari bir so'roqqa javob bo'lib, baravar holda *купил* so'ziga (kesimga) to'ldiruvchi bo'lib kelganligini aytadi.

Olim uyushiq bo'laklarning qiyoslanayotgan har ikki tildagi umumiy xususiyatlarini sanab o'tadi:

1. Uyushiq bo'laklarning har biri sanash intonatsiyasi bilan aytilib, bir turdagi predmet, harakat yoki holatlarni biriktiradi: *ruchka, qalam va daftarlar...; вода, воздух и солнце...* kabi. Bunday sanaluvchi komponentlar amalda bir biriga cheksiz bog'lanaverishi mumkin.

1. Bir bo'lak ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yiladi: *keldi, lekin ko'rmadi. Karim emas, Zokir... . Не учится, а работает. Светит, но не греет.*

2. Ikki faktning biri ajratiladi: *Yozda yoki qishda... . Yoki baland, yoki past... Ты или я... . Либо музыка, либо техника.*

3. Galma-gallik ko'rsatiladi: *goh yomg'ir, goh qor... . То холодно, то жарко.*

Anglashidadiki, rus tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek, biriktiruvchi bog'lovchilarning hammasi uyushiq bo'laklarni shakllantirishda xizmat qiladi.

O.Azizov(lar)ning bu mavzuga oid eng yaxshi xulosasi, bu grammatik shakllarda qiyoslanayotgan ikki tilning farqi xususida. O'zbek tilida sanaluvchi uyushiq bo'laklarning bir xil affikslari yoki yordamchi so'zlari eng so'ngi komponentga qo'shiladi: *kitob, qalam va daftarlar... . Toshkent, Farg'ona va Termizga... . O'qir, yozar edik* kabi. Rus tilida sanaluvchi uyushiq bo'laklarning rod, son, kelishik turlovchilari (tugallanmasi) har birida bo'ladi: *отца и сына...; брату и сестре...* . Yordamchi so'z (predlog, yordamchi fe'l) esa eng oldingi komponent oldida ishlatiladi: *От брата и сестры... . Будет получено и отправлено. Хочу работать и учиться.*

Shuningdek olim, o'zbek tilida birin-ketin qilingan harakatni bildiruvchi fe'llar sanalganda, ularning eng keyinisi tuslovchi qabul qiladi, oldingilari esa ravishdosh shaklida ishlatilatilishini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi: *borib, olib keldim. Uylarni tozalab, ovqatni pishirib, boshqa*

uy ishlarini qilib, uydan tinchib, keyingina chiqib ketdi. Albatta, bu xil konstruksiyadagi soʻzlarni bir xil tushlangan formada ham ishlatish mumkin: *Bordi, olib keldi. Uylarni tozaladi, ovqatni pishirdi, boshqa uy ishlarini qildi, uydan tinchidi, keyingina chiqib ketdi* kabi. Biroq sanalib, bir-biriga tirkalgan soʻzlarda bir xil affiks yoki yordamchi soʻzni takrorlay berish har ikki til uchun ham xos emas.

Oʻzbek va rus tillarida uyushiq boʻlaklarning ayrim jihatlari.

Oʻzbek tilida qarama-qarshi komponentlarni biriktiruvchi bogʻlovchilar, rus tilida boʻlganidek, komponentlar orasida kelavermaydi: *esa, boʻlsa* bogʻlovchilari qarama-qarshi qoʻyilgan ikkinchi komponentdan keyin ishlatiladi: *bu hodisa bu yerda bunday, boshqa yerda esa boshqachadir* kabi.

Birdan ortiq bir xil boʻlaklar doim uyushiq boʻlak hisoblanavermaydi.

Misollarni qiyoslang:

1. Men sportni, muzikani sevaman. / я люблю спорт, музыку.	2. Men sizga kitobni sovgʻa qilmoqchiman. / я хочу вам подарить книгу.
--	--

Bunda rus tilida дательный падеждagi *вам*, va родительный падеждagi *книгу*; oʻzbek tilidagi joʻnalish kelishigidagi *sizga* va tushum kelishigidagi *kitobni* soʻzlari toʻldiruvchilardir. Ular ikki xil shaklda – joʻnalish kelishigi va tushum kelishigi affikslarini olgan holda qoʻllangan va ikki xil soʻroqqa (kimga? nimani?) javob boʻlgan. Shuning uchun ular uyushgan boʻlak sanalmaydi.

Uyushiq boʻlakli gaplardagi uyushgan boʻlaklarni yaxlitlab, umumlashtirib koʻrsatish uchun baʼzan umumlashtiruvchi birliklar birga qoʻllanadi. Rus tilida bu обобщающие слова deyiladi. Har ikki tilda ham ular uyushiq boʻlaklarning oldidan yoki keyin kelishi mumkin. U rus tilida quyidagicha:

➤ Umumlashtiruvchi soʻzdan keyin uyushiq boʻlaklardan oldin sanab berilishiga ishora qiluvchi *как-то, а именно, например* soʻzlari qoʻllaniladi.

➤ Uyushiq boʻlaklardan keyin umumlashtiruvchi soʻzdan oldin natija maʼnosini beruvchi *словом, одним словом* kabi soʻzlari qoʻllanilishi mumkin.

Bunday birliklar oʻzbek tilida birgina soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida keladi. Masalan: *bu ishni oz fursatda bitirish uchun quruvchilar, olimlar, oʻqituvchilar – hamma bosh qoʻshdi. Insonning hamma narsasi: yuzi ham, qalbi ham chehrasi ham, kiyimlari ham goʻzal boʻlmogʻi kerak.*

Keltirilgan misollardan koʻrinadiki, birinchi gapda umumlashtiruvchi birlik vazifasida birgina soʻz (*hamma*), keyingi gapda *esa*,

umumlashtiruvchi birlik vazifasida soʻz birikmasi (*insonning hamma narsasi*) bilan ifodalangan. Umumlashtiruvchi birlik vazifasida koʻpincha jamlovchi olmoshlar (*hamma, bari, barcha*), otlar yoki boshqa soʻz turkumlari kela oladi: *Koʻrib chiqdi uni barcha: Odil, Toshmat, Halima.* (P.Moʻmin). *Ibrohim otaning oʻgʻillari: Sobir, Aʼzam, va Dilshodlar ham ana shu yerda edi. Qushlarning rangi ajoyib: oq, pushti, qora, qizil. Oʻtliqlardan uchtasini: Ergashni, Obidni va Ahmadni tanidim. Tabiat hodisalari: shamol, qor, yomgʻir, doʻl oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Koʻrganlarim, eshitganlarim – hammasi esimda.*

Uyushiq boʻlaklar orasida tinish belgilarining qoʻyish qoidalari ham rus tili grammatikasidan katta farq qilmaydi.

Rus tilida zidlov bogʻlovchilardan *но*, uning maʼnosida *да* qoʻllanganda uyushiq boʻlaklar orasiga vergul qoʻyiladi. Oʻzbek tilida vergul qoʻshma gaplar zidlov bogʻlovchilari bilan bogʻlanganda qoʻyiladi. Odatda ular vazifasida *-u, -yu, -da* yuklamalari sodda gap tarkibidagi uyushiq boʻlaklar orasida qatnashsa, vergul qoʻyilmaydi: *Keldi-yu ketdi. Samira qoʻgʻirchogʻini oldi-da otib yubordi.*

Rus tilida sostavli ayiruv bogʻlovchilari (*как... так и; не только... но и; не то... не то и др.; или... или; либо... либо*) orasida vergul qoʻyiladi. Oʻzbek tilida ham ayiruv bogʻlovchili uyushgan boʻlaklar orasida vergul quyilishi kerak. Shuningdek, rus tilida biriktiruv bogʻlovchisi *и* boʻlganda ham vergul qoʻyiladi. Oʻzbek tilida bunday emas.

Bogʻlovchilar yoʻq boʻlganda uyushiq boʻlaklar orasiga ham ikki tilda ham vergul qoʻyiladi: *В большом лесу во время бури деревья стонут, трещат, ломаются.* (С. Аскаков).

Gapning uyushiq boʻlaklari guruh-guruh boʻlsa, bu guruhlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: *yutib chiqish uchun ot chopqir, zotdor boʻlishi, yaxshi toblanib, sovitilishi; chavandoz usta, epchil boʻlishi kerak.* Biriktiruv bogʻlovchilar juft qoʻllanganda, guruhlar orasida vergul qoʻyiladi: *На прилавке лежали кучками яблоки и груши, вишни и сливы, смородина и черника.*

OʻZBEK VA RUS TILLARIDA AJRATILGAN BOʻLAKLI GAPLAR

Ajratilgan boʻlaklarga oid qiyosiy tahlil, dastlab, Sh.Rahmatullaev kitobida yoritilgan. U ajratilgan boʻlakni sodda gapga murakkab tus beradigan hodisalardan biri deb hisoblaydi. Olim ajratilgan boʻlak gapdagi biror boʻlak bilan sintaktik aloqada boʻladi, shu boʻlakka ajratilgan holda

bog‘lanib, uni ta’kidlashga, mazmunan kuchaytirishga xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suradi va biror bo‘lak ajratilishi uchun ko‘pincha uning odatdagi o‘rni o‘zgartiriladi (odatda keyinga ko‘chiriladi), gapda o‘ziga xos intonatsiya bilan aytiladi (boshqa bo‘lakdan pauza bilan ajratiladi), deydi. Quyida uning ilmiy xulosalarini keltiramiz.

Ajratilgan bo‘lak rus tilida anchagina uchraydi va mazmunan ikkiga guruhlanadi: 1) yarim predikativ ajratilgan bo‘lak, 2) izoh ajratilgan bo‘lak.

Yarim ajratilgan bo‘lak o‘z navbatida ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan hol deb ikkiga guruhlanadi. Ajratilgan sifatlovchilarning o‘zi bosh a’zosiga qarab uch turga bo‘linadi: sifatdosh oborot, sifat oborot, ot oborot.

Ajratilish odatda bir necha a’zoli birlikka xos, bunday birlikning bosh a’zosi (sifatdosh, sifat, ot) o‘ziga ta’luqli so‘zshakl(lar) bilan birgalikda, bir sintaktik vazifada keladi, shu sababli bunday birlik oborot deb yuritiladi.

Rus tilida *sifatdosh oborot* (причастный оборот) o‘zi taalluqli so‘zshakldan oldin joylashsa, odatda ajratilmaydi, keyin joylashsa, ajratiladi: *Прочитанный им доклад стал предметом дурных дискуссий. – Доклад, прочитанный им, стал предметом дурных дискуссий.* O‘zbek tilida sifatdosh oborot juda ko‘p uchraydi, lekin ular deyarli ajratilmaydi: *Yerning namini qochirmay ekilgan chigit tez unib chiqadi.*

Sifat oborot (адъективный оборот) ham rus tilida asosan sifatlanmishdan keyin keladi va ajratiladi: *Я прожил жизнь, полную неожиданностей и предательств* (Паустовский). O‘zbek tilida sifat oborot juda oz uchraydi. Va odatda ajratilmaydi: *Sherdan kuchli hayvon yo‘q.*

Ot oborot (субстантивный оборот) deb rus tilida ikki hodisa ko‘rsatiladi: a) ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi, b) ajratilgan izohlovchi. Ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi yakka so‘zshakl bilan ham, birikma bilan ham ifodalanishi mumkin: *Эту кашу, без мяса и моркови, как можно называть пловом.* O‘zbek tilida sifatlovchining bunday turi yo‘q.

Ajratilgan izohlovchi ham rus tilida yuqoridagicha ifodalanadi: *Мы студенты 3 го курса, прослушали лекции по курсу “Сопоставление русского и узбекского языков”.* O‘zbek tilida bunday ajratilgan izohlovchi ko‘pincha rus tilidan tarjima sababli uchray boshlaydi: *Biz, 3-kurs talbalari, “Rus va o‘zbek tillarini qiyoslash” kursi bo‘yicha lektsiyalar tingladik.*

Ajratilgan holning o‘zi ikki xil: a) ajratilgan ravishdosh oborot, b) ajratilgan ot oborot. Rus tilida ravishdosh o‘ziga taalluqli so‘zshakl(lar) bilan birgalikda ravishdosh oborot hosil etadi va odatda ajratilgan bo‘lak bo‘lib keladi: *Напившись чаю и отдохнув, она вышла погулять* (Чехов).

Восток незаметно ясел, отражая свой слабый свет на подернутом тонкими тучами своде неба (Л.Толстой).

O‘zbek tilida ravishdoshning o‘ziga taalluqli so‘zshakl(lar) bilan birgalikda oborot hosil etishi juda ko‘p uchraydi, lekin, rus tilidan farqli holda, ravishdosh oborot o‘zbek tilida asosan ajratilmaydi: *Ertalabdan beri ketmon chopib charchadik.* O‘zbek tilida ravishdosh, hol bo‘lak vazifasida kelishidan tashqari, kesim vazifasida ham keladi: *Qalin qor yog‘ib, hamma yoqni oq ko‘rpa qopladi. Haftada 4 kun ishlab, uch kun dam olaman.* Ravishdosh kesim vazifasida kelsa, ajratilgan bo‘lak, ravishdosh oborot yuzaga kelmaydi.

Ajratilgan holning ot oborot turi *несмотря на, вследствие, благодаря, вопреки, в случае, воизбежание* kabi predlog yoki predlogli qurilma yordamida shakllanadi: *За исключением поездок по делам зимой, большую часть времени он проводил дома (Л.Толстой).* Bunday qurilmali hol ajratilmasligi ham mumkin: *Заметки в случае надобности подлежат сокращениям и стилистическим изменениям (Чехов).* O‘zbek tilida bunday ajratilgan hol deyarli uchramaydi.

Izoh ajratilgan bo‘lak (уточняющие обособленные члены) deb talqin qilinaётган hodisa asli ajratilgan bo‘laklik talablariga qisman javob beradi, shu sababli bularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri izoh bo‘lak deb yuritaverish ma‘qul ko‘rinadi.

Rus tilida izoh bo‘lak o‘zi taalluqli bo‘lakka ko‘pincha *то есть, иначе* kabi bog‘lovchi, *особенно, даже, в частности, в том числе, например* kabi so‘zlar yordamoda bog‘lanadi: *В этом отношении случилось даже одно очень важное для них событие, именно встреча Кити с Вронским (Л.Толстой).* *Все вокруг, даже пепельница из розовой раковины, говорило о мирной и долгой жизни (Паустовский).* Rus tilida izoh bo‘laklar qatoriga *кроме, помимо, наряду с, в отличие от, в противоположность* kabi predlog yoki predlogli qurilma bilan shakllanadigan bo‘laklar ham qiritiladi: *В денежном ящике, кроме денег, храниться и деловая корреспонденция (Салтыков-Щедрин).* O‘zbek tilida izoh bo‘lakni ko‘pincha *ya‘ni, shu jumladan, ayniqsa, xatto, masalan* kabi yordamchilar shakllantiradi: *Kechqurun, ya‘ni soat sakkizdan keyin kelsang, meni shu yerdan topasan.*

Xullas, ajratilgan bo‘lak – ruscha nutqda ko‘p uchraydigan, o‘zbekcha nutqda esa juda oz uchraydigan hodisa. Izoh bo‘lak o‘z tabiatiga ko‘ra ajratilgan bo‘lakdan farqlanib turadi. Izoh bo‘lak, garchand ruscha nutqdagi darajada bo‘lmasa ham farqlanib turadi. Izoh bo‘lak, garchand rus nutqdagi darajada bo‘lmasa ham, o‘zbekcha nutqqa ham xos.

III BOB. OZBEK VA RUS TILLARIDA QO‘SHMA GAP

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA QO‘SHMA GAP

O‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarning o‘rganilishi. Hozirgi zamon jahon tilshunosligi qo‘shma gaplarni o‘rganish yuzasidan katta yutuqlarga erishdi. Turkiyshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham qo‘shma gap va uning tabiati masalasi maxsus o‘rganildi. Ammo uzoq vaqt davomida qo‘shma gaplar, asosan, bir jihatdan tadqiq etildi. Qo‘shma gap haqidagi sintaktik nazariyalar, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo‘shma gap nazariyalari qolipi asosida yaratildi. Buning natijasida qo‘shma gaplar, asosan, shakliy tuzilishi asosida o‘rganildi, qo‘shma gaplarning semantik tuzilishi masalasi ilmiy tahlildan chetda qoldi. Tabiiyki, bunday yo‘l til hodisalarini to‘g‘ri tushunishga imkon bermaydi. Faqat so‘nggi 15-20 yillardan boshlab qo‘shma gaplarni o‘zbek tilining ichki xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etishga jiddiy kirishildi.

An’anaviy sintaktik nazariyalarda qo‘shma gaplar mazmuni, grammatik tuzilishi hamda ohangiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan, ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning bog‘lovchi yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikuvidan tuzilgan sintaktik qurilmalar tarzida talqin etilsa, shakl-vazifaviy tadqiq usulida qo‘shma gaplar ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar sifatida talqin etiladi.

O‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarga oid ilk asar 1941-yilda Husan G‘oziyev tomonidan yaratildi. Olimning «Hozirgi zamon o‘zbek tilida ergash gaplarning sostavi» nomli asarida qo‘shma gaplarning tuzilishi haqida ma’lumot berildi. 1955-yilda Faxri Kamolning qo‘shma gaplarning maqomi, tasnifi masalasiga oid asari e’lon qilindi.

60-yillarga kelib, qo‘shma gaplarning sintaktik tuzilishi, turlari masalasi G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova asarlarida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Qiyoslanayotgan ikki tilning qo‘shma gaplar tipologiyasi, dastlab, 1965-yilda ana shu yondashuv asosida tahlil qilingan. O‘zbek tilida ham, rus tilida ham qo‘shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplardan tashkil topadi, deydi O.Azizov (va b.) o‘zining “O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi”da. Undagi sodda gaplar o‘zaro bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar, intonatsiya yordamida bog‘lanishi adabiyotda ko‘rsatiladi va tahlillar an’anaviy, ya’ni shakliy yondashuvga (formal tilshunoslikka) asoslanadi, ikki tilning qo‘shma gaplari o‘xshash ekanlini ko‘rsatishga harakat qilganligini sezish mumkin.

O‘zbek tilida qo‘shma gaplarni semantik-sintaktik hamda shakl-vazifaviy yo‘nalishda o‘rganishga qiziqish kuchayib, sintaktik birliklarni umumiylik-xususiylilik dialektikasi asosida til va nutq bo‘linishida o‘rganish yo‘lga qo‘yildi. Tilshunos olimlar Nizomiddin Mahmudov, Abduvali Berdialiyev, S.Solixo‘jayeva, Ra‘no Sayfullayeva¹⁹ va Muhabbat Qurbonovalarning qo‘shma gap tadqiqiga oid asarlari mana shu yo‘nalishdagi yirik ilmiy ishlardan hisoblanadi. Ularga ko‘ra qo‘shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning yoki ikki va undan ortiq kesimlarning birikishidan tarkib topgan bo‘lsa-da, uning tarkibiy qismlari yaxlit bir umumiy fikrni aks ettirishga xizmat qiladi. Qo‘shma gapni tashkil etuvchi bu qismlar turli bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida yoxud ohang bilan o‘zaro birikadi.

Sh.Rahmatullayev 1995-yilda o‘zining “O‘zbek va rus tillarini qiyoslash” kitobida qo‘shma gap rus tilida ham, o‘zbek tilida ham tuzilishi va mazmuniga ko‘ra o‘ta murakkab ekanligini qayd etadi. Tuzilish jihatidan alohida ta’kidlashga loyiq hodisa shuki, deydi olim, - o‘zbek tilida, rus tilidan farqli holda, ergashgan qo‘shma gaplarning ma’lum turida ergashish gapning kesimi shaxsli (tuslangan) fe’l bilan emas, balki ravishdosh bilan ifodalanadi: *Eshik ochilib, Cho‘lponning onasi ko‘rindi* (P.Qodirov). Rus tilida esa qo‘shma gap tarkibidagi har bir predikativ qismning kesimi shaxsli (tuslangan) fe’l bilan ifodalanadi: *Благодаря тому что мы строго соблюдаем график движения поездов, количество перевозок значительно увеличивается* (Газетадан). Shuning uchun uchun, rus tili tilida ikkita komponentni bimalol hech qanday o‘zgarishsi bir biridan ajratib, sodda gapga aylantirish mumkin.

Rus tilshunosligida qo‘shma gaplarning o‘rganilishi. Rus tili grammatikasining o‘zda ayrim nazariy masalalarning hal etilmaganligi sababidan boshqa tillarda ifoda etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar yanada murakkablashadi, deyiladi “Основные проблемы изучения сложных предложений русского языка в школе и вузе”²⁰ deb nomlangan maqoladi. Unda ta’kidlanishicha bir necha o‘n yillar davomida uzoq muhokamaga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, chuqurroq tadqiq etilmaganligi, natijada munozaralarga sabab bo‘layotganligi aytiladi. Rus tilining bunday muammolariga qo‘shma gaplarning tasnifi va ayniqsa ССП

¹⁹ Сайфуллаева Р.Р. Хозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) талқини. – Тошкент: Фан, 2007, - 257 б.

²⁰ Мусаева Л.С., Тазукаева С.С. Основные проблемы изучения сложных предложений русского языка в школе и вузе. // Современное педагогическое образование. №4 2019, С.43-47. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-problemy-izucheniya-slozhnyh-predlozheniy-russkogo-yazyka-v-shkole-i-vuze/viewer>

(сложносочиненные предложения) va СПП (сложноподчиненные предложения)lar qatorida БСП (бессоюзные сложные предложения) ning ajratilish tengligi masalasi kiradi.

Mualliflar an'anaviy rus grammatikasidagi murakkab jumlaning tipologiyasi uzoq vaqtdan beri ikki xil xususiyatga asoslangan aralash, bir xil bo'lmagan uslub, g'oya va qarashlarga duchor bo'lib kelgan, degan masalani ilgari surishadi. Ularning fikricha maktab grammatikasi tark etmagan qo'shma gaparni bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz gaplarga bo'lishni yaqin kelajakda ham tark etmasligi mumkin. Oliy ta'lim grammatikasi bu yo'nalishda ildam qadamlar tashlamoqda, ya'ni struktur-semantik belgisini inobatga olish boshlanmoqda.

Ammo boshqa adabiyotlarda zamonaviy russhunoslikda qo'shma galarni ko'p bosqichli izchil tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan uchta asosiy xususiyat mavjud:

1) predikativ qismlarni birlashtiruvchi aloqa vositalarining mavjudligi/mavjud emasligi. Shu asosda bog'lovchili va bog'lovchisiz guruhlari ajratiladi;

2) bog'lovchili konstruksiyalar bilan bog'liq predikativ qismlarning bog'langan/ergashgan holatdagi qarama-qarshiligi: bog'lovchili gaplarning o'zi bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga bo'linadi;

3) bitta predikativ komponentni boshqa komponentning bir bo'lagiga yoki umuman hamma bo'lagiga aloqador bo'lishiga nisbatan (расчлененное/нерасчлененное) tasnif. Oxirgi tasnif faqat murakkab gaplarga tegishli.

Shundan xulosa qilish mumkinki, endilikda ikki tilning tilshunoslikda bir biridan andoza olishdan ko'ra, ichki imkoniyatlari asosida o'rganishni davr taqozo qilmoqda. Ularning turli tillar oilasidan kelib chiqish sababidan har birida o'ziga xos xususiyatlar – grammatik belgilar, semantik vaziyatlar mavjud. Ular faqat qiyosiy tahlil, tasnif va tavsifga muhtoj, yanada chuqurroq izlanishlarni kutmoqda.

Qo'shma gaplarning tasnifida o'zbek va rus tillarida xilma xilliklar.

O.Azizov(lar) qo'shma gap sostavidagi sodda gaplarning bog'lanib kelishidagi vositalarga hamda ularning o'zaro fikriy va grammatik munosabatiga ko'ra o'zbek va rus tillarida qo'shma gaplar dastlab uch gruppaga bo'linishini ta'kidlaydilar.


- ✓ Bog'langan qo'shma gap (Сложносочинённое предложение);
- ✓ Ergashgan qo'shma gap (Сложноподчинённое предложение);
- ✓ Bog'lovchisiz qo'shma gap (Бессоюзное сложное предложение).

Sh. Rahmatullayev esa qo‘shma gap xususida so‘z ketganda ergashgan qo‘shma gaplarga to‘xtaladi hamda rus va o‘zbek tillaridagi qo‘shma gaplarning qisqacha xususiy jihatlari sanab o‘tadi.

Rus tilida qo‘shma gaplar, avvalo, ikki guruhga ajratiladi: bog‘lovchili (союзное) va bog‘lovchisiz (бессоюзное). Ana undan keyin bog‘lovchili qo‘shma gaplar bog‘langan va ergashgan turlarga bo‘linadi. O‘zbek tilida esa bu masalada murakkablikni ko‘rishimiz mumkin. Ananaviy sintaktik talimotda qo‘shma gaplar qismlarining miqdoriga ko‘ra *ikki* va *ko‘p* komponentli qo‘shma gaplarga ajratiladi. Ilmiy manbalarda ko‘p komponentli qo‘shma gaplar murakkab qo‘shma gaplar deb ham yuritiladi. Qo‘shma gaplarning bu ikki turi quyidagicha farqlanadi:

1. Ikki komponentli va ko‘p komponentli qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining miqdoriga ko‘ra farqlanadi.

2. Bog‘lanish usulining sodda yoki murakkabligi bilan farqlanadi. Rus tilida murakkab gaplar, avvalo, bir xil tipli va aralash tipli turlarga bo‘lib



o‘rganiladi. Undan keyin esa bog‘lovchisiz, bog‘langan va ergashgan qo‘shma gap turlari bir xil tipli qo‘shma gaplar tarkibida, bog‘lovchisiz bilan bog‘lovchili; bog‘lovchisiz bilan ergash; bog‘lovchisiz, bog‘langan va ergash; bog‘langan va ergash gapli qo‘shma gaplar aralash turdagi qo‘shma gaplar ichida o‘rganiladi.

O‘zbek va rus tillarida qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalar. O‘zbek tilida qo‘shma gap tadqiqiga oid asarlarda qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi rang-barang til vositalari ko‘rsatiladi. Xususan, G‘.Abdurahmonov o‘zbek tilidagi qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Grammatik vositalar. Grammatik vositalarga bog‘lovchilar, yuklamalar, ko‘makchilar, kelishik qo‘shimchalar kiradi.

2. Leksik-grammatik vositalar. Bu turga sifatdosh, ravishdosh, shart, buyruq mayli fe'llari, harakat nomi shakllari kiradi.

3. Leksik vositalar. Leksik vositalarga ayrim so'zlar, ba'zi kirish bo'lak va kirish birikmalar (ya'ni, umuman, shunga qaramay, demak, shunday qilib kabilar), ayrim kishilik va ko'rsatish olmoshlari (*shu, u, shunday...*) ma'nosi bir-biriga nomuvofiq yoki ma'nodosh so'zlar, mazmunan bir turkumni tashkil etgan so'zlar va sinonimlar kiradi. Shuningdek, qo'shma gaplarning qurilishida gap bo'laklarining takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklarning qo'llanishi ham ahamiyatli.

4. Zamon munosabati. Qo'shma gap qismlari kesimining zamon munosabati gapni tuzishda muhim o'rin tutadi.

5. Ohang va o'rin. Qo'shma gapni tuzishda gap ohangi va qismlarning o'rinlashuvi ham ahamiyatli hisoblanadi.

M.Asqarova ham qo'shma gap qismlarining «intonatsiya, yordamchi so'z yoki shu vazifada qo'llanuvchi mustaqil so'zlar orqali, tartib, so'z shakllari orqali ifodalanishi»ni qayd etadi.

Tilshunos olimlarimiz tomonidan qayd etilgan bu vositalarni quyidagi tartibda umumlashtirish mumkin:

1. Yordamchi so'zlar. (Bog'lovchi va ko'makchili shakllar, bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar). Masalan: *Lekin bu dorilarni icha ko'rmang, chunki o'zingizning ham tirikchiligingiz bor.* (T.M.)

2. So'z shakllari qo'shimchalari. (Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomli shakllar, shart mayli, buyruq-istak mayli shakllari) Masalan: *Yigit uni yana urmoqchi bo'lib xezlanganida, oshxona tomondan yugurib chiqqan xizmatchi oraga tushib, unga nimadir dedi.* (T.M.)

3. Ohang va o'rinlashuv. Masalan: *Sizga aytishgandir, birga harakat qilamiz.* (So'zl.)

Xullas, o'zbek tilida qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar xilma-xil bo'lib, bu vositalar nafaqat qo'shma gapni tuzish uchun, balki uning qismlari orasida turli mazmuniy munosabatlarni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi.

Rus tilida ham qo'shma gap komponentlari orasidagi sintaktik munosabatlarni ifodalash vositalari bor: 1) союзы (bog'lovchilar); 2) относительные (союзные) слова (nisbiy (bog'lovchi) so'zlar); 3) порядок частей (gap bolaklarining tartibi); 4) интонация (ohang).

Bog'lovchilar bog'langan va ergashgan qo'shma gap bo'laklarini bog'laydi. Bog'langan qo'shma gaplarda bog'lovchilar asosiy bog'lovchi vosita hisoblanadi, masalan: *В комнате не было света, и все за окнами сливалось в одно зеленые месиво; То холодно, то очень жарко, то*

солнце спрячется, то светит слишком ярко; Старуха на печку легла, а Дарья, вдова молодая, проведать ребяток пошла.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gaplarning bo'laklarini bog'lash uchun xizmat qiladi, masalan: *Морозка понял, что разговор окончен; Надо ехать, если он советует; Палуба «Эспаньолы» приходилось пониже набережной, так что на нее можно было опуститься сходни.*

Ergashgan qo'shma gaplarning komponentlarini bog'lash vazifasini yana nisbiy (bog'lovchi) so'zlar ham bajarishi ham mumkin. Ular alohida olinganda mustaqil so'z turkumlaridir: *Пастух поглядел на небо, откуда моросил дождь; Дибичь угадывал в непроглядной темноте, кому принадлежат голоса.*

Ergash gap qismini bog'lovchi va bog'lovchi so'z sifatida nisbiy olmoshlar va ravishlar ham bog'lashi mumkin. Ular ham bu vazifada sintaktik aloqani vujudga keltiradi: *Я тот, кого никто не любит. То, что увидел он, было так неожиданно, что он немножко испугался* gapida hamma bog'lovchi unsurlar bor: *то* – bosh komponentdagi nisbiy so'z, *что* – birinchi ergash gapdagi bog'lovchi so'z, *что* – ikki ergash gapdagi bog'lovchi.

Qo'shma gaplarning komponentlar o'rtasidagi munosabatni shakllantiruvchi bog'lovchi vositalardan yana biri gap bo'laklarining tartibidir. Quyidagi gaplarda sabab munosabatning ketma-ketligi turlicha ifodalangan: *Стало душно, я вышел из комнаты – Я вышел из комнаты: стало душно.* Aksariyat qo'shma gaplarning bo'laklari muayyan o'ringa egadirlar, biroq bunda ular orasidagi semantik-sintaktik munosabat o'zgarishi mumkin. Masalan: *Так как в лесу было уже темно, мы решили оставить наши поиски. – Мы решили оставить наши поиски, так как в лесу было уже темно.*

Qo'shma gaplarda ohang bo'laklarni bir butun holga keltiruvchi vositadir. Qo'shma gapning alohida olingan bo'lagi intonatsion tugallikka ega emas. Tugallangan ohang qo'shma gaplarning faqat xotima qismiga xos. Ayniqsa, ohangning roli bog'lovchisiz qo'shma gaplarda muhim. Zero, bunda aynan u komponentlar orasidagi ma'no munosabat ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan: *Настанет утро, поедем в поле – санаш ohanggi; Настанет утро – поедем в поле – payt sharti ma'nosini beruvchi shart ohanggi.*

Xullas, tillarning semantik-struktur o'ziga xosliklari ularning tasnifida ham o'z aksini topadi. Bu jihatlar ikkala tilda ham qiyosiy tahlilga

tortilishga muhtoj. Ularni chuqurroq ilmiy ishlarda ko‘rib chiqish, nozik qirralarini kashf etish ilm-fan oldida turgan dolzarb masaladir.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAP

Bog‘langan qo‘shma gap haqida O.Azizov va uning hammualliflarining qiyosiy xulosalari. Bog‘langan qo‘shma gaplarda teng bog‘lovchilar ishtirok etishi har ikki tilda ham mavjud bo‘lib, bu haqda O.Azizov (va b.) ham qayd etadi. Uning qiyosiy tahlilida bog‘lovchilar uchga bo‘linadi:

A) biriktiruvchilar (соединительные): *va, hamda; u, da;*

Б) zidlovchilar (противительное): *lekin, biroq, ammo, balki, esa; no, однако, a;*

В) ayiruvchilar (разделительные): *yoki, yo, dam..., dam..., goh..., goh...; или, либо, то..., то...*

Olimlar sodda gaplarning qo‘shma gapga birlashuvi va ular orasidagi turli munosabatlar ana shu bog‘lovchilar yordamida anglashilishini, bu munosabatlarning grammatik mohiyati har ikkala tilda ham asosan bir xil ekanligini ta’kidlaydi va bog‘langan qo‘shma gapdagi komponentlarning, ya’ni sodda gaplarning o‘zaro fikriy va grammatik munosabatlari undagi bog‘lovchlarga ko‘ra uchga bo‘ladi:

A) biriktiruv munosabati (соединительное отношение);

Б) zidlov munosabati (противопоставление);

В) ayiruv munosabati (разделительное отношение).

O.Azizov o‘zbek tilida biriktiruv munosabatida *-da, -u, -yu* yuklamalari ham ishlatilishini va bu vositalar bir paytda bo‘ladigan yoki ketma-ket yuz beradigan voqea, harakat va yo holatni bildiradigan sodda gaplarni o‘zaro biriktirishini yozadi. Masalan: *Ko‘ngil yig‘laydiyu, ko‘zlarida nam yo‘q* (Uyg‘un).

Rus tilida birikuv munosabati (соединительное отношение) yakka va takrorlanuvchi *u*, jonli til uslubiga xos *da, da u* bog‘lovchilari hamda bog‘lovchi o‘rnida keluvchi *тоже, также* so‘zlari bilan ifodalanadi; bir vaqtda bo‘ladigan va ketma-ket yuz beradigan vovqealarni (одновременность и последовательность) bildiruvchi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Misollar: *Танюша была меньшая дочь, и старик любил ее больше других дочерей.* (Аксаков) *Звонок прозвенел, и урок начался. Дожди в непогоду его обливали, да вольные птицы на нем отдыхали* (И.С.Никитин). *Брат пошел на стадон, я тоже иду на*

матч. К весне ремонт сельхозмашин был закончен, а также был произведен пробный выезд в поле.

O'zbek tili yozuvida ikki sodda gapni bog'lab kelgan va bog'lovchisidan oldin vergul qo'yilmaydi, rus tilida esa *и* bog'lovchisi oldidan vergul (запятая) qo'yiladi. Masalan: *дул ветер, и шёл дождь*. Agar qo'shma gapning har ikkala komponenti uchun umumiy bo'lak mavjud bo'lsa, *и* bog'lovchisidan oldin vergul ishlatilmaydi. Masalan: *в стени дул ветер и шёл дождь*.

O'zbekcha ruscha bog'langan qo'shma gaplar orasidagi farq *на...*, *на...* va ruscha *ни...*, *ни...* bog'lovchilari qatnashgan gaplarda ko'rinadi. Biriktiruvchi vazifasidagi *на...*, *на...* yordamchilari o'zbek tilida ikki sodda gap oldida keladi; bu holatda har bir gap tasdiq formasida bo'ladi-yu, mazmunan inkor anglashiladi. Masalan: *На биз bordik, на ular kelishdi*. Ba'zan *на...*, *на* inkor formasidagi sodda gaplarda ishlatiladi, bunda inkor ma'nosi ta'kidlanadi, bo'rttiriladi. Masalan: *на биз bormadik, на ular kelishmadi*.

Rus tilida *ни...*, *ни...* biriktiruvchilari doim inkor formasidagi gaplarni (отрицательные предложения) bog'laydi. Misol: *ни стрелы не летали, ни пушки не гремели* (И.А.Крылов). *Ни он не знает, ни я не знаю*.

Ko'rinadiki, olim bog'langan qo'shma gaplarning eng asosiy jihatlariga e'tibor berib, kelgusi ishlar uchun poydevor yaratgan.

O'zbek va rus tillarida bog'langan qo'shma gap tipologiyasi. O'zbek tilida an'anaviy sintaktik nazariyalarda bog'langan qo'shma gaplar mavqei jihatdan teng huquqli bo'lgan sodda gaplarning tenglanish munosabati asosida mazmun va grammatik jihatdan o'zaro birikuvidan tashkil topgan gaplar sifatida talqin etiladi.

Bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etuvchi teng huquqli qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o'zaro bog'langan, ba'zan mantiqan bir-ikkinchisiga tobe gaplardan tashkil topadi. Anglashiladiki, o'zbek tilida bunday turdagi qo'shma gaplarning qismlari mantiqan bir-birini taqozo qilsa-da, grammatik jihatdan tobe bo'lmaydi.

Rus tilining zamonaviy sintaksisida bunday deyilmaydi. Bu turdagi gaplarning qismlari nisbatan mustaqil, har bir komponentning leksik tarkibi sodda gap sifatida mustaqil aks etishi uchun yetarli, masalan: *Море глухо рокотало, и волны бились о берег бешено и гневно* (М. Г.). Qiyos qiling: *Море глухо рокотало. Волны бились о берег бешено и гневно*.²¹ Biroq, ayrim adabiyotlarda ba'zan bog'langan qo'shma gapning birinchi qismining

²¹ Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка: учебник. - М.: Агар, 2000. 416 с. 10000 экз. Электрон нашри: <http://www.hi-edu.ru/e-books/xbook089/01/about.htm>

leksik nuqsoni ko‘rinib qoladi, deyiladi. Bu esa uning hech bo‘lmaganda nisbiy mustaqillikni olishga yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbek tilida bog‘langan qo‘shma gaplardagi birinchi komponent birmuncha mustaqillik xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi komponent birinchi gapga bog‘liq holda tuziladi. Bu qismlar birgalikda yaxlit sintaktik qurilmani, ya’ni qo‘shma gapni hosil qiladi.

O‘zbek tilida bog‘langan qo‘shma gaplar qismlari: 1) teng bog‘lovchilar; 2) teng bog‘lovchi vazifasida qo‘llanadigan yuklamalar; 3) bo‘lsa, esa yordamchilari; 4) tenglik ohangi yordamida bog‘lanadi.

Shunisi xarakterliki, bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar, ular qanday til birligidan tashkil topishidan qat’iy nazar, qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga turli mazmuniy munosabatlarni ham shakllantiradi. G‘.Abdurahmonov bog‘langan qo‘shma gaplarni qismlari orasida shakllangan mazmuniy munosabatlar asosida quyidagi 5 turga ajratadi: a) qiyoslash munosabati; b) payt munosabati; v) ayiruv munosabati; g) sabab va natija munosabati; d) izohlash munosabati.

Zamonaviy rus tilshunosligida ham bog‘langan qo‘shma gaplarning tiplari bor. Ular a) biriktiruv munosabati; b) zidlov munosabati; v) ayiruv munosabati. O‘zbek tilida o‘z davrida M.Asqarova bog‘langan qo‘shma gaplarda sabab, payt, chog‘ishtirish, zidlik, ayiruv va inkor munosabatlarining shakllanishini ko‘rsatgan edi. Shuningdek, rus tilida gradatsiya va qo‘shma munosabati ham ajratiladi. Bog‘langan qo‘shma gaplarning bu turlari struktur jihatdan ochiq va yopiq kabi sintaktik belgisiga asosan kengroq toifalarga qo‘shilishi bilan xarakterlanadi.

Rus tilida struktur jihatdan ochiq gaplar tarkibiga biriktiruv va ayiruv munosabatli gaplar kiradi, yopiq struktur gaplar esa zidlov munosabatli, gradatsion va qo‘shma munosabatli gaplar hisoblanadi.

Ochiq strukturali bog‘langan qo‘shma gaplarning qismlari yopiq bo‘lmagan qatorni o‘zida aks ettiradi. Ular bir xil tipda quriladi, fe‘l-kesimning zamon shakllariga xos ifodalangan bir xil zamonga ega. Bunday gaplar qismlari cheksiz miqdorda bo‘lishi mumkin (amalda faqat leksik jihatdan chegaralanadi). Masalan, *И, лучших лет надежды и любовь, вгрудь моей все оживает вновь, и мысли далеко несутся, и полон ум желаний силой; то в хрупком снеге с ножки милой увязнет мокрый баумачок; то воронит она платок...* (П.)

Gaplarning yopiq strukturali qismi o‘zida yopiq qatorni aks ettiradi. Bu doim ikki o‘zaro struktur va semantik shartlangan, bog‘langan qismlardir. Bu inkor-chog‘ishtiruv va qo‘shma munosabatli gaplardir. Ularda ikkinchi qism qatorni tugallaydi, uchinchisiga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan: *Не только*

Соня без краски не могла выдержать этого взгляда, но и старая графиня и Наташа краснели, заметив этот взгляд (Л.Т.); Он хотел было что то сказать ему, но толстяк уже исчез (Г.).

Bunday tasnif o'zbek tilida kuzatilmaydi. Olima M.Asqarova bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalar asosida uning quyidagi turlarini ajratadi:

- a) biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar;
- b) zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar;
- v) ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar;
- g) inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar.

Hozirgi kunda ham bu qarashlar amalda bo'lganligi bilan ahamiyatlidir.

Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap qismlari ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisani bildiradi hamda *va, hamda, ham, -u (-yu), -da, bo'lsa, esa* yordamchilari orqali bog'lanadi. Bu rus tilidagi ochiq strukturali gaplarga teng keladi. *Mudir jadal qadam tashlagan holda to'xtovsiz gapirar va uning so'zlari hammani qiziqtirar edi. – Заведующий стремительно шагая беспрерывно говорил и его слова всех интересовало.*

Rus tilida strukturaning yopiqligi bog'langan qo'shma gaplar kontrast yoki natijali qismlarning qo'shilmasi hisoblanganda biriktiruvchi bog'lovchilar bilan ham sodir bo'lishi qayd etiladi. Masalan, *Я хотел ему ответить, и не мог слова вымолвить; Я рассказал ему смешную историю, и она сразу успокоилась.* Bu strukturaning ochiqlik va yopiqlik hususiyati, qancha bog'lovchining xususiyatiga bog'liq bo'lsa (vaholangki, bu, masalan, zidlov-chog'ishtiruv bog'lovchilarida hal qiluvchi shartlardandir), shuncha bo'laklarning o'zaro semantik-struktur aloqasidan dalolat beradi.

Zidlov bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zbek tilida o'z semantikasiga mos grammatik shaklni talab qiladi. Shu sababli bunday qo'shma gap qismlarini bog'lashda *ammo, lekin, biroq, balki* zidlov bog'lovchilari, bu bog'lovchilar vazifasida qo'llanuvchi *-u(-yu)* yuklamasi ishlatiladi. Ular mazmunan zid bo'lgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi. Rus tilida bunday gaplar yopiq strukturali gaplar sirasiga kiradi. Masalan: *Vasiyatnoma shunday ham tiklangani ma'lum bo'lgani rost, lekin bundan bolaning xabari yo'q-ku! – Правда, что так известно восстановления завещания, но ведь ребенок об этом не знает!*

Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar o'zbek tilida ketma-ket yuzaga keladigan yoki bir-biri bilan almashinib turadigan, navbatma-navbat yuzaga keladigan birdan ortiq voqea-hodisa yoki harakatni ifodalab,

semantik jihatdan ayiruv va ichki zidlik, izoh, qiyos, gumon, shart kabi ma'no munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham rus tilida bu turdagi gaplar ochiq strukturali hisoblanadi.

1. *Bir.., dam.., ba'zan.., goh..* bog'lovchilari bilan shakllangan qo'shma gaplar ketma-ket sodir bo'lgan voqealarni ifodalab, semantik jihatdan zidlik va izoh ma'no munosabatlarni anglatadi. Masalan: *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.* (O.) – *То я злюсь, то хочется смеяться.*

2. *Yo, yoki, bo'lmasa* ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda voqea-hodisalardan faqat birining sodir bo'lishi aks etadi hamda qiyos, gumon, shart ma'no munosabatlari ifodalanadi. Masalan: *Mayli siz keting bu shahardan, yoki biz ko'chib ketamiz.* (A.Q.) – *Пускай вы покинете этот город, либо мы переедем.*

Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda inkor munosabati ifodalanadi. Qo'shma gap qismlari *na...* inkor yuklama-bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bu bog'lovchi qo'shma gap qismlarining boshida takrorlanib kelib, yuzaga chiqmagan voqea-hodisalarni ifodalovchi gaplarni o'zaro biriktirib, bog'langan qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan: ... *Na adresi bor, familiyasi bor, na pochta muhri.* – *У него нет ни адреса, ни фамилии, ни почтовой марки.*

Xullas, bog'langan qo'shma gaplar qurilish qolipi, sintaktik tarkibi, qismlarini bog'lovchi vositalari, ohangi jihatidan har bir tilda o'ziga xoslikka ega. Bog'langan qo'shma gaplar o'zbek tilida bog'lovchi vositalariga ko'ra biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarga ajratiladi. Rus tilida esa biriktiruvchi (соединительное), zidlov (противительное) va ayiruv (разделительное) munosabatlari bo'lib, har biri struktur jihatdan ochiq va yopiq toifadagi turlarda o'z aksini topadi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplar boshqa turdagi qo'shma gaplar bilan kamida ikki predikativ birlikdan tashkil topishi jihatidan umumiylik belgisiga ega bo'ladi. Ergashgan qo'shma gaplar bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarga qaraganda birmuncha murakkab semantik-sintaktik tuzilishga ega bo'lib, bu murakkablik har ikki gap turida shakllangan mazmuniy-tarkibiy munosabat, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi sintaktik qurilishda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarning mohiyatini belgilashda ko'pincha jiddiy muammolarga duch kelinadi. Bu, ayniqsa, sifatdosh, ravishdosh, harakat

nomi, shart fe'lili o'ramlar mavjud bo'lgan sintaktik birliklarni baholashda ko'zga tashlanadi. Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida turli o'ramlarni o'z ichiga oluvchi o'ziga xos gap tiplari mavjudki, ularni ba'zan qo'shma gap, ba'zan murakkablashgan sodda gaplar tarzida talqin etish kuzatiladi. Bu holat ergashgan qo'shma gaplarni o'rganishda birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Rus tilida ham bu masalaning o'rganilish tarixi shuni ko'rsatadiki, ergashgan qo'shma, xususan, ergash gaplarning nazariyasini ishlab chiqishda ularning tasnifi biror bir tamoyil ostida bo'la olmaydi. Sodda gaplarning bo'laklariga nisbatan ergash gaplarning alohida turlarini an'anaviy bo'linish bilan chegaralash mumkin emas, deyiladi zamonaviy rus tili grammatikasida. Zero, aksariyat hollarda ergash bo'laklar bilan ifodalangan mazmuniy munosabat, ancha xilma-xil va gap bo'laklari ifodalaydigan munosabatlar murakkabroqdir. Bundan tashqari, rus tilida butunlay parallelizim bo'lishi mumkin emas. Demak qiyoslanayotgan ikki tilda ham ayrim hal etilishi kerak bo'lgan kichik masalalar bor.

O'zbek va rus tillarining ergashgan qo'shma gaplari ikki katta darg'alar tomonidan qiyosiy-ilmiy tahlilga tortilgan. Ular bunday murakkab xulosalarga katta mehnat bilan erishganligi sezilib turadi. Quyida ular bilan tanishamiz.

O.Azizov (va b.) qarashlari. Ergashgan qo'shma gap tarkibida bosh gap (главное предложение) va uning iror bo'lagiga tobe bo'lgan ergash gap (придаточное предложение) mavjuddir.

Ergash gap bosh gap bilan quyidagicha birikib keladi:

1) Ergashtiruvchi bog'lovchilar (подчинительные союзы) yordamida birikadi (*agar – если, chunki – ибо, потому что, garchi – хотя, -ki – что* va boshqalar).

2) Bog'lovchilashgan (bog'lovchi o'rnida keluvchi) so'zlar (союзные слова) yordamida birikadi (*qanday – какой, qayerda – где, qachon – когда, kim – кто, nima – что, qancha – сколько* va boshqalar.) Ergash gaplarni bosh gap bilan biriktiruvchi bunday vositalar nisbiy so'zlar (относительные слова) deb ham yuritiladi. Bog'lovchilashgan (nisbiy) so'zlar faqat ergash gaplarda ishlatiladi, ular ergash gapning ma'lum bo'lagi vazifasida keladi.

3) Shart, payt ma'nolarini anglatuvchi fe'l formalari yordamida bog'lanadi: *Yurak baquvvat bo'lsa, ish ham unumli bo'ladi.* (Uyg'un)

Bog'lovchilar va nisbiy so'zlar orqali bog'lanib kelgan ergash gapli qo'shma gaplarga misollar:

O‘zbek tilida	Rus tilida
<i>Agar dushman taslim bo‘lmasa, uni yanchib tishlaydilar.</i>	<i>Если враг не сдаётся, то его уничтожают</i>
<i>Garchi qish kirgan bo‘lsa-da, kunlar hali iliq edi.</i>	<i>Хотя настала зима, но стояли тёплые дни.</i>
<i>Biz bilamizki, mehnat farovonlik manbaidir.</i>	<i>Мы знаем, что труд есть источник изобилия.</i>
<i>Qayerda suv to‘l ekan, u yerda ko‘kat ham serob bo‘ladi.</i>	<i>Где много воды, там и много зелени.</i>
<i>Nima eksang, shuni o‘rasan.</i>	<i>Что посеешь, то и пожнёшь.</i>
<i>U qancha uzoq yo‘l bossa, shuncha ko‘p buloqlar, irmoqlar, soylar va jilg‘alar unga kelib qo‘shilaveradi.</i>	<i>Чем длиннее ее путь, тем больше притоков, ручьев и речек примыкает к ней.</i>

Rus tilida o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy, publitsistik va boshqa turdagi asar va maqolalarga diqqat bilan nazar solsak, shu narsani yaqqol ko‘ramizki, ruscha qo‘shma gaplar ko‘p hollarda sodda gap formasida beriladi. Buning dastlabki sababi shuki, ergashgan qo‘shma gaplarni (bir va bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarni) shakllantirishda qatnashgan va alohida rol o‘ynovchi maxsus bog‘lovchilar va bog‘lovchilashgan so‘zlar (союзы и союзные слова) o‘zbek tilida u qadar ko‘p emas. Bu hol o‘zbek va rus tillarining o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari hamda mavjud ichki imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Bir va bir necha ergash gapli ruscha qo‘shma gaplarning o‘zbekcha tarjimasiga misollar keltirib, ularni tuzilish tomondan qiyoslab ko‘ramiz.

Rus tilida	O‘zbek tilida
<i>Путешествие не показалось ему столь ужасно, как он того ожидал. (А.С.Пушкин) (ravish ergash gapli qo‘shma gap)</i>	<i>Sayohat u kutganidek dahshatli bo‘lib ko‘rinmadi unga (A.S.Pushkin) (Sodda yoyiq gap)</i>
<i>Вода разливается туда глубже, где местность ниже. (Л.Толстой) (o‘rin ergash gapli qo‘shma gap)</i>	<i>Suv pastlik joylarga tomon ko‘plab toshmoqda. (L.Tolstoy) (Sodda yoyiq gap)</i>
<i>Все наши мечты, помыслы и дела направлены к тому, что выражено в одном коротком, но сильном и много значительном</i>	<i>Bizning hamma orzularimiz, fikr va ishlarimiz birgina qisqa, lekin qudratli va boy mazmunli so‘z – tinchlik so‘zi anglatadigan</i>

<i>слова – мир. (Черкасов)</i> (to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap)	<i>vaqelikka qaratilgandir.</i> (Cherkasov) (sodda yoyiq gap)
<i>Тяжёлые деревянные щиты, что стояли не очень далеко от погребца, были разбиты.</i> (А.Гайдар) (Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma)	<i>Yerto ‘la yaqindagi yo ‘g‘on xari to ‘siqlar tilka-pora bo ‘lib ketgandi.</i> (A.Gaydar.) (Sodda yoyiq gap)

Bunday holatni o‘zbekchadan ruschaga tarjima qilganda ham yaqqol ko‘rish mumkin; o‘zbekcha sodda gaplar rus tiliga qo‘shma gap formasida tarjima qilinadi:

Rus tilida	O‘zbek tilida
<i>Asqar ota sovet hukumati uchun qurol ko‘targan ayollardan Ma‘rifatxon voqeasini eshitganidan beri uning qabrini ziyorat qilish niyatida yurgan edi.</i> (A. Qahhor) (sodda yoyiq gap)	<i>С тех пор как Аскар-ата услышал рассказ об узбечке Магфуратхон, которая с оружием в руках погибла в борьбе за советскую власть, он все время думал, как бы посетить ее могилу.</i> (А. Каххар). (Qo‘shma gap)
<i>Kanizak baland poshnali tuflini umrida birinchi marta kiyganidan yurishga qiynalgani uchun, uyiga borib past poshnali tufli kiymoqchi bo‘ldi</i> (A.Qahhor) (Sodda yoyiq gap)	<i>Туфли на высоких каблуках Канизак надела впервые, и них было так неудобно идти, что она решила переменить их на обычные туфли.</i> (А.Каххар) (Qo‘shma gap)

O.Azizov(lar)ning qiyosiy tahlilida tarjima metodi alohida ahamiyatga ega. Zero, qiyoslanayotgan ikki tilning semantik-struktur jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, u faqat amaliy, progmatik, nutqiy, lingvokulturologik, kognitiv aspektlarda o‘z aksini topadi. Tarjima ana shu vaziyatlarning barini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Tilning nazariy jihatdan qonun qoidalarini solishtirish samarali natija bermaydi. Chunki, har bir olim, tadqiqotchi, tilshunos, izlanuvchi tilni o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib talqin, tasnif va tavsif etishi mumkin. Shu ma’noda, olimning bunday yondashuvi originalik kasb etadi.

Sh.Rahmatullayev qarashlari. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Sh.Rahmatullayev qo'shma gaplar xususida gap ketganda, ko'proq ergashgan qo'shma gaplar yuzasidagi ilmiy qarashlarini bayon etadi. Xususan, rus tilida ergashgan qo'shma gaplar "сложноподчиненные предложения нерасчлененной структуры" va "сложноподчиненные предложения расчлененной структуры" deb ikkiga ajratilishini aytadi. Birinchi tur qo'shma gapda ergash gap bosh gapdagi ot bilan ifodalangan bo'lakka bevosita taalluqli bo'ladi, shu bo'lakni aniqlaydi (sifatlaydi); boshqa tur sifatlovchilardan farqi shuki, tarkibida ega bo'lak qatnashadi, demak, tuzilishi jihatidan gapga teng bo'ladi. Qiyos qiling: *Он взял книги, которые нужны ему. – Он взял книги, нужные ему.* Birinchi misol esa sifatdosh oborotli sodda gapga teng.

Ko'rinadiki, bu qismlar sintaktik aloqa nuqtai nazaridan bir xil; birini gap, ikkinchisini bo'lak deb belgilashda ularning ichki sintaktik qurilishidan kelib chiqiladi. Bunday ergash gapli qo'shma gapda asli ikki predikativ bog'lanmaning teng mavqedagi aloqasi sodir bo'lmaydi, ergash gap boshqa bir gapga emas, balki o'sha gap tarkibidagi ma'lum bir so'zshaklga taalluqli bo'ladi. Faqat predikativlik belgilariga to'liq ega ekanligi (to'liq shakllangan ega va kesimning mavjudligi) tufayli uni gap deb tan olish lozim bo'ladi.

O'zbek tilida sifatlovchi odatda sifatlanmishidan oldin joylashadi, bunday holat sifatlovchi yakka so'zshakl bilan ifodalanganda ham, birikma bilan ifodalanganda ham birdek voqe bo'ladi: *U kerakli kitoblarni oldi. – U o'ziga kerakli kitoblarni oldi* kabi. O'zbek tilida, rus tilidan farqli holda, predikativ bog'lanma ham sifatlovchi bo'lib kela oladi: *U qarilikdan... chetlari qizargan ko'zlarini Gulnorga allaqanday hirs bilan tikdi* (Oybek). Predikativ bog'lanma sifatlovchi bo'lib kelishi uchun o'zgarishlar yuz beradi, albatta. Masalan, *Men yoqtirdim* predikativ bog'lanmasi sifatlovchi bo'lib kelishi uchun tuslovchi tashlanishi, zamon yasovchisi esa sifatdosh yasovchisiga almashtirilishi lozim. Natijada predikativ bog'lanma gaplik holatini yo'qotib, sifatlovchi bo'lakka xos shakl oladi. Bunday o'zgarishlardan keyin predikativ bog'lanmani gap deb bo'lmaydi: *men yoqtirgan kuyni chaling* kabi.

Rus tilida qo'shma gap bilan ifodalangan mazmun o'zbek tilida ham ko'pincha gap bilan ifodalanadi: *Выпал обильный снег, поэтому стало ходить трудно. – Qor juda qalin yog'di, shu sababli yurish qiyinlashdi* kabi. Bundan qat'iy nazar, rus tilida qo'shma gap bilan ifodalanadigan mazmunni o'zbek tilida sodda gap bilan ifodalash ham anchagina uchraydi, bunda rus tilida gap bilan ifodalangan mazmun o'zbek tilida oborot bilan

ifodalanadi: *Я знаю, что ты сегодня работаешь – Men sening bugun ishlashingni bilaman. Он благодарен тебе за то, что ты оказывал помощь его матери. – U sendan onasiga yordam berib turganing uchun minnatdor kabi. Bu mazmunni o‘zbek tilida qo‘shma gap bilan ham ifodalash mumkin: U sendan minnatdor, chunki sen uning onasiga yordam berib turding kabi.*

Sh.Rahmatullayev ruscha va o‘zbekcha qo‘shma gaplarning ba’zi masalalarini ana shunday talqin etadi. Bunda “расчлененный” va “нерасчлененный” tushunchalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek tilida ularning muqobili yoyiq va yig‘iq tushunchalariga mos keladi, ammo qo‘shma gaplarda qismlarga nisbatan bunday deyish yo‘qligini ko‘ramiz. Olim ularni rus tilida ifoda etadi.

Hozirgi o‘zbek va rus tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplar tipologiyasi. O‘zbek tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarni ilmiy o‘rganishda G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Berdialiyev, N.Mahmudov, R.Sayfullayevalarning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Bu ishlarda ergashgan qo‘shma gaplar formal, formal-semantik, formal-funksional jihatdan tadqiq etildi, ergashgan qo‘shma gaplarning turlari ajratilib, har bir turning o‘ziga xos lisoniy tabiati tahlil qilindi. Ilmiy manbalarda ko‘rsatilishicha, ergashgan qo‘shma gaplar biri hokim, ikkinchisi tobe munosabatdagi sodda gaplardan, ya’ni bosh va ergash gaplardan tashkil topadi.

Rus tilida birinchi marta “придаточное предложение” (ergash gap) atamasi XIX srning birinchi yarmida grammatist A.X.Vostokovning “Русская грамматика” va N.I.Grechning “Практическая русская грамматика” asarlarida uchraydi. Undan keyin I.I.Davidov, F.I.Buslayeva, A.A.Potebnya, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, Ye.F.Budde, V.A.Bogorodskiy, A.M.Peshkovskiy, L.A.Buloxovskiy, A.B.Shapiro, I.G.Cherednichenko, N.S.Pospelov, S.E.Kryuchkov, L.Yu.Maksimov, V.A.Beloshapkovalar o‘rganilayotgan malalani har tomonlama tadqiq etadilar. Shu ilmiy xulosalarga ko‘ra bugungi rus tilidagi ergashgan qo‘shma gaplar struktur-semantik jihatdan tasnif qilinadi. E’tiborni aynan mana shu fikrga qaratish va ergash gapli qo‘shma gapning grammatik tabiatini yanada aniqroq ifoda etish uchun “главное предложение” va “придаточное предложение” ni o‘rniga shartli ravishda qo‘llanilayotgan, biroq qo‘shma bir butunlik bo‘laklarining ayrim mustaqilliklariga urg‘u beradigan “главная часть” va “придаточная часть” atamalarining fanga kiritilishi o‘zini to‘la oqlaydi. Shunday qilib, rus tilida ham sintaktik jihatdan tobe bo‘lgan ergash gapli qo‘shma gapning ergash qismi

придаточный, уа'ni ergash deb ataladi. Ergash gapni o'ziga bo'ysundirib keluvchi bo'lagi главный – bosh deyiladi.

O'zbek tilida bosh gap mazmuni va tuzilishiga ko'ra nisbatan mustaqil bo'lib, ergash gap tomonidan izohlanadi, mazmunan to'ldiriladi. Ergash gap esa bosh gapdagi biror bir bo'lakning ma'nosiga oydinlik kiritadi, uni izohlab, to'ldirib keladi. Bosh va ergash gap grammatik jihatdan hamda mazmunan bog'lanib, yaxlit birlikni tashkil etadi va umumiy bir fikrni ifodalaydi. Masalan, «*Qozonga nima tushsa, cho'michga o'sha chiqadi*» (Maqol.) gapida «*Cho'michga o'sha chiqadi*» bosh gap, «*Qozonga nima tushsa*» gapi ergash gap vazifasida qo'llangan. Bu ikki gap *-sa* shart mayli ko'rsatkichi orqali o'zaro bog'langan.

Rus tili grammatikasida ham bu masala deyarli farq qilmaydi. Unda qayd etilishicha, ergash gapning bosh gapga tobeligi sintaktik, struktur hodisadir, mazmuniy emas. Aksariyat mazmuniy tobelik, odatda, aynan, ergash gap ixtiyoridadir. Masalan, *Известно, что слоны в диковинку у нас; - Ведь главное то, чего не понимают такие люди, - сказала дама, - это то, что брак без любви не есть брак.* Bu, albatta, ergash gapli qo'shma gapning bosh qismi mazmuniy ifodani markazi bo'lishi mumkin emas, degani emas.

O'zbek tilida ham ergash gap bosh gapga tobelansa-da, ba'zan unga nisbatan mustaqillik xarakteriga ega bo'ladi. Ergash gapdagi mustaqillik, ayniqsa, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda kuzatiladi. Masalan, «*Shuni bilginki, seni Vatan kutadi*» gapida «*Seni Vatan kutadi*» ergash gapi bosh gapga nisbatan shaklan mustaqil bo'lib, u asosiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, gapning shaklan mustaqillik kasb etishi bosh va ergash gapni farqlashda asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

Rus tilida tobe aloqa muayyan formal ko'rsatkichlar – ergashtiruvchi bog'lovchilar va nisbiy (bog'lovchi) so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan, quyidagi ikki gapdan faqat ikkinchisi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi: 1) *Ему стало душно, и он вышел на крыльцо*; 2) *Он вышел на крыльцо, так как ему стало душно.* Misollardan ikkinchisi o'z tarkibida *так как* ergashtiruvchi bog'lovchisiga ega, vaholangki unisida ham bunisida ham sabab-oqibat munosabati ifodalanmoqda.

Rus tilshunosligida ergash gapli qo'shma gaplarni yaxlitligicha sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gapning bo'laklariga o'xshatish juda keng tarqalgan. Buning natijasida ergash gaplar orasida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol ergash gaplar farqlanadi; hol ergash gaplarning

turlari sifatida o‘rin, ravish, daraja-miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, to‘siqsiz ergash gaplar ajratiladi.

O‘zbek tilshunosligida ergash gaplar turli jihatdan tasniflanadi. Shulardan biri grammatik va logik jihatdan ko‘pchilik tillarda shu vaqtgacha davom etib kelgan an’anaviy tamoyil asosidagi tasnif bo‘lib, unga ko‘ra ergash gaplar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) ega ergash gap; 2) kesim ergash gap; 3) to‘ldiruvchi ergash gap; 4) aniqlovchi ergash gap; 5) ravish ergash gap; 6) o‘lchov-daraja ergash gap; 7) chog‘ishtiruv-o‘xshatish ergash gap; 8) sabab ergash gap; 9) maqsad ergash gap; 10) payt ergash gap; 11) o‘rin ergash gap; 12) shart ergash gap; 13) to‘siqsiz ergash gap; 14) natija ergash gap.

O‘zbek tilida ham ergash va bosh gapning o‘zaro birikuvida ergashtiruvchi bog‘lovchilar, nisbiy so‘zlar, fe‘l shakllarini hosil qiluvchi morfologik ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi. An’anaviy sintaktik nazariyalarda *ergashgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarning* quyidagi turlari ko‘rsatiladi:

1. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar: *shu sababi, chunki, shuning uchun, negaki, go‘yo, -ki.*

2. Bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar: *-ku, -chi, -mi.*

3. Ravishdoshning morfologik ko‘rsatkichlari: *-b (-ib), -may, -gach, -guncha.*

4. Sifatdosh + kelishikli (ko‘makchi) morfologik ko‘rsatkich

a) sifatdoshning morfologik ko‘rsatkichi + kelishik: *-gan+da//-dan//ga, -ganda+da.*

b) sifatdoshning morfologik shakli+ ko‘makchi: *-gan sari // sayin; -gani+ uchun//sababli//tufayli; -gan //-gani+bilan*

c) sifatdosh + kelishik + ko‘makchi: *-gan+dan+so‘ng//keyin //oldin//ilgari//beri//buyon; -gan + ga (-gunga)+qadar//dovur; -gan + -dan ko‘ra*

5. Sifatdosh + -dek //-day qo‘shimchasi: *-gani + -dek // -day.*

6. Sifatdosh + to‘liqsiz fe‘llar: *-gan ekan//edi, -r (-ar) + ekan.*

7. Sifatdosh + paytda//vaqtda//chog‘da//onda: *-gan+zamon//paytda//vaqtda //chog‘da.*

8. Harakat nomili shakl + ko‘makchi: *-sh(-ish) + bilan // bilanoq.*

9. Fe‘lning shart mayli shakli: *-sa.*

10. Fe‘lning shart mayli shakli + kelishik (yuklama): *-sa+ -da, -sa +ham (yam).*

11. Fe‘lning buyruq mayli morfologik ko‘rsatkichi: *-ng//-ngiz, -sin//masin.*

12. Bog'lovchi vazifasidagi deb // deya // deyishib // deguncha yordamchilari.

Rus tilida ergash gapli qo'shma gapning asosiy sintaktik aloqa vositasi maxsus bog'lovchi unsurlar, bo'laklarning o'zaro aloqasining formal ko'rsatkichlari hisoblanadi. Formal ko'rsatkichlarning turiga qarab: 1) союзный тип; 2) относительный тип; 3) местоименно-соотносительный тип; 4) местоименно-союзный соотносительный тип.

Сюзный тип o'z navbatida sodda va qo'shma, semantik va funktsional turlariga ega. Относительный типга olmosh, olmosh-ravishlar kiradi. Соотносительный so'zlarga belgilash va ko'rsatish olmoshlari, olmosh-ravishlar kiradi (masalan, *том...кто*, *том...который*) va hokazo. Bularning hammasi tilning ichki imkoniyatlari, semantik-struktur tabiati bilan bog'liq jihatlar bo'lgani uchun ko'lami keng. Faqat amaliy vazifalari ikki til to'qnash kelganda o'z aksini topadi. Tarjimada bu bilimlar amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA EGA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

O'zbek va rus tillarining ega ergash gapli qo'shma gaplariga oid olimlarning qiyosiy hulosalari yetarli emas. Faqat O.Azizov(lar) ergash gapli qo'shma gaplar xususida so'z ketganda uning tasnifida qayd etib ketadi. U o'zbek va rus tillarida ergashgan qo'shma gaplar bosh gapni qanday izohlaganiga va bog'lovchi vositalariga muvofiq quyidagi turlarga bo'ladi:

1. Ega ergash gap (придаточное предложение подлежащее).
2. Kesim ergash gap (придаточное предложение сказуемое).
3. To'ldiruvchi ergash gap (придаточное предложение дополнение).
4. Aniqlovchi ergash gap (определительное придаточное предложение).
5. Hol ergash gap (обстоятельственное придаточные предложения).

Olimlar o'z navbatida hol ergash gaplarni: ravish ergash gap, o'xshatish ergash gap, o'rin ergash gap, payt ergash gap, maqsad ergash gap, sabab ergash gap, shart ergash gap, to'siqsiz ergash gap hamda natija ergash gapga (придаточные предложения образа действия, сравнения, места, времени, цели, причины, условия, уступительные и следственные) bo'ladi.

O.Azizov (va b.) gap bo'laklarining nomi bilan ataladigan ergash gaplar gap bo'laklarining so'roqlariga javob bo'ladi, deydi: *Kim sport bilan shug'ullansa, u o'zini sog' va bardam his etadi.* – *Кто занимается*

спортом, то всегда чувствует себя здоровым и бодрым (Кто? Кто чувствует себя здоровым...). Biroq bu tipni ega ergash gap deb atamaydi va tahlilni meyoriga yetkazmaydi.

Ma'lumki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni belgilashda ularning grammatik jihatdan shakllanishi, mazmuni, ohangi kabilarga e'tibor qaratiladi. Bu jarayon ergashgan qo'shma gap tarkibida bosh va ergash gapni farqlashda birmuncha murakkabroq kechadi. G'.Abdurahmonovning qayd etishicha, «ergash gap ma'lum bir fikr tugalligini ifodalashi, predikativlik xususiyatiga ega bo'lishi, modal munosabatlarni ifodalashi shart; ergash gap o'z tarkibida ega va kesimga ega bo'lgandagina gapning asosiy belgilarini o'zida ifodalay oladi, tarkibida o'z egasi bo'lmagan gaplar ma'lum bir sintaktik oborot bo'lib qoladi».

O'zbek tilida ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan yoki gapda qo'llanmagan eganing ma'nosiga aniqlik kiritadi. Ega ergash gapda ega vaziyatidagi bo'lak *kim, nima, kimki, kimda-kim* kabi olmoshli havola bo'laklar²² bilan, bosh gapning egasi esa *u, o'sha, shu, o'zi* kabi olmoshlar tashkil topgan havola bo'laklar bilan ifodalanadi. Masalan: *Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.* (Maqol.)

Hozirgi rus tilida ega ergash gapli qo'shma gap *придаточные подлежащие* deb ataladi. Ega ergash gaplar eganing *кто?, что?* so'roqlariga javob beradi. Faqat unda bosh so'z

- Ega ergash gap olmosh bilan ifodalangan bosh gapning egasiga tobe bo'ladi: *тот, то, всякий, каждый, любой, весь, всё* va boshqalar. Masalan, *Каждый (кто), кого он здесь видел, облодал своим особым познанием* (Федин);

- Bosh gapda ega bo'lmasligi ham mumkin, bunda ergash gap bosh gapdagi kesimga nisbatan ega vazifasini bajaradi. Kesim *именительный падеж*dagi savol “*что?*”ga javob beruvchi fe'l yoki ravish bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Qiyoslang: *Известно (что?), что слоны в диковинку у нас* (Крылов). – *Это известно: то, что слоны в диковинку у нас, известно.*

²² N.Mahmudov ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gaplarni ham tasniflash lozim deb hisoblaydi. U ergash gapli qo'shma gaplarning quyidagi turlarini farqlaydi: **1. Havola bo'lakli bosh gaplar. 2. Havola bo'laksiz bosh gaplar.**

Olim havola bo'laklar deganda tilshunoslikdagi «deyxisis belgilar»ni nazarda tutadi. Deyxisis belgilarning mohiyati shundaki, ular voqelikni, predmetni, belgini bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi. O'zbek tilidagi olmoshlar va boshqa nisbiy so'zlar qo'shma gapda havola bo'lak sifatida qo'llanadi. Ega, kesim, aniqlovchi to'ldiruvchi, ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'lakli gaplar bo'lib, ularda ba'zan bosh gapda, ba'zan ham, bosh gapda, ham ergash gapda havola bo'lak qo'llanadi. Qolgan hamma ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'laksiz gaplar hisoblanadi.

O'zbek tilida ergash gapda ega vaziyatida qo'llangan *kim* so'roq olmoshining o'rnida ma'noni kuchaytirish yoki unga diqqat jalb qilinganini ko'rsatish uchun *kimki, kimda-kim* olmoshlari qo'llanadi. Masalan: *Kimda-kim mehnat qilsa, u maqsadiga etadi.*

Rus tilida bog'lovchi vositalar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi.

✓ Agar bosh gaplar ega – olmosh mavjud bo'lsa, u holda ega ergash gap bosh gapga bog'lovchi so'zlar bilan bog'lanadi. Bular *кто, что, который, какой, где, куда, когда, как*. Yoki bog'lovchilar bilan bog'lanadi, ular: *что, чтобы*. Masalan: *Кто знает этого человека, тот не любит с ним много говорить* (Помяловский) – bog'lovchi so'z *кто*; *Всё, что полагалось в дорогу, было собрано* (Бабаевский) – bog'lovchi so'z *что*; *Особенно было страшно то, что над огнём, в дыму, летали голуби* (Чехов) – bog'lovchi *что*.

✓ Agar bosh gapda ega bo'lmasa, u holda ega ergash gap bosh gapga bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. Ular: *что, как, будто, как будто, чтобы*. Shuningdek, *ли* bog'lovchi-yuklama yoki bog'lovchi so'zlardan *кто, что, где, куда, когда, как, который* kabilar bilan bog'lanadi. Masalan: *Его забавляло, что он староста* (Чехов) – *что* bog'lovchisi; *Нужно, чтобы байдара поднимала большой груз* (Сёмушкин) – *чтобы* bog'lovchisi; *Андрея поразило, как изменился Степан Бояркин за одни сутки* (Попов) – *как* bog'lovchi so'z.

O'zbek tilida ega ergash gap va bosh gap qaysi grammatik vositalar orqali bog'lanishiga qarab turlicha o'rinishadi. Fe'lning shart mayli, sifatdoshning to'liqsiz fe'l bilan birikishidan hosil bo'lgan shakllar orqali birikkanda, ergash gap avval, bosh gap keyin keladi. Ergash gap bosh gapga *-ki, -mi, -ku* vositalari orqali birikkanda, bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.

Rus tilida ham ularning gapdagi o'rni mavjud. Ega ergash gap bosh gapdan keyin, bosh gapning o'rtasida va bosh gapdan oldin kelishi mumkin. Masalan,

1) *Кто знает этого человека, тот не любит с ним много говорить* – (*кто* – bog'lovchi so'z) [olmoshli ega]

2) *Все, что полагалось в дорогу, было собрано* – [olmoshli ega] (*что* – bog'lovchi so'z)

3) *Его забавляло, что он староста* – [] (*что* – bog'lovchi)

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA KESIM ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Kesim ergash gapli qo‘shma gaplar tipologik o‘rganilmagan. O‘zbek tilida kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma’nosiga oydinlik kiritadi. Masalan: *Gapning rosti shuki, uning dardini eshitishga toqatim yo‘q.*

Rus tilida kesim ergash gap kesimning so‘roqlariga javob bo‘ladi, shu bilan birga bu so‘roqlar bosh gapning kesimiga ham berilishi mumkin. Ular *каков?, какой?, кто?, что?* va boshqalar.

O‘zbek tilida kesim ergash gap bosh gapga *-ki // kim* bog‘lovchisi yordamida birikadi. Bunday qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapning kesimini quyidagicha izohlaydi:

1. *Shu* olmoshi bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlaydi. Masalan: *Shartim shuki, uyga vaqtida kelasan.*

2. *Kim* so‘roq olmoshi bilan ifodalangan kesimni izohlab keladi: *Sen kimsanki, ovozingga hamma uyg‘onsa?*

3. Ko‘rsatish olmoshi (*shu, bu, o‘sha*) va o‘rin kelishigidagi ot bilan ifodalangan kesimni izohlab keladi: *Buning qizig‘i shu yerda ki, hech kim miq etmay turavyergan.*

4. O‘rin kelishigidagi ko‘rsatish (*shunda*) olmoshi bilan ifodalangan kesimning ma’nosiga oydinlik kiritadi. Masalan: *Eng muhimi shundaki, siz o‘z o‘rnimizni egaddab bo‘ldik.*

5. Chiqish kelishigidagi ko‘rsatish olmoshi (*shundan*) va *iborat* so‘zidan tashkil topgan kesimning ma’nosiga oydinlik kiritadi. Masalan: *Maqsadimiz shundan iboratki, tajribamiz ko‘zlangan natijani berishi uchun bor kuchimizni ishga solamiz.* («Yoshlik».)

Rus tilida kesim ergash gap o‘zbek tilidagi singari bosh gapning kesimi mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ular ko‘rsatish yoki belgilash olmoshlari bilan ifodalanadi: *тот, то, всякий, каждый, любой, всё, все* va boshqalar. Kesim ergash gap bosh gapga *кто, какой, каков, который* kabi bog‘lovchi so‘z yoki *что, чтобы* bog‘lovchilar orqali birikadi. Shuningdek, kesim ergash gap bosh gapdan oldin, keyin va bosh gapning o‘rtasida kelishi ham mumkin. Misollar:

1. *Я тот, кого никто не любит* – [olmohli kesim], (*кого* – bog‘lovchi so‘z)

2. *Тишина такая, какая бывает только перед рассветом* – [olmohli kesim], (*какая* – bog‘lovchi so‘z)

3. *Каков вопрос, таков ответ.* – (каков – bog‘lovchi so‘z), [olmohli kesim]

Rus tili grammatikasida quyidagini e‘tiborga olish zarurligi qayd etiladi:

1) Ega ergash gap singari, kesim ergash gap ham boshqa tasnifda olmosh-aniqlovchi ergash gap (местоименно-определятельные придаточные) sifatida o‘rganiladi: *Я тот, кого никто не любит; каков вопрос, таков ответ.*

2) Kesimning asos qismiga ot so‘z turkumining kelishik va sifat so‘roqlari berilar ekan, u holda kesim ergash gap aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega ergash gap bilan chalkashlikka yuz tutadi. Adashmaslik uchun, olmosh, ya‘ni bosh so‘z gapning qaysi bo‘lagi ekanligini aniqlab olish zarur. Kesim ergash gapda u faqat kesim bo‘lib keladi. Bundan tashqari, bu olmoshni ma‘noni va bosh gapning shaklini o‘zgartirmasdan olib tashlab bo‘lmaydi.

Xullas, o‘zbek va rus tillaridagi ega va kesim ergash gapli qo‘shma gaplarning tipologik ilmiy xulosalari hali o‘z navbatini kutmoqda. Uning qirralari chuquroq tadqiqotlar bilan ochilishi, isbotlanishi kerak.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA TO‘LDIRUVCHI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan to‘ldiruvchini yoki qo‘llanmagan to‘ldiruvchining mazmunini aniqlab, izohlab, to‘ldirib keladi. To‘ldiruvchi ergash gaplar nutqda harakat obyektining ma‘nosini kengaytirish yoki uning mazmunini to‘liqroq ochib berish uchun ishlatiladi.

Rus tilida bunday gaplar adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Придаточные дополнительное (to‘ldiruvchi ergash gap) yoki придаточное изъяснительное (izohlovchi ergash gap). Ular dopolneniенинг so‘roqlariga javob bo‘lishi qayd etiladi. To‘ldiruvchi ergash gap bo‘lagining vazifasi yoki bosh qismning mavjud bo‘lmagan (ega yoki to‘ldiruvchi) gap bo‘lagini izohlash: *Потом он видел, как Николаев встал из-за карт; Требовалось, что бы в створе развернутых носков помещался ружейный приклад и что бы наклон всех солдатских тел оказался одинаковым.* Yoki izohlovchi mazmun bilan ko‘rsatish olmoshlari (*тот, все, весь*) ni konkretlashtirish, to‘ldirish hisoblanadi. Masalan, *Всю ночь поют в пшенице перепелки о том, что будет урожайный год; Молодость хороша тем, что она имеет будущее; Тяжелее всего, что работаешь и ни в ком не встречаешь сочувствия* –

ergash gap *поют о том, хороша тем, тяжелее всего* qo‘shilmalarni kengaytirmoqda.

O‘zbek tilida bosh gapning ergash gap aniqlab, izohlab kelgan to‘ldiruvchisi tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi ko‘rsatish olmoshlari bilan ifodalanadi. Ba‘zan bunday olmoshlar gapdan tushirib qoldiriladi. Masalan: *Nimani eksang, shuni o‘rasan.* (Maqol.)

Rus tilida izohlovchi ergash gap bosh gapga *что, чтобы, будь то, как, словно, как будто, ли* bog‘lovchilari, shuningdek, *где, куда, откуда, как, сколько, насколько, почему, зачем, который, какой, кто, что* bog‘lovchi so‘zlari bilan birikadi.

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapda qo‘llangan to‘ldiruvchi vaziyatidagi havola bo‘lak ko‘makchili qurilma bilan ham ifodalanishi mumkin: *Bu yigit boshqalardan shu bilan farqlanadiki, u juda xushmuomala va kamtarin.*

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapga *-ki, -sa, deb, -mi, -ku* kabi til vositalari yordamida bog‘lanadi. Masalan:

-ki: Shuni unutmaginki, mehnat qilgan murodiga yetadi.

-mi: Ishonasizmi, men usiz bir kun ham yasholmayman.

-ku: Bilasan-ku, mardning so‘zi bir bo‘lur.

-chi: Borib bil-chi, ular kimlar ekan?

-sa: Sen nimani so‘ragan bo‘lsang, hammasini olib kelishdi.

Misollardan anglashiladiki, ergash gap *-ki, -ku, -mi, -chi* yordamchilari orqali bosh gapga biriksa, bosh gap birinchi o‘rinda, ergash gap ikkinchi, *-sa* shart mayli qo‘shimchasi bilan biriksa, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o‘rinda keladi. Rus tilida izohlovchi ergash gapning o‘rni, odatda, tegishli bo‘lgan so‘zdan keyindir. Biroq ba‘zan ularning pozitsiyasi bosh so‘zdan oldin bo‘lishi ham mumkin.

Masalan:

1. *Началось (с чего), что Колька из озорства отнял у меня книжку.* – [fe’l + ishora qiluvchi so‘z], (*что* bog‘lovchisi).

2. *У Слободкина возникло ощущение (чего?), будто он застыл в беспредельном пространстве.* – [ot so‘z turkumi], (*будто* bog‘lovchisi)

3. *Мы наперебой расспрашивали кучеров (о чем?), смирные ли у них лошади.* – [fe’l], (*ли* yuklama-bog‘lovchisi)

4. *– Юлия Дмитриевна, начальник велел (что?), что бы вы никуда не уходили.* – [fe’l], (*чтобы* bog‘lovchisi)

5. *Сейчас уже никто не знает (чего), откуда в курских садах пошла «соловьинная школа»* – [fe’l], (*откуда* bog‘lovchisi)

Shunday qilib, o‘zbek va rus tillarida asosan, bog‘lovchi so‘zlar, xususan olmoshlar yordamida to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarni hosil qilinadi, deb xulosa qilish mumkin. O‘zbek tilida bunday gaplarda bog‘lovchi so‘zlardan tashqari ayrim qo‘shimchalar ham ishtirok etadi. Shuningdek, ko‘rsatuvchi ishora qiluvchi olmoshlar havola bo‘lak deb talqin qilinadi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA ANIQLOVCHI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Ruscha *aniqlovchi ergash gap* (определенное придаточное предложение) ga ham o‘zbek tilida ko‘pincha bir gap bo‘lagi to‘g‘ri keladi: *Мы прочитали те книги, которые рекомендовал преподаватель. – Biz o‘qituvchi tavsiya etgan kitoblarni o‘qib chiqdik. Рабочий, который выполнил задание текущего года, работает в счет будущего года. – Joriy yil topshirig‘ini bajargan ishchi kelgusi yil hisobiga ishlamoqda. Я был на линии железной дороги, которая еще только строилась (А. Чехов) – Men endigina qurilayotgan temir yo‘l izida edim.*²³

O‘zbek tilida bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi vaziyatidagi bo‘lakni izohlab, to‘ldirib keluvchi ergash gaplar aniqlovchi ergash gap deyiladi. Masalan, «O‘zbekiston shunday diyorki, fasllari gulga o‘ralar» (U.) gapida «Fasllari gulga o‘ralar» ergash gapi bosh gapda shunday olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchining ma‘nosiga oydinlik kiritgan, uni izohlab kelgan.

Rus tilida aniqlovchi ergash gapli ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh komponentning ot so‘z turkumiga tobelanib keladi. Bunday tobelik ergash gapning asosiy vazifasi hisoblanadi – ular predmentning sifatini o‘zida aks ettiradi yoki uning belgisini ochib beradi:

Я пугался женщин, которые выходили из наркомата вместе с Наташей;

“Осенний день в Сокольниках” – единственный пейзаж Левитана, где присутствует человек.

Ergash komponent bilan aniqlanayotgan ot so‘z turkumi, bosh komponentda istalgan gap bo‘lagi bo‘lib kelishi mumkin, chunki uning ergash qism ko‘rinishidagi aniqlashga xos sifati leksik-morfologik tabiati bilan bog‘liq, sintaktik vazifasi bilan emas. Masalan,

²³ Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси (қисқа курс). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

Женщины, которые выходили из наркомата в месте с Наташей, меня пугали;

Я пленился «Осенним днем в Сокольниках» - единственным пейзажем Левитана, где присутствует человек.

O'zbek tilida ilmiy manbalarda aniqlovchi ergash gaplarning bosh gapga quyidagi biriktiruvchi vositalar yordamida bog'lanishi ko'rsatiladi:

-ki: *Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi.* (O.)

-sa: *Kimning diyonati kuchli bo'lsa, uning xalq oldida e'tibori yuqori bo'ladi.*

Rus tilida ergash gap bosh gapga *который, какой, чей, кто, что, где, куда, откуда, когда* bog'lovchi so'zlari bilan bog'lanadi. Bosh gapda ko'rsatish *тот, этот, такой* olmoshlari bo'lishi (bo'lmasligi ham) mumkin.

O'zbek tilida aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapning aniqlovchisi sifatida *shunday, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, ba'zi bir, hech bir, shunday bir, qaysi bir* kabi nisbiy olmoshlari qo'llanadi va ular ergash gap tomonidan aniqlanadi, izohlanadi:

1. *Hech bir qiz yo'qki, u sevgi haqida o'ylamagan bo'lsa.* («Yoshlik».)

2. *Ba'zi bir o'smirlar borki, ular kattalarga taqlid qilishni xush ko'rishadi.* («Yoshlik».)

Ba'zan bosh gap tarkibida *uning, unday* havola bo'laklari, ergash gap tarkibida esa ularga qarshilantirilgan *kim, kimki, kimning* havola bo'laklari qo'llanadi. Masalan: *Kimning so'zi to'g'ri bo'lsa, uning ishi ham to'g'ri bo'ladi.*

Ergash gap ba'zan bosh gapdagi *shu, u, o'sha, uning, o'shaning* so'zlari bilan ifodalangan aniqlovchining ma'nosini aniqlab, izohlab keladi. Bunda ergash gap tarkibida *qaysi, qanday, qay* kabi olmoshlar qatnashadi. Masalan: *Qaysi odam to'g'ri va xalol bo'lsa, biz o'sha kishini e'zozlaymiz.* («Saodat».)

Rus tilida ham aniqlovchi ergash gapli ergashgan qo'shma gap olmoshli, xususan, ko'rsatish olmoshili bo'ladi. Bunda ular omoshni aniqlamaydi (chunki ular aniqlanishga moyil emas), balki uning ma'nosini konkretlashtiradi, ma'nosiga oydinlik kiritadi: *Кто весел, тот смеётся.*

Rus tili grammatikasida bunday gaplar ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Присубстантивно-определятельные предложения

Bunda ergash gap ot so'z turkumining qay darajada aniqlanishiga qarab ikki xil vazifani bajaradi. Bir vaziyatda bosh gap aniqlikni talab etadi. Bunda ergash gap bosh komponentda mavjud bo'lmagan gap bo'lagnini to'ldirib keladi. Masalan, *Каким образом может существовать сословие,*

спрашивал сам себя Ромашов, - которые в мирное время, не принося ни одной крошечки пользы, поедает чужой хлеб и чужое мясо, одевается в чужие одежды, живет в чужих домах, а в военное время идет бессмысленно убивать, и таких же людей, как они сами; Людям, которые умеют держать себя с достоинством под выстрелом, многое, очень многое прощают. Boshqa vaziyatda bosh gap ergash gapga ehtiyoj sezmaydi, chunki u avtosemantikdir. Bunday gaplarning ergash gapi bosh gapni yoyadi. Predmet haqida qo'shimcha ma'lumotlarni axborot beradi va ot so'z turkuni aniqlab keladi. Ular bosh gapda yo ma'nosiga ko'ra konkret, yo yetarli darajada aniqlangan. Masalan: *В разгар пира в овин зашел Травкин, которого никто не ожидал; Отвернувшись к окну, я смотрел на пустынные улицы, по которым изредко проносились военные машины.*

2. Приместоименно-определительные предложения. Bunday gaplar quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi. 1) bosh gapda olmosh asos bo'lishi muqarrar; 2) ergash komponent bu olmoshni konkretlashtiradi, uning mazmunini oydinlashtiradi. *Он делал то страшные, то ласковые и одобрительные глаза, шипел на тех, кто пел неверно, и едва заметным трепетанием протянутой ладони сдерживал увлекающихся* gapida ergash gap *кто пел неверно* bosh gapdagi *тех* olmoshi ma'nosiga oydinlik kiritmoqda.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar rus tilida faqat bog'lovchi so'zlar bilan birikadi, agar biriktiruvchi vosita bog'lovchi bo'lsa, u holda ergash gap aniqlovchi ergash gap bo'lmaydi. Masalan, *У Слободкина возникло ощущение, будто он застыл в беспредельном пространстве.* Ot so'z turkumi *ощущение* ga ikki xil savol berish mumkin: *ощущение какое?* va *ощущение чего?* Bu vaziyatda ergasha gap aniqlovchi ergash gap emas, balki to'ldiruvchi ergash gapdir. Chunki bog'lovchi vosita *будто*.

Shuningdek, aniqlovchi ergash gapdagi *когда, где, куда, откуда, кто, что* bog'lovchi so'zlarini *который* bog'lovchi so'zi bilan almashtirish mumkin: *Забрались в такие заросли, где одни волки водились – Забрались в такие заросли, в которых одни только волки водились.*

Shunday qilib, o'zbek va rus tillarida bog'lovchi vositalar sifatida olmoshlarning o'rni bo'lakcha bo'lib, rus tilida ular ikki xil ko'rinishga ega. Ya'ni otlashgan-aniqlovchili va olmosh-aniqlovchili ergashgan gaplar farqlanib ular ham o'z navbatida eragash gapning vazifasiga ko'ra aniqlashtiruvchi, oydinlik kirituvchi kabi nozik qirralariga urg'u beriladi. O'zbek tilida havola bo'laklarning ishtirokiga ko'ra bir havola bo'lakli ikki

havola bo‘lakli kabi aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplarning turlari ajratiladi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA SHART ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Bunday tuzilishdagi qo‘shma gaplarda shart mazmun munosabati shakllanadi. U haqda O.Azizovning kitobida qisqacha fikrlar bor. Xususan, *agar (если)* bog‘lovchisi **shart yoki istak ergash gapni** bosh gapga boglashi shular jumlasidan: *Agar biz turmushdan o‘rgansak, bundan foyda unadi. – Если мы станем учиться у жизни, будет толк.* (К.Федин)

Shuningdek, olim bu bog‘lovchi kelmaganda ham, o‘zbek tilida shart ergash gap to‘liq shakllanishi, chunki shart ma’nosini shart mayli formasining o‘zi ifodalayverishini ta’kidlaydi: *Bahor kelsa, gullar ochiladi.*

Rus tilida esa shart ergash gap *если (бы), когда (бы), ежели (бы), коль скоро* kabi bog‘lovchilardan biri ishlatilsagina shakllanadi, chunki fe’l formasining o‘zi shart ma’nosini ifodalamaydi, deydi u va hart ergash gapning kesimi shart mayli formasidagi fe’l va *edi* yordamchisidan yoki *-da* affiksini olgan sifatdosh va *edi* yordamchisidan tarkib topishi ham mumkinligini quyidagicha izohlaydi. Bunday *edi* anglatadigan ottenkani ruscha *бы* yuklamasi ifodalaydi: *Yana bir yuk avtomobilimoz bo‘lganda edi (bo‘lsa edi), yuk tashish ishimiz ancha yengillashar edi. – Если бы имели ещё одну грузовую автомашину, то дело перевозки груза намного облегчилось бы.*

Shuni aytib o‘tish kerakki, N.Mahmudov bu turdagi gaplarni «Shartlanganlik munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar» tarkibiga kiritadi. Chunki, shart ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapda aks etgan voqelikning yuzaga kelish shartini ko‘rsatadi. Masalan: *Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi, ishqingiz qora kiymas edi.* (O.)

Ushbu gapning tarkibiy qismlari «*Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi*» ergash gapi va «*Ishqingiz qor kiymas edi*» bosh gapi o‘rtasida shart munosabati shakllangan bo‘lib, ergash gapdagi shart voqea muayyan uzv sifatida bosh gapdagi voqea ichiga kiradi.

Rus tilida shart ergash gap bosh gapga *если, ежели, коли (коль), как, как скоро, раз, когда, кабы, буде, ли... ли* kabi bog‘lovchilar bilan bog‘lanadi. Biroq shartlanganlik xuddi o‘zbek tilidagidek maxsus bog‘lovchilarsiz, leksik-morfologik vositalar (buyruq yoki istak mayli shakllari) bilan ham birikishi mumkin: *Явись теперь на Руси поэт,*

который был бы неизмеримо выше Пушкина, его появление уже не могло бы наделать столько шума; Не были бы живы – ваш покорный слуга не имел бы удовольствия вас здесь видеть.

Shart ergash gaplar o‘zbek tilida real ravishda yuzaga keladigan yoki taxmin qilingan voqelikni aks ettiradi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilshunosligida shart ergash gaplarning quyidagi 2 turi farqlanadi:

1. Real voqelikni aks ettiruvchi shart ergash gaplar. (*Kim bizga to‘sqinlik qilsa, o‘ziga jabr qiladi*)

2. Mo‘ljallangan, taxmin qilingan (irreal) voqelikni aks ettiruvchi shart ergash gaplar. (*Agar komandirlarning hammasi shunday bo‘lsa edi, ish boshqacha tus olardi.*)

Bunday bo‘linish rus tilshunosligida ham bor.

1. Предложение с реальным условием. (*Не жалко сил, если они дают такие результаты*)

2. Предложения с желаемым, возможным или предполагаемым условием. Bunda yuqorida sanab o‘tilgan bog‘lovchilar *by* yuklamasi bilan birga qo‘llaniladi. (*Если бы нас теперь пустили в поле, мы в траву попадали бы спать*)

Shart ergash gap o‘zbek tilida bosh gapga quyidagi bog‘lovchi vositalar yordamida birikadi:

-sa: *To‘kilsa manglay tering, unumli bo‘lar yering.* (Maqol.)

-sa + edi // ekan: *Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichlab borishga to‘g‘ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim.* (O.)

-gan + -da // -ganda + edi: *Agar o‘gay ona o‘lgandan keyin tinchlanganimizda, men o‘zimni baxtli sanardim.* (S.A.)

-r(-ar) + ekan / /-mas + ekan // -gan + ekan: *Men ishlamas ekanman, bolalarim qanday kun kechiradi.* (So‘zl.)

-moqchi + ekan: *Nazokat ishingizga ko‘maklashmoqchi ekan, xursand bo‘lishingiz kerak.* (S.Ahm.)

-mi: *Hayotxon oldiga bir aniq maqsad qo‘ydimi, ming urinsang ham qaytara olmaysan.* (M.Ism.)

-sa + bormi: *U ishga kirishsa bormi, hech bir ish chala qolmaydi.* (S.S.)

-may: *Yer ko‘karmay, mol to‘ymas.* (Maqol.)

-yo‘qsa // bo‘lmasa: *Tezroq oching, yo‘qsa, qaytib ketamiz.* (So‘zl.)

Bu shakllarning orasida eskirgan ko‘rinishlari, tarixiy xususiyatlari ham bor. Rus tilida eng faol bog‘lovchi *если* hisoblanadi. *Ежели* esa arxaik va eskirgan bog‘lovchidir. *Коль* (*коль*) ko‘proq so‘zlashuv nutqida faollik ko‘rsatadi. Shuningdek, *буде* ham arxaik ottenkaga ega bo‘lib, u kelajakdagi

shartni amalga oshishiga ishora qiladi. Masalan, *Буде спросит кто о чем – молчи, коли жив быть хочешь?*

O'zbek tilida shart ergash gapli qo'shma gaplarda shart munosabatini kuchaytirish uchun *agar//agarda, mabodo, modomiki, bordi-yu* kabi bog'lovchilar ham qo'llanadi. Bunda shart munosabati subyektiv murakkablashadi: *Bordi-yu, kelmasang, o'zim boraman.* (So'zl.)

O'zbek tilida shart ergash gapli qo'shma gaplarda qismlarining o'rinlashuv tartibi uslubiy talab asosida va biriktiruvchi vositalarning qo'llanishiga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, bosh gapga *-sa (edi), -ganda (edi), -r(-ar) ekan, bo'lmasa, yo'qsa, -mi* biriktiruvchi vositalari bilan birikkan ergash gap ko'pincha gap boshida keladi. Masalan, «*Raykom sizni izzat qilibdimi, buni qadrlash kerak*» (S.S.) gapida ergash gap oldin, bosh gap undan keyin kelgan.

Rus tilida o'rinlashuv qat'iy bo'lmay, bosh gapdan keyin va bosh gapdan oldin ham kelishi mumkin. Misollar:

1. [При каком условии?] Если бы на отмели был песок, можно было бы увидеть следы животного. (если bog'lovchisi), []

2. [При каком условии?] Коли парень ты румяный, братец будешь мне названный. (коли bog'lovchisi), []

3. Не на пользу книги читать [При каком условии?], когда только вершки с них хватать. [] (когда bog'lovchisi)

4. [При каком условии?] Как душа черна, так и мылом не смоешь. (как bog'lovchisi), [так и]

Shart ergash gapli qo'shma gaplar o'zbek tilida havola bo'laksiz gaplar hisoblanadi. Bunday gaplarda ham shakliy-mazmuniy muvofiqlik deyarli buzilmaydi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA O'RIN ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

O'zbek va rus tillarida o'rin ergash gaplar bosh gapdagi harakatning yuzaga kelish, boshlanish yoki yo'nalish o'rnini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida: *Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi* qo'shma gariida «*Katta kema qayoqqa yursa*» ergash gapi va «*Kichik kema ham shu yoqqa yuradi*» bosh gapining *-sa* shart mayli affiksi yordamida o'zaro bog'lanishidan tarkib topgan. Ergash gap bosh gapdagi harakatning yo'nalish o'rnini anglatib kelgan.

Rus tilida o'rin erdash gaplarni bosh gapga bog'lovchi so'zlari *где, куда, откуда* hisoblanadi. Ular bosh gapni yoyish, *там, туда, оттуда,*

езде, всюду ravishlari bilan mazmunini ochish va nihoyat aniqlash xususiyatiga ega. *Где быстрые шумные воды недавно свободно текли, сегодня прошли пешеходы, обозы с товаром прошли* gapida o‘rin ergash gap bosh gapni yoymoqda. *Там, где была раньше одинокая скала, лежала гряда обломков* gapida ergash gap bosh gapdagi umumiy ma’noga ega *там* ravishi bilan ifodalangan o‘rin holati mazmunini ochmoqda. *Все заглядывали вперед, где качалось и реяло красное знамя* gapida ergash gap bosh gapdagi o‘rin holiga aniqlik kiritmoqda.

O‘zbek tilida ham o‘rin ergash gaplar bosh gapdagi o‘rin holining mazmuniga aniqlik kiritadi, uni semantik jihatdan izohlaydi. Shu sababli gapning bu turi ayrim manbalarda «Umumlashtiruvchi-izoh ergash gapli qo‘shma gaplar»ga birlashtiriladi.

O‘rin ergash gaplar o‘zbek tilida bosh gapga shart mayli, buyruq mayli shaklidagi **fe’l + ekan** to‘liqsiz fe’lidan iborat biriktiruvchi vositalar orqali bog‘lanadi. Masalan:

-sa: *Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi.* (Maqol.)

-masin: *Qayoqqa bosh urmasin, u yerda nohaqlik mavjud edi.* (So‘zl.)

-mang: *Qayerga bormang, bir zumda o‘sha yerda paydo bo‘laman.* («Yoshlik».)

Rus tilida o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar, odatda, местоименно-соотносительный bo‘ladi va bunday holatda bosh gapda *там, туда, оттуда, везде* kabi muvofiqlashtiruvchi so‘zlar ishtirok etadi. o‘zbek tilidagidek, qo‘shimchalar bilan o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarni hosil ilish mavjud emas. Umuman, bosh gapda muvofiqlashtiruvchi so‘zlarsiz qo‘shma gaplar ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. O‘zbek tilida o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarda o‘zaro qarshilantirilgan olmosh va o‘rin ravishlaridan tashkil topgan *qayerda – shu yerda // o‘sha yerda // shunda, qayerga – shu yerga // shu yoqqa, qayga – o‘sha yerga // o‘sha yoqqa* havola bo‘laklari qo‘llanadi. O‘zaro nisbatlanuvchi bu havola bo‘laklardan *qayerda, qayerga, qayga, qayerdan* kabilar o‘rin ergash gap tarkibida, *shu yerda, o‘sha yerda, shunda, shu yerga, shu yoqqa, o‘sha yerga, o‘sha yoqqa* havola bo‘laklari esa bosh gap tarkibida qo‘llanadi.

Rus tilida *где* bog‘lovchi so‘zi bilan hosil bo‘lgan o‘rin ergash gaplar bosh gapda qanday ravish bilan muvofiqlashganiga qarab turli mazmundagi ottenkalarga ega bo‘ladi.

Там... где muvofiqligida ergash gap bosh gapning haakatning amakga oshish joyiga ishora qilish mazmunini beradi. *Там где ветры слизали снег, земля по ночам гулко лопается.* Agar *там... где* muvofiqlashuvi umumiy ma’noda ikki axborotni muvofiqlashtirishga ishora qilganda joyga ishora

qilmaydi. *Случается, нередко нам и мудрость видеть так, где стоит только догадаться за дело просто взяться.*

O‘zbek tilida o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar, asosan, ikki havola bo‘lakli bo‘ladi. Ya‘ni, bosh gap tarkibida ham, ergash gapda ham olmoshlar, o‘rin ravishlari bilan ifodalangan havola bo‘laklar ishtirok etadi. Masalan: *Oqsoqol qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda ish bir tartibda borardi.* (O‘.H.)

Bu gapda *qayerda* – *o‘sha joyda* havola bo‘laklari o‘zaro nisbatlangan. Bu havola bo‘laklar gapda aks etgan denotativ voqeaning yuzaga kelish o‘rnini alohida ta‘kidlash uchun qo‘llanadi. Agar bunday ta‘kidga zarurat bo‘lmasa, havola bo‘laklar gapdan tushirib qoldiriladi va qo‘shma gap sodda gapga aylantiriladi. Qiyoslang: *Oqsoqol bo‘lgan joyda ish bir tartibda borardi.*

Bunday tuzilishdagi gaplarda bosh gapdagi havola bo‘lak tushirib qoldirilganda ham gap bir havola bo‘lakli gapga aylanmaydi. Chunki bunday holatda moddiy jihatdan shakllanmagan havola bo‘lak ma‘nosi mantiqan anglashilib turadi. Qiyoslang: *Qayerdaki bu mutanosiblik buzilsa, (u yerda) fojia kelib chiqadi.* (S.S.)

Rus tilida *туда... где* muvofiqligi harakatning yo‘nalganligini (*Настасья посмотрела в перед, туда где заранее намечана была линия первого гона*); *оттуда... где* muvofiqligi harakatning chiqish o‘rniga bo‘lgan ishorani (*Оттуда, где была река, веяло сыростью*); *езде... где* muvofiqligi bosh gapdagi o‘rin ravishi ma‘nosining chegarasini (*Мне везде дорога, где только ветер дует и море шумит*) ko‘rsatadi.

Shuningdek, *куда* bog‘lovchi so‘zi bilan bog‘langan *туда... куда* muvofiqligidaa ham harakatning yo‘nalganligi ko‘rsatiladi: *Куда конь с копытом, туда и рак с клешней; там... куда* muvofiqligi bosh gapdagi harakat o‘rnini anglatadi: *Куда поподала эта струя, там листья бледнели, съеживались и увядали; оттуда... куда* muvofiqligi harakatning chiqish nuqtasiga ishora qiladi: *Оттуда, куда он указал пальцем, валил дым.*

O‘zbek tilida ham rus tilida ham o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik deyarli yuzaga kelmaydi. Shu sababli gapning semantik va sintaktik tuzilishida ziddiyat ko‘zga tashlanmaydi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA PAYT ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Payt ergash bosh gapda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelish vaqtini bildiradi. Bunday gaplarning qiyosiy tahlili qisqacha O. Azizov boshchiligida yozilgan kitobda uchraydi. Uning fikriga ko‘ra o‘zbek tilida payt ma’nosini anglatuvchi *-gach, -guncha* ravishdosh formalari mavjud. Bular **payt ergash gap**ning kesimini shakllantirib, uni bosh gapga bog‘laydi: *Oradan bir oz vaqt o‘tgach, bu yerda quruvchilar ishni boshlab yuborishdi.*
2. *Olisning oti o‘zguncha, yaqinning toyi o‘zar.*

Rus tilidagi payt ergash gap (придаточное предложение времени) o‘zbek tilidagi xuddi shunday ergash gapga ko‘pincha mos keladi: *Когда план был составлен, мы приступили к работе. – Reja tuzilgach, biz ishga kirishdik,* lekin rus tilidagi payt ergash gapga o‘zbek tilida doim ergash gap mos kelavermaydi, balki hol ham mos keladi. Masalan: *Я об этом узнал после того, как мне об этом рассказали товарищи – Men bu haqda o‘rtoqlarim gapirib bergandan keyin bildim.* Bu yerda ruscha misol payt ergash gapli qo‘shma gap, o‘zbekcha misol esa sodda yoyiq gapdir.²⁴

O‘zbek tilida payt ergash gap va bosh gap orasida zamon munosabati shakllanadi. Masalan: *Jahl kelganda, aql qochadi.* (Maqol.)

Ushbu qo‘shma gapning «Jahl kelganda» komponenti ergash gap, «Aql qochadi» qismi esa bosh gap. Ergash gap bosh gapda aks etgan voqeaning yuzaga chiqish paytini ko‘rsatgan.

Rus tilida payt munosabatini ifodalovchi qo‘shma gaplar ma’no munosabatiga ko‘ra “сложные предложения с отношением одновременности” va “сложные предложения с отношением разновременности” kabi turlarga bo‘linadi. Bu munosabatlar aloqa vositalar (bog‘lovchi va bog‘lovchi so‘zlar)i va fe’llarning zamon ma’no turlari orqali ifodalanadi.

Bir vaqtda sodir bo‘ladigan harakat-holat munosabati (отношение одновременности) payt ergash gapli qo‘shma gapda *когда, пока, как, покамест* (архаик), *покуда* (so‘zlashuv), *в то время как* kabi bog‘lovchilar bilan hosil bo‘ladi. Odatda bosh va ergash komponent fe’llari bir zamonning tugallanmagan turi bo‘ladi.

Turli vaqtda sodir bo‘ladigan harakat-holat munosabati (отношение разновременности) *когда, пока, рокамест, только лишь, только чуть, как, едва, лишь, прежде чем, раньше чем, перед тем как* kabi

²⁴ Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси (қисқа курс). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

bog'lovchilar, shuningdek, bosh va ergash komponentda fe'l-kesimlarning turli shakl munosabatlari va o'rinlashuv tartibi bilan ifodalanadi.

Turli vaqtda sodir bo'ladigan harkat-holat munosabatili payt ergash gapli qo'shma gaplar ikki xil ko'rinishda bo'ladi: birinchisi bosh gapdagi harakat ergash gapdagi harkat orqali sodir bo'ladi; ikkinchisi bosh gapdagi harkat ergash gapdagi harakatdan oldinroq sodir bo'ladi.

Payt ergash gapli qo'shma gaplarda o'zbek tilida ham payt munosabatining ifodalanishida turli holatlar kuzatiladi. G'.Abdurahmonov payt munosabatining ifodalanishi bilan bog'liq holatlarni quyidagicha farqlaydi:

1. Bosh va ergash gapdagi voqelik bir vaqtda ro'y beradi. Masalan: *Men-Farhod, ajdar-la olishgan damda, Qomating xanjardir, mash'aldir ko'zing.* (G'.G'.)

2. Bosh gapdagi harakat, xususiyat ergash gapdagi harakat, xususiyatdan so'ng yuzaga keladi. Masalan: *Mashq tugagach, gur o'tirdi hamma birdan.* (G'.G'.)

O'zbek tilida ergash gapdagi voqeaning bosh gapdagi voqeadan oldin sodir bo'lishi ham keng tarqalgan. Masalan: *Men gapdan to'xtashim bilanoq, u yarim soatdan keyin kelishini aytdi.*

Ushbu gapda ergash gapdagi voqea tugashi bilan bosh gapdagi voqeaning boshlanishi ifodalangan. *Oq yuklamasining ta'sirida gap mazmunida subyektiv murakkablashuv yuzaga kelgan.* Bunday gaplarda ta'kid ham yuklamasi vositasida ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Endi gap boshlagan ham ediki, eshik taqillab qoldi.* (So'zl.)

Rus tilida payt ergash gapli qo'shma gaplar sabab-oqibat va chog'ishtiruv-zidlov ma'nolari bilan murakkablashishi mumkin. Masalan, *Когда человек утомлен и хочет спать, то ему кажется, что то же самое состояние переживает и природа; Покамест слуги управлялись и возились, господин отправился в общую залу.* Bu gaplarda zamon muvofiqligi ikkinchi planga surilgan, gaplarning paytga tegishli deb olinganligining sababi, boshqa mazmuy aloqalar grammatik ifodaga ega emas va faqat muayyan gaplar mazmuni asosida ma'lum bo'ladi. Murakkablashmagan payt munosabati, faqat ergash gap u yoki bu zamonni ko'rsatsa, o'rnatiladi: *Когда прошло пять лет...; Когда наступил вечер...*

O'zbek tilida payt ergash gaplarning bosh gaplar bilan bog'lanishida, asosan, payt munosabatining muayyan ko'rinishi ifodasi uchun moslashgan biriktiruvchi vositalar qo'llanadi. Bular quyidagilardir:

I. Payt ergash gap bosh gapga sifatdosh shakllari, sifatdoshli o'ramlar orqali bog'lanadi (-gan + -da: -gan + -dan + keyin // beri // so'ng //

boshlab: -gan + -ga + dovur // qadar: -gan + edi // edi, ekan: -gan + paytda // vaqtda // chog‘da // mahalda // zamon: -r (-ar), -r (-ar) + ekan: -r (-ar) + -mas: -mas + -dan: -mas + -dan + oldin // avval // burun);

II. Fe’ning ravishdosh shakli orqali ergash gap bosh gapga bog‘lanadi (-b // -ib: -gach: -guncha: -may: -may + turib);

III. Fe’ning harakat nomi shakli -sh (-ish) bilan ko‘makchisi bilan birga kelib, ergash gapni bosh gapga bog‘laydi: *Qishloqqa salqin tushishi bilan, kolxoz saroyining katta sahnidagi chiroqlar yondi.* (I. R.)

IV. Shart mayli -sa qo‘shimchasi yordamida payt ergash gap bosh gapga bog‘lanadi. Masalan: *Yuzingni bir ko‘ray desam, qo‘lingni pardalar qilding.* (Z.)

V. Qo‘shma gap qismlari *demoq* fe’l shakli orqali bog‘lanadi (*desa, deguncha*)

VI. Payt ergash gap bosh gapga -ki bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan: *Shu dargohga kelibmanki, janjaldan boshim chiqmaydi.* (A.Qod.)

VII. Payt ergash gap bosh gapga -mi yuklama-bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi: *Paxta ochildimi, terim boshlanadi.*

N.Mahmudovning qayd etishicha, keng tarqalmagan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida nutqda ikki havola bo‘lakli payt ergash gapli qo‘shma gaplar ham uchraydi. Bunday gaplarda *qachon-shunda // o‘shanda // o‘sha paytda* tarzida qarshilantirilgan havola bo‘laklar mavjud bo‘ladi. Masalan: *Sen qachon o‘ninchi sinfni bitirsang, o‘shanda soat olib beraman.*

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA RAVISH ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Ravish ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning qanday bajarilishini yoki belgi-xususiyatning qay tarzda yuzaga chiqishini anglatadi. Demak, ravish ergash gaplar sof tarz ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Soy beton to‘g‘on bilan to‘silib, suv ikki darvozadan guvillab quyilmoqda edi.* (S.Ahm.)

Ushbu gapda «Soy beton to‘g‘on bilan to‘silib» ravish ergash gapi «*Suv ikki darvozadan guvillab quyilmoqda edi*» gapida aks etgan harakatning qay tarzda yuzaga chiqqanligini ko‘rsatadi.

Rus tilida bunday gaplar ajratilmaydi. Harakatning belgisiga ishora qilib kelishi mumkin bo‘lgan ergash gap bu - “сложноподчинённые предложения с придаточной частью образа действия”. Masalan, *Трое офицеров, бывших в столовой, поздоровались с ним сухо и заговорили*

между собой вполголоса, так, чтоб он не слышал gapida ergash gap harakatning belgisiga ishora qilmoqda. Bunday gaplar o'lov-darajamiqdor ma'nolari bilan birga o'rganiladi va ularning hammasiga bitta tavsif beriladi. Ya'ni odatda bog'lovchilar bilan birikkan ergash gapda bosh gapdagi olmosh so'zlar konkretlashtirilishi o'rin-miqdor-daraja ergash gap ma'nolari bilan bir xil. Bunday tipdagi ergash gaplar "местоименно-союзно соотносительный" deb yuritiladi. Shu ma'noda semantikaning turli tumanligiga qaramasdan, bir vaqtning o'zida nozik va biroz sezilarli darajada bu gaplar bir xil qurilishga ega. Struktur bir xillik (структурное единство) ni gap bo'laklarining o'rinlashuv tartibi belgilab bergan: ergash gap doimo bosh gapdan keyin turadi.

O'zbek tilida ham ravish ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar ko'pchilikni tashkil etmaydi. M. Asqarova ravish ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarning quyidagi turlarini qayd etadi:

-b (-ib): *Nazokatning ovozi titrab, yuragi urar edi.* (S.Ahm.)

-may: *Tomog'ingdan o'tmay bir qultum ham suv,.. Balki sahrolarda nola qilarsan.*(U.)

-masdan: *Naimiyning biror ishi o'ngidan kelmasdan,.. umri bekorga o'tib ketdi.* (As.M.)

deb: *Chambil obod bo'ldi deb,.. kelayotir Avazxonday zo'ravor.* (F.Y.)

G'.Abdurahmonov esa ravish ergash gap va bosh gapni biriktiruvchi vositalarning quyidagi turlarini ajratadi: *ravishdoshning* -(i) *b* shakli, *sifatdosh* +-cha, *sifatdosh* + -dek//-day, *sifatdosh* + holda//yo'sinda, *deb* bog'lovchisi, -ki bog'lovchisi.

Ravish ergash gapli qo'shma gaplarda ikki va undan ortiq denotativ voqea ifodalanadi. Ergash gapda ifodalangan denotativ voqea bosh gapda ifodalangan voqea ichiga tarz bildiruvchi uzv sifatida kiradi. Shu sababli qo'shma gap qismlari orqali ifodalangan denotativ voqealar ancha zich hamda o'zaro aloqador bo'ladi. Masalan, «*Saida bir lahza nafasi ichiga tushib, noqulay ahvolda qoldi*» (S.Ahm.) gapida bir-biri bilan bog'liq ikki denotativ voqea ifodalangan.

Ravish ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'laksiz gaplar hisoblanadi. Bunday gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik deyarli kuzatilmaydi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA MIQDOR-DARAJA ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Miqdor-daraja ergash gaplar rus tilida harakat holati ergash gaplari bilan bir qatorda o‘rganiladi. Сложноподчинённые предложения с придаточной частью образа действия, меры и степени uch xil ma’no nozikliklariga ega bo‘lsada, struktur birxillikka ega. O‘zbek tilida bu tip gaplar o‘lchov-daraja ergash gaplar deb ham yuritiladi. Ular bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning qay darajada, qancha miqdorda ro‘y berishini anglatadi, voqea-hodisani uning hajmi va darajasiga ko‘ra o‘lchab ko‘rsatadi. Masalan: *Chuqur qancha ko‘p bo‘lsa, aravakash ham shuncha notinch bo‘ladi.* (A.Q.)

O‘lchov-daraja ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gapda ham, bosh gapda ham miqdor-darajaning bir xilda ekanligi, ularning barobar darajada ortishi yoki kamayishi aks etadi. Masalan: *U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha lovullab yonardi.* (O.)

Rus tilida bosh gapdagi belgining darajasini va miqdori (o‘lchovi)ni bildiruvchi ergash gap *что* bog‘lovchisi bilan bosh gapga birikadi: *Савельевич так поражен был моими словами, что всплеснул руками и остолбенел* (степень); *Он наловил столько рыбы, что трудно было перечесть* (мера). Bu bog‘lovchi *так, до того, настолько, сколько, таким образом, до такой степени* kabi so‘zlar bilan muvofiqlashadi. *Чтобы, словно, точно* bog‘lovchilari esa *так, таким образом* so‘zlari bilan, shuningdek, *как* bog‘lovchi so‘zi bilan *так* olmoshi muvofiqlashadi.

O‘zbek tilida o‘lchov-daraja ergash gaplar bosh gapga quyidagi biriktiruvchi vositalar yordamida bog‘lanadi:

-sa: *Mehnat qancha qiyin bo‘lsa, samarasi shuncha shirin bo‘ladi.* (R.F.)

-gan (-gani) + sayin // sari: *Biz qanchalik ko‘p yo‘l yurgan sayin, manzil shunchalik uzoqlashganday bo‘lar edi.* (S.Ahm.)

-ki: *Konvert ustidagi adreslar ham, ism, familiyalar ham shunday chiroyli qilib yozilganki, har qanday kishining havasi keladi.* (R.F.)

Rus tilining yana daraja ergash gapli qo‘shma gaplarida bosh gapda “*такой+существительное*”, “*такой+прилагательное*”, “*такой+наречие*” va ergash gapda *что, будто, словно, как будто* bog‘lovchilari bilan muvofiqlashuv sodir bo‘ladi. Bunday daraja belgilari umumiy ma’noda quyidagi qo‘shimcha ottenkalar bilan murakkablashadi: ***natija*** – *иногда я чувствую в душе такое мстительное чувство, что даже боюсь за себя; Пантелеев всю дорогу молчал с таким видом, что ни у кого не*

возникало желания с ним заговорить; На дворе за окнами стало тихо, - так тихо, что где-то в двух шагах, в темноте, соловей вдруг залился громкой, беззаботной трелью. Chog'ishtirish – День казался таким высоким, будто небо распухнулось до самой глубины. O'zbek tilida bunday gaplar **chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar** sifatida o'rganiladi, ergash gapning mazmuni bosh gapning mazmuniga taqqoslanadi, qiyoslanadi. Bunday gaplardagi asosiy maqsad ikki denotativ voqea va ular o'rtasidagi farqli jihatni ifodalashdan iborat. Masalan: *Quyosh havoni isitsa, do'stlik qalbni isitadi.* (Maqol.)

O'zbek tilida o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik deyarli kuzatilmaydi. Chunki bunday qo'shma gaplarda ifodalangan har bir denotativ voqea gap sintaktik strukturasi muvofiq bo'ladi.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA SABAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

O'zbek tilida bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning yuzaga kelish sababini anglatadigan ergash gap sabab ergash gap deyiladi. Masalan, «Ob-havo noqulay kelganligi uchun, chigit ekish kechikdi» qo'shma gapida ergash gap (Ob-havo noqulay kelganligi uchun) bosh gapda (Chigit ekish kechikdi) aks etgan voqelikning yuzaga kelish sababini anglatadi.

Rus tilida esa bu xil gaplar ikki xil ko'rinishda bo'ladi. U bosh gapda gapirilayotgan voqelikning yo sababiga, yo daliliga ishora qiladi. Qiyoslang: *Такая густая трава росла только по берегам озера, потому что здесь достаточно было влаги* gapidagi ergash komponent bosh komponentda axborot berilayotgan voqelikning sababiga ishora qilinmoqda. *В нижнем этаже, под балконом, окна вероятно, были открыты, потому что отчетливо слышались женские голоса и смех* gapidagi ergash gap esa bosh gapda axborot berilayotgan voqelikning sababiga ishora qilmayapti (окна открыты не потому, что слышались голоса, а потому, что их кто-то открыл), balki asoslanmoqda, dalillanmoqda, ya'ni so'zlovchi nima asosda oyna ochiqligini ta'kidlamogda, bosh gapda so'zlanayotgan voqelikni asoslamoqda.

Sabab va dalil ergash gaplarning chegaralanishi nazarda tutilayotgan borliq hodisalarining o'zaro aloqasiga bog'liq. Sabab ergash gapli qo'shma gaplarda sabab-oqibat munosabatlari aks etadi, dalil ergash gapli qo'shma gaplarda esa (so'zlovchi tomonidan) chiqarilgan xulosa munosabati ifodalanadi.

O'zbek tilida ham sabab ergash gaplarda 2 xil mazmuniy munosabat farqlanadi: **Sabab-natija munosabati; sabab-izoh munosabati.**

1-turdagi sabab ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap sababni, bosh gap undan kelib chiqadigan natijani anglatadi. Masalan: *Jangchilar o'zlarini puxta yashira olganlari uchun, talafot juda oz bo'ldi.* (O.)

2-turdagi qo'shma gaplarda sabab ergash gap bosh gapga nisbatan izohni ham anglatadi. Masalan: *Nikohning qimmatini yo'q, chunki sen rozi bo'lmagansan, to'g'rimi?* (H.H.)

Anglashiladiki, har ikki holatda ham qo'shma gaplarda sabab munosabati shakllanadi. Ba'zan qo'shma gapda aks etgan sabab munosabatining subyektiv murakkablashuvi kuzatiladi. Qo'shma gapning bunday murakkablashuvi sababning aniq yoki noaniqligi, ma'lum yoki noma'lumligi, taxminiyligi kabi subyektiv ma'no nozikliklarini gap mazmuniga kiritish hisobiga yuz beradi. Masalan, «*Majlis erta boshlandi, faqat shuning uchun u kech qoldi*» gapida ergash gapdagi voqeaning aniq ekanligi ta'kidlangan, bu bilan sabab munosabati subyektiv murakkablashgan. Murakkablashuv faqat yuklamasi orqali shaklan ifodalangan.

Rus tilida sabab bog'lovchilari o'zining stilistik bo'yoqlariga ko'ra xilma xildir. *Потому что, оттого что, так как, поскольку* bog'lovchilari ham adabiy, ham so'zlashuv nutqida birdek qo'llanilaveradi. *Благодаря тому что, вследствие того что, из-за того что, в силу того что, ввиду того что* deyarli kitobiy tilda, rasmiy uslubda qo'llanilish xususiyatiga ega. *Ибо* bog'lovchisi adabiy: *Мария Ивановна сильно была встревожена, но молчала, ибо в высшей степени была одарена скромностью и осторожностью. Благо* bog'lovchisi so'zlashuv nutqiga xos: *Собаки далеко залезли в конуры, благо не на кого было лаять.* Bu bog'lovchi o'zining leksik ma'nosiga xos ravishda holatning yaxshilikka o'zgarganiga ishora qilish bilan xarakterlanadi. *Затем что* (bog'lovchilar qo'shilmasi) arxaik bo'yoqqa ega. Zamonaviy rus tilida kam qo'llaniladi: *Один Молчанин мне не свой, и то затем, что деловой.*

O'zbek tilida sabab ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Sabab ergash gaplar bosh gapga kesim shakli ko'rsatkichlari yordamida birikadi: *uchun; sababli; tufayli; -ganidan// -ganligidan; -mi; -gan (-ganli + lig + u + dan) + bo'lsa + kerak; shekilli, chog'i; -ki; deb; -gach; -may // -masdan*

2. Sabab ergash gaplar bosh gapga bog'lovchilar yordamida birikadi: *chunki; negaki; sababki; shuning uchun // shu sababli, shu boisdan// shu vajdan.*

Rus tilida sabab ergash gaplari bosh gapga *потому что, оттого что, вследствие того что, благодаря тому что, в силу того что, из-за того что, затем что, так как, поскольку, ибо, благо* bog‘lovchi va bog‘lovchi so‘zlar vositasida birikadi. Sabab ergash gap bosh gapga *shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan* bog‘lovchilari bilan biriksa, ergash gap avval, bosh gap keyin keladi, bog‘lovchilar esa bosh gap tarkibida qo‘llanadi.

Rus tilida esa sabab ergash gaplari doimo bosh gapdan keyin joylashadi, faqat sabab yoki dalilni ta’kidlash va natijaga ishora qilish maqsadidagina bu holat o‘zgarishi mumkin. *Оттого что нельзя плакать и возмущаться вслух, Вася молчит, ломает руки и дрыгает ногами.*

Ибо, благо, потому что bog‘lovchilari bilan bog‘lagan ergash gaplar doimo bosh gapdan keyin keladi: *Верить хотелось, ибо книги уже внушали мне веру в человека.*

O‘zbek tilida bunday chegara yo‘q, masalan, *-ki* ergashtiruvchi bog‘lovchisi ba‘zan bosh gap, ba‘zan ergash gap tarkibida qo‘llanadi. Masalan, «*Baxtim borki, har narsa go‘zal ko‘rinadi mening ko‘zimga*» gapida *-ki* bog‘lovchisi ergash gap kesimi tarkibida, «*Men sizga shuning uchun ham ishonmaymanki, siz yolg‘on gapirasiz*» gapida esa bosh gap kesimi tarkibida kelgan.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA MAQSAD ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Maqsad ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Masalan, «*Xalqimiz shoyi kiysin deb, tut ko‘chati ekamiz*» gapida «*Xalqimiz shoyi kiysin deb*» gapi ergash gap, «*Tut ko‘chati ekamiz*» gapi esa bosh gap; ergash gap bosh gapdagi voqelikning qanday maqsad asosida bajarilishini ifodalagan. Rus tilida *Пришлось остановиться, чтобы навести порядок* gapida ergash qism bosh gapdagi harakatning maqsadiga ishora qilmoqda. *Слово дано для того человеку, что бы он сообщал свои мысли другим* gapida bosh gapda nazarda tutilgan voqelikning vazifasi (maqsadi) haqida axborot bermoqda.

O‘zbek tilida maqsad ergash gaplar bosh gapga quyidagi bog‘lovchi vositalar bilan birikadi:

-deb // deya // deyishib: *Nevaramni ko‘ray deb, bobosi kelibdi.* (S.Z.)

-a(-r) + ekan: *So‘zim qanday ta‘sir etar ekan deb, diqqat bilan unga tikildim.*

-mi + ekan: *Baxtim bormikan deb., kelaberdilar bari katta chinor sari.* (H.O.)

-sin + uchun: *U esini o'nglab, tomoshabin to'planmasin uchun, dadasiga zerikibroq yuring dedi.* (A.Q.)

-toki: *Qishloqqa yolg'iz o'zim qaytmoqchiman, toki gap-so'zlar tinchisin.* («Yoshlik».)

Rus tilida maqsad ergash gaplari *чтобы, для того что бы, с тем что бы, затем чтобы, дабы, лишь бы, только бы* bog'lovchilari vositasida birikadi. Shu bilan birga kesimning tasdiq maylida yoki infinitiv shaklda ifoda topishi bilan xarakterlanadi. Ergash bo'lak, odatda, bosh gapning umumiy hammasiga tegishli bo'ladi: *Чтоб мерить все надежной меркой, чтоб с правдой сущей быть не вроз, многостороннюю проверку прошли мы – где кому пришлось.*

O'zbek tilida maqsad ergash gapning kesimi ba'zan *degan maqsadda, degan niyatda, degan umid bilan* birikmalari orqali ham ifodalanadi va bosh gapga birikadi: *Menga qararmikin degan niyat bilan, baland ovozda gapira boshladim.* («Yoshlik».)

Rus tilida murakkab bog'lovchilar (составные союзы) ajratilgan holda qo'llanilishi mumkin. Natijada, *чтобы* bog'lovchisi ergash gap tarkibida qolib, bog'lovchining birinchi qismi esa bosh gap tarkibiga o'tadi. Bunda ikki qism bir biriga muvofiqlangan so'zlar sifatida yuzaga chiqadi: *Для того, чтобы привести землю в порядок, надо было вместе с землеустроителями заного разработать планы севооборотов.* Agar bog'lovchilar oldidan chegaralov, chog'ishtiruv va boshqa yuklamalar, shuningdek, kirish so'zlar kelsa, bu vaziyat ularni ajratishni taqozo etadi: *Он разрешал молчание разве только для того, чтобы журить своих дочерей; Обо всем этом говорилось словно затем, чтобы как можно больше затруднить и без того трудную задачу.*

Maqsad ergash gaplar o'zbek tilida *deb, uchun, degan umidda, degan niyatda, degan maqsadda, degan umid bilan, degan niyat bilan* birikmalari orqali bosh gapga bog'lansa, gap boshida keladi, bosh gap esa undan keyin keladi. Bunday holatda bog'lovchi vositalar ergash gap tarkibida bo'ladi.

Ergash gap *toki* bog'lovchisi orqali bosh gapga biriksa, ikkinchi o'rinda keladi va bu bog'lovchi ergash gap tarkibida bo'ladi.

Maqsad ergash gap bosh gapning biror bo'lagini izohlasa, bosh gapning o'rtasida qo'llanadi: *Qiz, u og'iz ochmasin deb, ishora qildi.* («Yoshlik».)

Rus tilida maqsad ergash gaplari bosh gapga nisbatan, yuqorida ta'kidlangan ajratishdan tashqari, istalgan o'rinda kelishi mumkin.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA NATIJA ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Bunday tuzilishdagi qo‘shma gaplarda natija munosabati shakllanadi. Rus tilida bunday gaplar bosh gapga *так что* bog‘lovchisi yordamida birikadi: *Веревка была длиною почти во всю комнату, так что один только противоположный угол мог быть безопасным от нападения страшного зверя; Тут в комнату ворвался ветер, так что пламя свечей в канделябрах легло.*

Bu mazmuniy munosabat bir voqelik natijasi sifatida ikkinchi gapda aks etadi. Ya’ni ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatning natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, «*Sen rais To‘rani bir o‘ray-bir o‘rayki, qaysi teshikka kirganini bilmay qolsin*» (A.Q.) gapida «*Sen rais To‘rani bir o‘ray-bir o‘rayki*» gapi ergash gap, «*Qaysi teshikka kirganini bilmay qolsin*» gapi bosh gap. Bosh gapda aks etgan voqelik ergash gapda ifodalangan voqelik asosida yuzaga chiqishi mo‘ljallangan natijani anglatadi.

Anglashiladiki, natija ergash gapli qo‘shma gaplardagi fikr mo‘ljallangan yoki real xarakterda bo‘ladi. Mana shu belgi asosida natija ergash gapli qo‘shma gaplarning mazmuniy xususiyatlarini M.Asqarova quyidagicha belgilaydi: a) natija ergash gapdagi fikr real bo‘ladi; b) natija ergash gapdagi fikr mo‘ljallangan va taxmin qilingan bo‘ladi.

Rus tilida natija ergash gaplarning ergashish xususiyati juda kuchsiz ifodalanadi va bosh gap strukturasi, qoidasi bo‘yicha, ergash gapga ehtiyoj sezmaydi. Mana shuning uchun natija ma’nosi bilan qo‘shimcha hukmni o‘zida aks ettiradi va birlashish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunday ergash gaplar *силу чего, вследствие чего* kabi ko‘makchilar guruhi bilan bosh gapga birikib adabiy xususiyatga ega bo‘ladi: *В них было много молодого задора, вследствие чего каждое дело казалось по плечу.*

O‘zbek tilida natija ergash gapli qo‘shma gap qismlari *-ki* bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan: *U eshikni shunday qattiq taqillatdiki, uydagilarning hammasini uyg‘otib yubordi.* (A.Q) Natija munosabatini kuchaytirish, alohida ta’kidlash maqsadida *natijada, oqibatda* so‘zlari qo‘llanadi. Masalan: *Zambarakning gumburlashidan haybatli bir guvillash hosil bo‘ldiki, natijada bu yerda alohida to‘pning ovozi butkul eshitilmay qoldi.* (A.Q.)

Rus tilida natija ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA O‘XSHATISH ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Bunday gaplar o‘zbek tilida “Chog‘ishtirish-o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplar” mavzusi ostida o‘rganiladi. Ergash gapning mazmuni bosh gapning mazmuniga taqqoslanadi, qiyoslanadi. Gaplardagi asosiy maqsad ikki denotativ voqea va ular o‘rtasidagi farqli jihatni ifodalashdan iborat. Masalan: *Quyosh havoni isitsa, do‘stlik qalbni isitadi.* (Maqol.)

Rus tilida esa bunday gaplar “Сложноподчинённые предложения с придаточной частью сравнительной” deb ataladi. Chog‘ishtirish ergash gapi borliqdagi assotsiativ aloqalarga asoslanib qiyoslash orqali bosh gapga oydinlik kiritadi. Chog‘ishtirish munosabati *как, подобно тому как, словно, будто, как будто, точно, как если бы* bog‘lovchilari bilan ifodalanadi.

Chog‘ishtirma ergash gaplarning qiyoslashning o‘zi, o‘xshatish, moslik/loyiqlik ma‘no ottenkalari bor va u bog‘lovchilarning leksik ma‘nosi bilan belgilanadi.

O‘zbek tilida chog‘ishtirish-o‘xshatish ergash gap bosh gapga quyidagi biriktiruvchi vositalar orqali birikadi:

-sa: *Siz diniy ta‘limotga qanday ishonsangiz, men ilmiy ta‘limotga shunday ishonaman.* (G‘.G‘.)

-guncha: *Yigitning sazasi singuncha, xo‘kizning bo‘yni sinsin.* (Maqol.)

-ko‘ra: *Tiz cho‘kib yashagandan ko‘ra, tik turib o‘lmoq afzal.* (Maqol.)

-day// -dek: *Har bir tunning kunduzi bo‘lganidek, hayotingizni ham kunduzi kelur.* (O.)

-kabi, singari, yanglig‘: *Tunlari traktorlar, och bo‘rilar galasi betinim uvillagani yanglig‘, tinmay tarillaydi.* (N.Qil.)

-ki + xuddi // go‘yo: *Oppoq nozik yuzi quyoshda shu qadar tiniq ko‘rindiki, go‘yo u nurdan yaratilganday.* (O.)

Bosh gap tartibida *shunday, shu qadar, shunchalik* so‘zlari qo‘llangan o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplar natija ergash gapli qo‘shma gaplarga o‘xshab ketadi. Biroq o‘xshatish ergash gaplarda qo‘llangan nisbiy so‘zlar o‘xshatishni kuchaytirishi, ta‘kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, gap tarkibida *go‘yo, go‘yoki, xuddi* o‘xshatish yuklamalari bo‘lgan, kesimi *-day, -dek* shakllari bilan qo‘llangan gaplarning o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap ekanligi mantiqan sezilib turadi.

Rus tilida aloqa vositalari va ma‘nosiga ko‘ra chog‘ishtirma ergash gapi chog‘ishtirishma oborotlarga yaqin turadi: *Я ползу, как зверь, и только слышу, как больно и громко стучит мое сердце.* Chog‘ishtirma oborotlar o‘zining struktur noto‘liqligi bilan chog‘ishtirma ergash gaplardan farq

qiladi, shuning uchun ularda soʻzlarni predikativ bogʻlash belgilari koʻrilmaydi.

Словно, точно, как будто как бы bogʻlovchilari sodda gaplarning ichida alohida boʻlaklarni bogʻlab kelishi ham mumkin, vazifasiga koʻra yuklamalarga yaqinlashadi. Bunday holatda ular ergash gapdagi yoki chogʻishtirma oborotlardagi singari qiyoslashni ifodalamaydi, balki gap boʻlaklari orasidagi munosabatlarda yetarli boʻlmagan aniqlikka urgʻu beradi. Masalan: *Ты меж сестер словно горлинка белая промежду серых простых голубей (словно kesim); Я ползу на животе тихо, осторожно, словно умирая (словно hol)*

Oʻzbek tilida chogʻishtirish ergash gapli qoʻshma gaplarning mazmuniy asosini qiyoslash munosabati tashkil etadi. Qiyoslash munosabatida: **a) farqni koʻrsatish; b) oʻxshashlikni koʻrsatish** farqlanadi.

Birinchi holatni chogʻishtirish, ikkinchi holatni esa oʻxshatish munosabati sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Chogʻishtirish ergash gapli qoʻshma gaplardagi asosiy maqsad ikki denotativ voqea va ular oʻrtasidagi farqli jihatni koʻrsatishdan iborat. Masalan: *Nonushtada Egamberdi bobo nonini dasturxonga qoʻysa, peshin chogʻi u belbogʻini yozardi.* (N.K.)

Chogʻishtirish-oʻxshatish ergash gapli qoʻshma gaplar havola boʻlaklarning ishtirokiga koʻra havola boʻlaksiz gap sanaladi. Bunday gaplarda qoʻllangan *qanday-shunday//oʻshanday, qanday qilib-shunday qilib* olmoshlari havola boʻlak vazifasini bajarmaydi, balki bosh gap bilan ergash gapning yanada zichroq bogʻlanishini taʼminlaydi.

OʻZBEK VA RUS TILLARIDA TOʻSIQSIZ ERGASH GAPLI QOʻSHMA GAPLAR

Toʻsiqsiz ergash gapli qoʻshma gaplarda ergash gapda aks etgan toʻsiqqa qaramay, bosh gapda voqelikning yuzaga kelishi ifodalanadi.

Toʻsiqsiz ergash gapli qoʻshma gaplarda toʻsiqsizlik munosabati bilan birga shart munosabati ham shakllanadi. Buni quyidagi gap tahlilida tekshiramiz: *Quvonchi koʻksiga sigʻmasa-da, Nazokat odob yuzasidan oʻzini xomush, hazin tutishga tirishar edi.* (O.)

Bu gapda toʻsiqsizlik munosabati shakllansa-da, «*Agar quvonchi koʻksiga sigʻmasa, u oʻzini xomush, hazin tutmasligi kerak*» mazmunidagi shart munosabati yashirin ifodalangan. Toʻsiqsizlik munosabati mana shu shart ustiga qurilgan. Shu sababli bunday tuzilishdagi gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab boʻladi.

Bu gaplar to'g'risida O.Azizov va uning hammualliflari quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan. *Garchi* (хотя) bog'lovchisi *to'siqsiz ergash gapni* (уступительное придаточное предложение) bosh gapga bog'laydi: *Garchi yomg'ir yog'sa ham, ekskursiya bo'ladi.* – *Хотя будет дождь, но экскурсия состоится.*

O'zbek tilida to'siqsizlik bog'lovchisi *garchi* tushirilishi mumkin (*Yomg'ir yog'sa-da, ekskursiya bo'ladi*); rus tilida esa bog'lovchi tushirilmaydi, bunda *хотя* (хоть), *несмотря* (невзирая), *на то, что* (даром что), *пусть*, *пусть* bog'lovchilaridan biri kelishi shart.

O'zbek yozuvida *-ki* bog'lovchisi bosh gapning kesimiga qo'shib yoziladi, vergul undan keyin qo'yiladi; rus tilida esa aksincha: *что* bog'lovchisi ergash gap boshida keladi, vergul undan olidin qo'yiladi. Masalan: *Biz bilamizki, yaxshilik aslo unutilmaydi.* – *Мы знаем, что доброе дело никогда не забудется.*

Ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanuvchi nisbiy so'zlarning (olmosh va ravishlarning) ergashtiruvchi bog'lovchilardan farqi shuki, nisbiy so'zlar ergash shapning biror bo'lagi bo'lib keladi. O'zbek tilida nisbiy so'zlar bilan keladigan ergash gaplarning kesimi ko'pincha shart mayli formasida bo'ladi: *Nima eksang, shuni o'rasan. Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham shu yerda bo'ladi.*

Ayrim vaqtlarda bunday ergash gaplarning kesimi *-ar* (bo'lishsizida *-s*) formasidagi sifatdosh hamda *ekan* (*-kan*) yordamchisidan tarkib topadi: *Kim halol mehnat qilar ekan, u rohat ko'radi.*²⁵

O'zbek tilida to'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lishsiz shaklda tuzilganda, shart munosabati va u bilan bog'liq tarzda to'siqsizlik ham yanada kuchayadi. Masalan, «*Qor yog'masa-da, izg'irin ayovsiz esardi*» (S.B.) gapida «*Qor yog'masa, izg'irin ayovsiz esmaydi*» shart mazmuni anglashiladi. Mana shu shartga qaramay, bosh gapdagi voqea ro'y berganligi uchun to'siqsizlik munosabati ham kuchayadi.

Rus tilida to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplardagi bosh va ergash gaplarning zid ma'noli axboroti, zidlov munosabatli qo'shma gaplarga yaqinlashtiradi. Biroq ikkinchisining bo'laklari tengroq, ularda shartlanganlik ottenkasi yo'q: *Было темно, но мы не прекратили поисков* - *Хотя было темно, мы не прекратили поисков.*

To'siqsiz ergash gaplar o'zbek tilida bosh gapga turli biriktiruvchi vositalar yordamida bog'lanadi. Bularga quyidagilar kiradi: *-sa ham*

²⁵ Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси (қисқа курс). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

(yam); -sa-da; -ganda ham (yam); -ganda-da; -gani +bilan; -masin; -b(-ib); -gani holda; -di +hamki; -sa; qaramay//qaramasdan.

Rus tilida to'siqsiz ergash gaplar bosh gapga *хотя (хоть), несмотря на то что, невзирая на то что, пускай, пусть, даром что* kabi bog'lovchi va bog'lovchi so'zlar bilan birikadi.

O'zbek tilida yana ba'zan ergash gapning kesimi bo'lishli-bo'lishsiz shakldagi buyruq, shart mayli fe'llari orqali ifodalanadi: *Xoh ishonning-xoh ishonmang, kattaligi uyday keladi.* (A.Q.)

Misollar tahlilidan ko'rinadiki, o'zbek tilida to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarning ko'lamini keng.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tilshunoslikda paydo bo'lishi. O'zbek tilshunosligida bog'lovchisiz qo'shma gaplarni farqlash, bu turdagi gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi, qismlarini bog'lovchi vositalar, bog'lovchisiz qo'shma gaplarning turlari kabi masalalarni hal etishda turli munosabat ko'zga tashlanadi.

G'.Abdurahmonovning qo'shma gap sintaksisiga bag'ishlangan qator ishlarida bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'z mavqeiga ega bo'lgan alohida gap turi sifatida ko'rsatiladi. M.Asqarovaning «Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar» (1960) nomli kitobida hamda A.G'ulomov bilan hamkorlikda yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1965) darsligida ham bog'lovchisiz qo'shma gaplar alohida tur sifatida farqlanadi, ammo olimaning 1987-yilda nashrdan chiqqan shu nomdagi darsligida bog'lovchisiz qo'shma gaplar alohida tur sifatida ajratilmaydi. Ushbu qayta ishlangan va to'ldirilgan darslikda qo'shma gaplar qismlarining bog'lanish munosabatiga ko'ra ikki turga: bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga ajratiladi. Bu holat an'anaviy sintaktik ta'limotda bog'lovchisiz qo'shma gaplarni gap turi sifatida farqlash maqomida turlicha yondashuv mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Rus tilida ham uzoq yillar mobaynida bog'lovchisiz qo'shma gaplar alohida struktur jihatdan tur sifatida emas, balki bog'lovchisi tushib qolgan gap sifatida qaralgan. Buning oqibatida bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'lovchili gaplarga muvofiq belgilangan. Amalda bu mazmunan mos, ba'zan teng bog'lovchi, ba'zan ergashtiruvchi bog'lovchini almashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan. Biroq bunday yondashuv yetarli darajada semara bermagan, chunki, aksariyat gaplar bunday cheklovlarga

bo'ysunmaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bog'lovchili tip qo'shma gaplar belgilaridan ko'ra semantik intanatsion belgilari unchalik differentsial emas. Masalan, *Вернётся отец – все будут рады* gapining semantikasida ikki ma'noli bog'langan gap yig'indisini berishi mumkin: *Когда вернется отец, все будут рады* va *Если вернется отец, все будут рады*. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'lovchiliga aylantirish gap bo'laklar orasidagi ma'no nozikliklari va murakkabligi tufayli qiyin kechadi. O'zbek tilshunosligida 90-yillarning boshiga kelib o'z yo'nalishiga ega bo'lgan mazmuniy sintaksisda ham bog'lovchisiz qo'shma gaplar xususida fikr yuritilmaydi.

An'anaviy sintaktik nazariyalarda bog'lovchisiz qo'shma gaplar turlicha ta'riflandi. G'.Abdurahmonov bu turdagi qo'shma gaplarga quyidagicha ta'rif beradi: «Sodda gaplarning bog'lovchi yoki bog'lovchi vositalar yordamisiz, mazmunan birikishidan tashkil topgan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar deb ataladi».

Ta'rifdan anglashiladiki, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari hech qanday grammatik vositasiz bog'lanadi. Biroq olim fikrini davom ettirib, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining ohang yordamida bog'lanishini qayd etadi.

Rus tilshunosligida A.A.Potebnya ko'p ma'nolarni, xususan tobe ma'noli qo'shma gaplarni bog'lovchisiz ham yetkazish mumkin deb hisoblaydi. A.M.Peshkovskiy bunday gaplarni alohida guruhga ajratishni taklif etadi. *Назвался груздем – полезай в кузов* hamda *Семь раз примерь, один раз отрежь* gaplaridagi ohangni tahlil qila turib A.M.Peshkovskiy bunday bog'lanishlarni bog'langan va ergashgan tiplarga bo'lish va umuman qo'shma gaplarga nisbatan nodifferentsial deb hisoblash to'g'ri emas degan xulosaga kelgan.

Taxminan 50-yillarda bog'lovchisiz qo'shma gaplarni qo'shma gaplarning alohida bir turi sifatida qarash tez-tez ko'zga ko'rina boshladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap tipi tasnifidagi bunday yondashuv N.S.Pospelova, V.A. Beloshapkovalarning ishlarida ko'rinadi.

O'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonovning 1996-yilda nashrda chiqqan «O'zbek tili grammatikasi» deb nomlangan darsligida ham bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning o'zaro tobe yoki teng bog'lovchisiz birikishi ko'rsatilsa-da, bunday qo'shma gaplarning tuzilishidagi asosiy vositalardan biri ohang deb ko'rsatiladi.

M.Asqarova ham «qo'shma gap komponentlari bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik vositalar va nisbiy so'zlarsiz ritmik-

intonatsiya orqali bir-biriga birikib, sintaktik butunlikni – bog‘lovchisiz qo‘shma gapni tashkil etishi»ni bayon qiladi.

Anglashiladiki, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining ohang yordamida birikuvidan tashkil topgan alohida tur hisoblanadi.

O‘zbek va rus tillarida bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarning qiyosiy o‘rganilishi. O‘zbek va rus tillaridagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni qiyosiy birinchi bor va bugungi kungacha yagona tahlil qilingan kitob O.Azizov(lar)ning “O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi” hisoblanadi. Unda quyidagilar o‘z aksini topadi.

Sodda gaplar intonatsiya vositasi bilangina o‘zaro bog‘lanib kelsa, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar (бессоюзные сложные предложения) hosil bo‘ladi. Masalan: *Havo bulut, achchiq yel to‘rt tomonga yugurar, onda-sonda qor uchqunlarini quvlab ziriqtirar edi.* (A.Qodiriy) - *Небо покрылось тучами, дул резкий холодный ветер, в воздухе беспорядочно кружились снежинки. Павел сидел рядом с Наташей; он был красивее всех.* (М.Горький) – *Pavel Natashaning yonida o‘tirar edi; u hammadan chiroyli edi.*

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi komponentlarning o‘zaro fikriy va grammatik munosabati har ikki tilda ham asosan bir xildir: undagi sodda gaplar biriktiruv, zidlov munosabatlarini bildirganidek, qo‘shma gapdagi keyingi komponent oldingisida ifodalangan harakat yo‘holatning sababaini, yoki natijasini anglatib yohud to‘ldirib keladi.

O‘zbekcha misollar:

1. *Bir xonada sinov tugay deb qoldi, ikkinchi xonada endi imtihon boshlandi.* (ikki gap o‘zaro teng birikib kelgan)

2. *Jismimiz yo‘qolur, o‘chmas nomimiz* (H.Olimjon) (mazmunan zid gaplar bog‘lanib kelgan).

3. *Chol ko‘p yurolmadi: oyoqlari sarchab qoldi.* (ikkinchi gap oldingi gapdagi harakatning sababini izohlab kelgan)

4. *Ra‘no qunt bilan berilib o‘qidi, uning nomi butun institutga mashhur bo‘ldi.* (Ikkinchi gap birinchi gapdagi harakatning natijasini izohlab kelgan.)

5. *Men tushunaman, siz yolg‘on so‘zlamaysiz* (Ikkinchi gap birinchi gapni to‘ldirish yo‘li bilan izohlab kelgan)

Ruscha misollar:

1. *Ночь была тёплая, от речки низом шла прохлада...* (М.Шолохов) (ikki gap o‘zaro bog‘langan)

2. *Чин следовал ему – он службу вдруг оставил* (Грибоебов) (Bir gapning mazmuni ikkinchisiga zid qo‘yilgan)

3. *Я закрыл глаза: утро закончилось.* (Л.Толстой) (ikkinchi gap birinchi gapning sababini izohlagan)

4. *Мы контролировали ход работы, все в порядке.* (Ikkinchi gap birinchi gapdagi harakatning natijasini izohlagan)

5. *Вдруг вижу: Коновалов бесшумно поднимается с пола.* (М.Горький) (Ikkinchi gap birinchi gapning mazmunini to'ldirib kelgan.)

O'zbek va rus tillarida bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (сложные предложения с сочинением и подчинением) ham mavjud. Bunday tipdagi qo'shma gap kamida uch sodda gapdan iborat bo'lib, ikkitasi o'zaro teng vaziyatda bog'langan, uchinchi esa mazmunan bularning biriga yoki har ikkisiga ergashgan bo'ladi. Masalan: *Agar yaxshilab mehnat qilinsa, yuqori hosil olish mumkin, bu esa farovonlikni ta'min etadi.* – *Если хорошенько трудиться, то станет возможным получения высокого урожая, а это приведет к изобилию. Yotoqxonalar bo'shab qoldi, talabalar uylariga jo'nay boshladilar, chunki yozgi kanikul boshlandi.* – *Обишжития пустеют, студенты разъезжаются по домам, потому что начались летние каникулы.*

Avvalgi misolda birinchi gap ikkinchi gapga ergashgan, ikkinchi va uchinchi gaplar esa o'zaro bog'langan; keyini misolda birinchi, ikkinchi gaplar o'zaro bog'langan, uchinchi gap ularga ergashib kelgan. Birinchi misolda bosh gaplar o'zaro esa, a bog'lovchisi bilan, ergash gap *agar, -sa, если* orqali bog'langan bo'lsa, ikkinchi misolda bosh gaplar o'zaro intonatsiya bilan, ergash gap *chunki, потому что* bog'lovchisi orqali bog'langandir.²⁶

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar sintaktik tuzilishi, qismlari orasida shakllangan mazmuniy munosabat va aloqa turiga ko'ra bog'langan va ergashgan qo'shma gaplardan farqlanadi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining sintaktik tuzilishi jihatdan ham ajralib turadi. Uning tarkibiy qismlari ko'pincha darak gap shaklida, ba'zan biri yoki har ikki qismi so'roq gap shaklida tuziladi. Masalan: *Yoz keldi – balo keldi.* (Maqol.) *Chekinsinmi – yo'q, g'ururi yo'l qo'ymadi.* (O.)

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tasnifi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zbek tilida nafaqat ikki tarkibli sodda gaplardan, balki qismlaridan biri yoki har ikkisi bir tarkibli sodda gaplardan, to'liqsiz gaplardan tashkil topishi mumkin. Masalan:

²⁶ Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси (қисқа курс). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

1. *Eshakni yaydoq minib bo‘lmaydi – yiqitadi kishini.* (A.Q.) Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gapning birinchi qismi shaxssiz gapdan tashkil topgan.

2. *Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.* (Maqol.) Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari to‘liqsiz gaplardan tashkil topgan.

Rus tilida shartlanganlik xususiyatiga ko‘ra bo‘linish bor: 1) bo‘laklari struktur jihatdan shartlangan gaplar va 2) bo‘laklari struktur jihatdan shartlanmagan gaplar.

Birinchi guruhdagi gaplarda bo‘laklarni bog‘lovchi struktur ko‘rsatkichlar mavjud bo‘ladi. Ular:

1. *так, таков, как, что* kabi so‘zlari, ba‘zan ular *ёm* yuklamasi bilan birga kelishi mumkin;

2. ergash gapda bosh gapdagi ot so‘z turkumining mazmuni yoritiladi;

3. ergash gapda olmosh so‘zlari (ba‘zan *ёm* yuklamasi bilan birga) qo‘llaniladi, ular o‘ziga xos leksik ishora bo‘lib, bosh gapdagi gap bo‘laklari bilan leksik jihatdan muvofiqlashadi;

4. bosh gapning sintaktik pozitsiyasi tayinlanmagan bo‘lishi mumkin, funksional jihatdan ergash gap bilan to‘ldiriladi.

Ikkinchi guruh maxsus struktur ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmaydi. Ular:

1. bir xil gaplar (sanash va qiyosiy-zidlov munosabat ifodalangan) tipdagi komponentlardan iborat bog‘lovchisiz;

2. bir xil tipda bo‘lmagan (o‘zaro tobe munosabati ifodalangan) komponentli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardir.

O‘zbek tilida mavjud ilmiy manbalarda bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro mazmun munosabati ham tahlil etiladi. G‘.Abdurahmonovning ko‘rsatishicha, bu turdagi qo‘shma gaplarda quyidagi mazmuniy munosabatlar aks etadi:

1. Ma‘lum harakat, holat yoki xususiyat bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradi. Masalan: *Orzigul darvozadan ichkari kirdi, darvoza o‘z-o‘zidan bekildi.* (I.)

2. Ma‘lum harakat, holat yoki xususiyat bir-biriga zid qo‘yiladi yoki qiyoslanadi. Masalan: *It huradi – karvon o‘tadi.* (Maqol.)

3. Qo‘shma gapni tashkil etgan gaplarning biri ikkinchisini izohlaydi. Masalan: *Qo‘shning tinch – sen tinch.* (Maqol.)

Har ikki tilda ham ma‘no munosabatiga ko‘ra ohang bog‘lovchi vosita ekan, ularning bu jihatdan turlari o‘xshash bo‘lishi tabiiy. Masalan, rus tilida

1. **Sanash ohangi:** *Знойный день, тишина; Жизнь застыла в светлом покое, небо лаского смотрит на землю голубым ясным окном, солнце – огненный зрачок его;*

2. **Shartlaganlik ohangi:** *Пролетит чайки, лениво махая крыльями, - вода покажет другую птицу, белее и красивее той, что в воздухе;*

3. **Zidlov ohangi:** *Лето припасает – зима поедает;*

4. **Izohlash ohangi:** *Теперь им предстояло самое трудное: они должны были покинуть товарища...*

5. **Ogohlantirish ohangi (bosh bo‘lakda) va biriktiruvchi, qo‘shimcha axborot ohanggi (ergash bo‘lakda):** *Я поднял голову: перед огнем, на опрокинутой кадке, сидела мельничиха...*

M.Asqarova bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning mazmuniy tasnifiga o‘zgacha yondashadi. Olima «Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar» (1960-y.) nomli asarida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tarkibiy qismlarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra ikkiga ajratadi:

1. Bir xil tipdagi komponentlarning birikuvidan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

2. Ikki xil tipdagi komponentlarning birikuvidan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

Bir xil tipdagi komponentlarning birikuvidan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda bir vaqtda yoki turli vaqtda yuzaga chiqadigan voqelik aks etadi. Bunday tuzilishdagi gaplarda chog‘ishtirish, taqqoslash, zidlik munosabati ifodalanadi. Masalan: *Hamma chuqur xo‘rsindi, Anorxon piq-piq yig‘ladi. (O.) To‘g‘ri til toshni yoradi, egri til boshni yoradi. (Maqol.) Qilich yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi. (Maqol.) Biz osh emadik, osh bizni edi. (O.)*

Ikki xil tipdagi komponentlarning birikuvidan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda shart, sabab yoki natija munosabati, oldingi qismning izohi kabilar ifodalanadi. Qiyoslang:

1. Shart mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: *To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. (Maqol.)*

2. To‘siqsizlik mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: *It huradi – karvon o‘tadi. (Maqol.)*

3. Sabab yoki natija mazmunini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: *Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozi. (Maqol.)*

4. Oldingi qismning izohini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: *Umidim shu: kelsin u tezroq. (Islom shoir.)*

G‘.Abdurahmonov bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ularda aks etgan mazmuniy munosabatlarda asosida ham o‘rganadi. Olim bu jihatdan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni uch turga ajratadi. Bular quyidagilar:

1. Payt munosabatini ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

2. Qiyoslash munosabatini ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

3. Izohlash munosabatini ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

Payt munosabatini ifodalaydigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar ma’lum bir paytda ro‘y beradigan voqelikni aks ettiruvchi qo‘shma gaplardan tashkil topadi. Bunday gaplarda voqelik, belgi-xususiyatning bir paytda, birgalikda yoki ketma-ket ro‘y berishi ifodalanadi. Masalan: *Sabriya xola uxlab yotgan olmosni ko‘tarib oldi, Gulnoz Niyozni etaklab yo‘lga tushdi.* (M.Ibr.)

Anglashiladiki, payt munosabatini ifodalaydigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning tarkibiy qismlari biri ikkinchisiga tobe bo‘lmaydi, ular umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Payt munosabatiga kirishgan qo‘shma gaplarning muhim belgilaridan biri ohangdir. Bu xil gaplarda tarkibiy qismlar sanash ohangi bilan talaffuz etiladi.

Rus tilida bunday gaplar alohida ajratilmaydi. Biroq bunday munosabat rus tilida yo‘q emas. Faqat bu jihat tasnif bo‘lmagan xolos.

Qiyoslash munosabatini ifodalaydigan qo‘shma gaplarda qismlardan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi. Masalan: *Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod.* (Maqol.)

Qo‘shma gap qismlari orqali ifodalangan voqea, hodisalarni qiyoslashdan maqsad ularning farqini ko‘rsatish, o‘xshash belgilarini aniqlashdir. Qiyos munosabatini aks ettiruvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda zidlik munosabati, chog‘ishtirish, qiyoslash mazmuniy munosabatlari aks etadi. Qiyoslang: 1. Qiyos munosabati: *Toma-toma ko‘l bo‘lur, hech tommasa, cho‘l bo‘lur.* (Maqol.) 2. Zidlik munosabati: *Bir odam ariq ochadi, ko‘p odam suv ichadi.* (Maqol.)

Rus tilida bunday gaplar zidlov ohangi bilan yuzaga keladi (*Лето наступило – зима не дает*). Ammo alohida tur sifatida ajratilmagan.

Izohlash munosabatini ifodalaydigan qo‘shma gaplar tarkibiy qismlari orasida izohlash munosabati shakllanadi, ya’ni bir tarkibiy qism ikkinchi qismni yoki uning biror bo‘lagini izohlab, to‘ldirib keladi. Masalan: *Biz yetib keldik –kutubxona ochildi.*

Rus tilida izohlash ohangi orqali bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarning izohlash munosabati yuzaga chiqadi (*Теперь им предстояло самое трудное: они должны были покинуть товарища...*).

G‘.Abdurahmonovning qayd etishicha, o‘zbek tilida izohlash munosabatini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar 3 xil ko‘rinishga ega bo‘ladi:

1. Qo‘shma gapning birinchi qismi ikkinchi qismdan anglashilgan voqea-hodisaning bajarilish *sharti, payti, sababi, natijasi, holati* kabilarni

anglatadi. Bunday bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda quyidagi mazmuniy munosabat yuzaga chiqadi:

a) shart-payt munosabati: *Davlat tinch – xalq tinch.* (Maqol.)

b) sabab-natija munosabati: *Seni ko‘rdim, o‘ynadi yurak, Bulbul kabi sayradi tilim.* (U.)

v) o‘xshatish munosabati: *Qo‘shni keldi – ko‘mak keldi.* (Maqol.)

2. Qismlarning biri ikkinchisini izohlovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Bunda ikkinchi qism birinchi qism tarkibidagi ayrim gap bo‘laklarining ma‘nosini izohlaydi. Masalan: *Shuni yaxshi biling: o‘chmas nomingiz, o‘chmas bu bog‘larda bosgan izingiz.* (T.T.)

3. Ikkinchi qismi umumiy izoh bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Bunday tuzilishdagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi qism birinchi qismning umumiy mazmuniga izoh beradi yoki birinchi qismda ifodalangan mazmunga muallifning munosabatini aks ettiradi. Masalan: *Itlar, - dedi otliq o‘z-o‘ziga, - xuddi amirning odamlariday, tegmasang ham senga yopishib, joningdan bezor qiladi.* (S.A.)

Misollar tahlilidan anglashiladiki, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar nafaqat sintaktik tuzilishi, balki tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabat asosida ham gapning boshqa turlaridan farqlanadi.

Shuni qayd etish lozimki, M.Asqarova A.G‘ulomov bilan hamkorlikda yozgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (1965-y.) darsligida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni qismlarining o‘zaro mazmun munosabatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘ladi: 1. Bog‘langan qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. 2. Ergashgan qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

Bog‘langan qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiy qismlari tenglik asosida bog‘lanadi va bu jihatdan bog‘langan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘la oladi. Qiyoslang: *Oyda dog‘ bo‘lsa bo‘lar, siz bilan bizda bo‘lmasin.* (U.)// *Oyda dog‘ bo‘lsa bo‘lar, ammo siz bilan bizda bo‘lmasin.*

Ergashgan qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tarkibiy qismlar tobelanish asosida bog‘lanadi. Qiyoslang: *Qo‘rqitmay o‘stirdim- botir bo‘ldingiz.* (Maqol.)// *Qo‘rqitmay o‘stirdim, shu sababli botir bo‘ldingiz.*

Misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar bilan sinonimik munosabatga kirishuvda qismlari orasidagi aloqa turi hamda bog‘lovchi vositalarning mavjud yoki mavjud emasligi asos qilib olinadi.

IV BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA MURAKKAB QO‘SHMA GAP

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR

O‘zbek va rus tillarining murakkab qo‘shma gaplari haqida. Sintaksisda, ayniqsa, nazariy tadqiqotlarda, odatda, qo‘shma gaplar tarkibidagi gap bo‘laklarining minimal sonli tipik konstruktsiyalari tez-tez ko‘zga tashlanadi. Bu tamoman asosli, chunki, aynan shu konstruktsiyalar til strukturasi printsiplari hodisasi va qo‘shma gaplarning grammatik ma‘nosi xususiyatiga material bo‘la oladi. Ya‘ni, aynan shu konstruktsiyalarda qo‘shma gaplarning grammatik tabiati tilda alohida struktur birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq nutq voqeligida minimal konstruktsiyalardan ko‘ra kombinatsion gaplar keng yoyilgan. Shuning uchun, bunday tuzilishni tadqiq etish o‘ta maqsadli hisoblanadi. Buning ustiga, bunday kombinatsiya qismlari o‘zining semantik-struktur qoidalariga ega. Rus tilida ham o‘zbek tilida ham, bu materiallar faqat oliy ta‘limning kitob va qo‘llanmalarida, shuningdek, ayrim nazariy plandagi ishlarda o‘z aksini topgan. Bu sintaktik birliklar rus tilida murakkablashgan tipdagi bir necha bo‘lakli qo‘shma gaplar (многочленные), murakkab sintaktik konstruktsiyalar (сложные синтаксические конструкции), aralash konstruktsiyali qo‘shma gaplar (сложные предложения смешанной конструкции), bog‘langan va ergashgan gap bilan tuzilgan qo‘shma gaplar (сложные предложения с сочинением и подчинением), turli aloqa ko‘rinishlari bilan tuzilgan qo‘shma gaplar (сложные предложения с разными видами связи).

Rus tilida hamda o‘zbek tilining an‘anaviy sintaktik ta‘limotda qo‘shma gaplar qismlarining miqdoriga ko‘ra **ikki** va **ko‘p komponentli qo‘shma gaplarga** ajratiladi. Ilmiy manbalarda ko‘p komponentli qo‘shma gaplar murakkab qo‘shma gaplar deb ham yuritiladi.

Ikki komponentli qo‘shma gaplar ikki sodda gapning tenglanish yoki tobelanish asosida bog‘lanishidan tashkil topsa, murakkab qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining miqdori hamda uch va undan ortiq bog‘lanish usuli (tenglanish, tobelanish, aralash usul) asosida shakllanishi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang:

1. Ikki komponentli qo‘shma gap: *Uning ham ko‘zi qattiq, ham tili tez edi.* (O.)

2. Murakkab qo‘shma gap (ko‘p komponentli qo‘shma gap): *O‘tar kunlar, kechar yillar, yurakda muttasil xanda.* (G‘.G‘.)

N.S.Valgina o‘zining “Синтаксис современного русского языка”²⁷ darsligida bu “многoкoмпoнeнтныe”, “многoчлeнныe” terminlari hodisaniq faqat tashqi tomonini, faqat miqdorini ko‘rsatishini aytadi. Muhimrog‘i, uning fikricha, struktur-grammatik belgilari, albatta: bo‘laklar aro sintaktik aloqa xususiyati (bir tipli va bir tipli bo‘lmagan aloqa); ularniq struktur-semantik uyushiqqligi va uyushmaganligi; murakkab konstruktsiya koмпoнeнтlari niq semantik yo‘yiqlik (расчлeнeннoсь) darajasi; gapniq umumiy struktur sxemasi hisoblanadi.

Murakkab qo‘shma gaplar sintaktik tuzilishi, qismlarini bog‘lovchi vositalariga ko‘ra bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga o‘xshaydi. Ular faqat bo‘laklar o‘rtasidagi sintaktik aloqaniq xususiyati bilan ajratib turadi. Rus tilida bir tipdagi sintaktik aloqa bilan bog‘langan gaplar *многoчлeнныe слoжныe пpeдлoжeния*, turli tipdagi sintaktik aloqa bilan bog‘langan gaplar esa *слoжныe синтаксичeскиe кoнстpукции* deb nomlanadi.

Bir necha bo‘lakli qo‘shma gaplar (многoчлeнныe слoжныe пpeдлoжeния) bir xil tipdagi aloqa bilan bog‘langan qo‘shma gaplar sanaladi. Bular faqat bog‘langan, faqat ergashgan yoki faqat bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarna iborat murakkab qo‘shma gaplardir.

Murakkab sintaktik konstruktsiyalar (слoжныe синтаксичeскиe кoнстpукции) turli tipdagi sintaktik aloqa bilan bog‘langan gaplardir. Bunday gaplar nutqda keng tarqalgan bo‘lib, turli funksional uslubdagi asarlarda tez-tez qo‘llanib ham turadi.

O‘zbek tilida bu belgilari asosida M.Asqarova murakkab qo‘shma gaplarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Bog‘lanish (tenglanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.

2. Ergashish (tobelanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar. (Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar)

3. Bog‘lanish va ergashish yo‘li bilan tuzilgan (aralash tur) murakkab qo‘shma gaplar.

G‘.Abdurahmonov esa murakkab qo‘shma gaplarni quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar. (Ketma-ket yoki birgalik ergashuv asosida tuzilgan tur)

2. Aralash turli bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar. (Ketma-ket va birgalik ergashuv asosida tuzilgan tur)

²⁷ Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка: учебник. - М.: Агар, 2000. 416 с. 10000 экз. Elektron nashri: <http://www.hi-edu.ru/e-books/xbook089/01/about.htm>

3. Ergashgan-bog‘langan qo‘shma gaplar. (Ergashgan va bog‘langan qo‘shma gaplardan tuzilgan tur)

4. Period. (Ergashgan, bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan tuzilgan tur)

Har ikki tilda ham har birining o‘z tarkibiy bo‘linishlari, sxemasi, struktur semantik xususatlari bor. Har biri alohida katta mavzu bo‘lishga loyiq jihatlariga ega. Farq shundaki, o‘zbek tilida bog‘langan, ergashgan va aralash turdagi gaplar bitta paradigmada, rus tilida esa bog‘lanish, ergashish yo‘li bilan bog‘langan va bog‘lovchisiz ergash gapli murakkab gaplarning turlari bir guruh, aralash turdagi murakkab qo‘shma gaplar o‘z ichida turli ko‘rinishlari bilan alohida guruh sifatida o‘rganiladi.

Murakkab qo‘shma gaplarning ikki tildagi dastlabki qiyosiy tipologiyasi – O.Azizov(lar) tahlili. O.Azizov bilan hammualliflarining bizga qoldirgan merosi beqiyos. Ular bunday gaplarni tarjima usuli bilan tahlil qiladilar. Tilning mohiyati, grammatik jihati muayyan darajada oydinlashadi va kelgusi tadqiqotlar uchun kichik material vazifasini o‘taydi. Quyida bu material bilan tanishamiz.

Ikki va undan ortiq ergash gapli qo‘shma gaplar ham mavjud. Bunday qo‘shma gapga bir necha ergash gapli qo‘shma gap (сложное предложение с несколькими придаточными предложениями) deyiladi; har xil so‘roqqa javob bo‘lib, bosh gapdagi bo‘lakni turli tomondan izohlasa, uyushgan ergash gaplar (неоднородные придаточные предложения) deyiladi. Misollar:

O‘zbek tilida	Rus tilida
<i>Bahor kelsa, gullar ochilsa, bu joylar ajoyib gulistonga aylanadi.</i> Bu misolda ikkita shart ergash gap bosh gapning kesimini izohlab, uyushib kelgan.	<i>Ополченцы принесли князя Андрея к лесу, где стояли фуры и где перевязочный пункт (Л.Толстой).</i> Bu misolda ikkita o‘rin ergash gap (придаточные предложения места) bosh gapning kesimini izohlab, uyushib kelgan.
<i>Tush paytlari qum qizigach, agar salgina shamol tursa, darhol gaprsel uyg‘onadi.</i> Bu misolda birinchi komponent (payt ergash gap) ikkinchi komponentga (shart ergash gapga) ergashib kelgan; ergash gaplarning	<i>Как ни счастлив был Петя, но ему все-таки грустно было идти домой и знать, что все наслаждение этого дня кончилось (Л.Толстой).</i> Bu misolda birinchi komponent to‘siqsiz ergash gap, ikkinchisi bosh gap, uchinchi komponent esa to‘ldiruvchi ergash gap bo‘lib, bu ergash gaplar bosh gapning ikki

biri ikkinchisini izohlagani uchun ketma-ket bog‘lanib, keyin bosh gapga bog‘langan (uyushmagan ergash gaplar)	tomonidan bog‘lanib kelgan uyushmagan ergash gaplardir.
--	---

Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarning xususiyatlari, ularning ko‘rinishlari o‘zbek va rus tillarida asosan bir xil, buni yuqoridagi misollar ko‘rsatib turibdi. Lekin shu narsani aytish kerakki, rus tilining bir necha ergash gapli qo‘shma gaplari har vaqt ham o‘zbek tilining bir necha ergash gapli qo‘shma gaplariga mos kelmaydi; ko‘pincha yo ergash gapli qo‘shma gapga, yoki sodda gapga mos keladi. Bu hol ikki tilning sintaktik strukturasi, aniqrog‘i ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turi va sostavi bilan izohlanadi. Misol uchun M.Gorkiyning “Ona” (“Мать”) romanidan bir qo‘shma gapni olib, shu kitobning o‘zbekcha tarjimasidan keltirilgan xuddi shu gap bilan solishtirib ko‘raylik:

Originalda: *Когда телега двумя её сундуками выехала из слободки в поле, она обернувшись назад, вдруг почувствовала, что навсегда бросает место, где пошла темная и тяжелая полоса ее жизни, где началась другая, - полная нового горя и радости, быстро поглощавшая дни.*

Tarjimada – *Ikkita sandig‘i yuklangan arava poselkadan dalaga chiqqanida, ona orqasiga qayrilib qaradida, birdaniga hayotining qorong‘i va og‘ir kunlari o‘tgan hamda qayg‘u va shodliklar bilan to‘la bo‘lib juda tez o‘tgan, boshqacha hayot boshlagan joylarini abadiy tashlab ketayotganini sezdi.*

Originaldagi misol to‘rt ergash gapli qo‘shma gap, ya’ni bunda *где* bog‘lovchisi bilan uch payt ergash gap (придаточные предложения времени) va *что* orqali to‘ldiruvchi ergash gap (придаточное предложение дополнения) bir bosh gap (*она, обернувшись назад, вдруг почувствовала...*) ga bog‘lanib kelgan. Tarjimasida esa bosh gapga bog‘lanib kelgan birgina ergash gap bor (*Ikkita sandig‘i yuklangan arava posyolkadan dalaga chiqqanida*). Bu gapning kesimi (*chiqqanida* sifatdoshi) originaldagi birinchi ergash gapning kesimini (*выехал*), undagi o‘rin-payt kelishigining affiksi esa *когда* bog‘lovchisining ottenkasini ifodalab kelgan, qolgan bog‘lovchilar (*что, где*) o‘zbekcha tarjimada o‘z aksini topmagan.

Ruscha ergashtiruvchi bog‘lovchilar (подчинительные союзы) o‘zbekcha ergashtiruvchi bog‘lovchilar bilan aynan tarjima qilinadigan bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar ham mavjud: *Если перестанет дождь,*

хотя дороги грязные, мы будем продолжать экскурсию. – Agar yomg‘ir tinsa, garchi yo‘llar loy bo‘lsa-da, biz ekaskursiyani davom ettiramiz. Хотя концерт уже кончился, многие не покидали зал, потому что должны были начаться танцы. – Garchi kontsert tamom bo‘lgan bo‘lsa ham, ko‘plar zaldan chiqmasdilar, chunki raqs boshlanishi kerak edi.

Бог‘lanish (tenglanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar. Uch va undan ortiq, sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan tenglanish asosida birikuvidan tashkil topgan gaplar bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar deyiladi.

Бог‘lanish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar o‘zbek tilida qismlarining birikuviga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

1. Tarkibiy qismlari teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan tur. Masalan: *Sobir O‘ktamni kabinaga o‘tirishga qistadi, lekin u unamadi, ikkovlari... bosh qoplarga o‘tirdilar.* (O.)

2. Tarkibiy qismlari ohang yordamida birikkan tur. Masalan: *Ko‘p o‘tmay yana qo‘ng‘iroq jarangladi, yana hamma eshiklar ochildi, yana atrof xushchaqchaq g‘ala-g‘ovurga to‘ldi.* (P.Q.)


3. Tarkibiy qismlari teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi vositalar hamda ohang yordamida birikkan aralash tur. Masalan: *Otini bilolmadim, ammo qamishday qomati bor, husnini ta‘rif qilolmayman.* (O.)

Rus tilida esa quyidagicha tasniflanadi:

1. Bir bir xil bog‘lovchilar bilan bir necha bo‘lakli (komponentli) murakkab bog‘langan qo‘shma gaplar: *И ерзаёт руль, и обшивка трещит, и забраны в рифы полотна.*




Давно ли я сделал эту калитку в заборе, и вот уже паук, связал верхние концы решетки паутиной во много рядов, и мороз паутиное сито переделал в белое кружево.



2. Turli xil bog‘lovchilar bilan bir necha bo‘lakli (komponentli) murakkab bog‘langan qo‘shma gaplar: *Мать ехала с отцом со станции Сиверской, а мы, дети, выехали им на встречу; и, вспоминая именно это день, я с праздничной ясностью восстанавливаю родной, как собственное кровообращение, путь из нашей Выры в село Рождествено.*



С утра был туман, но к завтраку погода ружгулялась, и солнце блестело и на только что распустившейся листве, и на молодой девственной траве, и на всходах хлебов, и на ряби быстрой реки.



Ergashish (tobelanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar. Bir necha ergash gaplarning bir bosh gap bilan tobelanish asosida bog‘lanishidan tashkil topgan murakkab qo‘shma gaplar *ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar* deyiladi. O‘zbek tilida ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining sintaktik tuzilishi, ergash gap kesimlarining shakllanishi jihatidan ikki xil bo‘ladi:


1. Ergash gapning **kesimi** mustaqil fe‘llardan tashkil topib, mustaqil qo‘llana oladi. Bunday ergash gaplar bosh gapga *-ki, chunki, negaki, sababki* kabi yordamchilar orqali birikadi Masalan: *Saida mana shunday masalalar to‘g‘risida... odamlar fikrini uyyutishga harakat qildi, chunki bo‘larning har biri odamlarning zehniga, kolxoz hayotiga o‘rnashib qolgan, chunki Qalandarov nima qilgan bo‘lsa, yaxshi niyat bilan qilgan edi va xalq ham shunday deb bilgan* (A. Q.)

2. Ergash gaplarning **kesimi** fe‘l shakllari: sifatdash, ravishdosh, harakat nomi yoki fe‘lning shart mayli formasidan tashkil topadi va mustaqil qo‘llana olmaydi. Masalan: *Na ko‘kning fonari uchmasdan, Na yulduz sayr etib ko‘chmasdan,.. Tong kulmasdan burun turadi* (U.)

Rus tilida bunday tasnif yo‘q. Rus tilda ergashtiruvchi bog‘lovchilar bilan birikka murakkab gaplarning ergash gaplari uch xil bo‘ladi. Bular: 1) ***bir xil ma‘noli ergash gaplar*** – ular o‘z navbatida ikki xil ko‘rinishga ega: uyushib alohida-alohida ergashgan gaplar (однородные придаточные) va uyushib birgalikda tobe bo‘lgan (соподчинённые придаточные) ergash gaplar; 2) ***uyushmagan ergash gaplar***; 3) ***ketma-ket ergashgan gaplar***.


O‘zbek tilida ham ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap tarkibiy qismlari bosh gapga ikki xil bog‘lanadi: 1. ***Birgalik ergashish. (To‘g‘ridan-to‘g‘ri ergashish)*** 2. ***Ketma-ket ergashish.***

O‘zbek tilidagi birgalik (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) ergash gaplari rus tilidagi bir xil ma‘noli ergash gaplarning birinchi ko‘rinishi uyushib alohida-alohida ergashgan gaplarga to‘g‘ri keladi va uning sxemasi quyidagicha bo‘ladi:




O‘zbek tilida kesim, ega, aniqllovchi, to‘ldiruvchi, ravish, o‘lchov-daraja, chog‘ishtirish-o‘xshatish, sabab, maqsad, payt, o‘rin, shart, to‘siqsiz ergash gaplarning hammasi uyushib kelishi mumkin.

Rus tilida bunday ergash gaplar bir xil ma‘noli ergash gaplar tarkibiga kiritiladi. Uyushmagan ergash gaplar o‘zbek tilida alohida ko‘rinish sifatida ajratilmaydi. Rus tilida ular turli xil ma‘noli ergash gaplar qatorida saflanadi. O‘zbek tilida ular bosh gapga alohida-alohida bog‘lanishi sabab qilib ko‘rsatiladi, biroq birgalik ergashuvni tashkil qilgani uchun, uyushmagan deb ataladiyu bitta birgalik (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) ergash gaplar ichida o‘rganiladi. Masalan: *U qaytgach, ishni yo‘lga qo‘yadigan bo‘lsak, biror natija chiqar.* (So‘zl.) Rus tilida bu tipdagi gaplar alohida ko‘rinish sifatida qaraladi. Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga tobelanib, keyin bosh gapga bog‘lanishidan hosil bo‘lgan gaplar ketma-ket ergashuv yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap hisoblanadi. Bunday tuzilishdagi gaplarning qurilish chizmasi quyidagicha:




Rus tilida uyushmagan va ketma-ket ergashish yo‘li bilan bir necha ergashgan gaplar bir muncha murakkablikka ega. Ularning ergashish yo‘llari sxemasi ham o‘ziga xos. Masalan,

Uyushmagan ergash gaplar:



Ketma-ket ergashish yo‘li bilan bir necha ergashgan gaplar:



O‘zbek tilida murakkab qo‘shma gaplarda ravish, payt, shart, to‘siqsiz, maqsad ergash gaplar bosh gapga birdan ortiq holda bog‘lanib kelib, ketma-ket va birgalik bog‘lanishni hosil qiladi.

Bog‘lovchisiz bog‘langan ko‘p komponentli gaplar rus tilida bir xil tipdagi aloqa bilan bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibida o‘rganilib, o‘zbek tilida bunday tasnif bo‘lmaganligi sababli alohida o‘rganilmaydi. Rus tilida ko‘proq sanash ohangi yordamida birikkan bir necha predikativ konstruktsiyali gaplar bo‘lib, muayyan individual mualliflik tushunchasi bilan belgilanishi (*Сквозь пленку табачного дыма проглянуло лицо Сидора, губы по заячьим ежились в улыбку, глаза суетились под белесыми бровями, обрадованно и тревожно*) mumkin.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA ARALASH TURDAGI MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR




Tarkibiy qismlarining ham tenglanish, ham tobelanish munosabatidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar o‘zbek tilida **aralash turdagi murakkab qo‘shma gap**, rus tilida **сложные синтаксические конструкции** deyiladi. Rus tilida turli xil tipdagi bog‘lanish yo‘li bilan bog‘langan gaplardir. Shu bilan birga, komponentlar orasida bir xil tipdagi qo‘shma gaplar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida aralash turdagi murakkab qo‘shma gaplarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:




1. Bir ergash gap va ikki bosh gapning birikuvidan tuzilgan tur.




2. Ikki komponentli ergashgan qo'shma gap va ikki komponentli bog'langan qo'shma gapning birikuvidan tuzilgan tur.




3. Ikki ergash gap va ikki bosh gapning birikuvidan tuzilgan tur.




4. Aralash turdagi qo'shma gaplarning bir butun holda ma'lum bir gapga ergashuvidan tuzilgan tur.




5. Ikkidan ortiq ergashgan qo'shma gaplarning bog'lanish asosida birikuvidan tuzilgan tur.




6. Bir bosh gapga ham ergash gap, ham ergashgan qo'shma gapning birikuvidan tuzilgan tur.



7. Aralash qo'shma gapning ergashgan qo'shma gapga bog'lanish asosida birikuvidan tuzilgan tur.



8. Aralash qo'shma gapda ergash gaplarning undagi teng komponentlardan faqat biriga bog'lanishidan tuzilgan tur.



Rus tilida bunday tasnif biroz o'zgacha. Komponentlar orasidagi aloqaning turli kombinatsion tiplariga qarab quyidagi murakkab sintaktik konstruktsiyalarning turlari bor:

➤ Bog'lanish va ergashish bilan: *Лопатина стало клонить ко сну, и он обрадовался, когда в дверях появился шофер и доложил, что машина готова.*


➤ Bog'lanishli va bog'lovchisiz aloqa bilan: *Направление у меня в другую часть, да я от поезда отстал: дай, думаю, погляжу на свой взвод и на своего лейтенанта.*

➤ Ergashish va bog'lovchisiz aloqa bilan: *В лесу на прогулку иногда в раздумье о своей работе меня охватывает философский восторг: кажется, будто решаешь мыслимую судьбу всего человечества.*


➤ Bog'lanish, ergashish va bog'lovchisiz aloqa bilan: *Но река величаво несет свою водуб и какое ей дело до этих вьюнков: крутятся, плывут они вместе с водой, как недавно плыли льдины.*

Bundan tashqari rus tilida bunday sintaktik konstruktsiyalar bo'laklarga bo'linish darajasi bor: logik-sintaktik va struktur-sintaktik. Birinchi darajasida konstruktsiya yoki komponentning anchayin kattaroq bo'laklarga, ikkinchi darajasida teng alohida predikativ birliklarga, ya'ni murakkab gapning soddagina "qurilish elementlari"ga ajralishi nazarda tutiladi. Agar sintaktik konstruktsiyalarning bu ikki bo'laklarga bo'linish darajasini grafik ifoda etadigan bo'lsak quyidagi ko'rinishlarni tasavvur qilishimiz mumkin:


1) *Величайшая живописная сила заключена в солнечно свете, и вся серость русской природы хороша лишь потому, что является тем же солнечным светом, но приглушенным, рошедшим через слои влажого воздуха и тонкую пелену облаков.*




2) *В деле Ставраки было одно странное обстоятельство: никто не мог понять, почему он жил до самого ареста под своей настоящей фамилией, почему он не временил ее тотчас после революции.*



3) Меня всегда удивляет одно обстоятельство: мы ходим по жизни и совершенно не знаем и даже не можем себе представить, сколько величайших трагедий, прекрасных человеческих поступков, сколько горя, героизма, полостей и отчаяния происходило и присходит на любом клочке земли, где мы живем.



O‘zbek tilida bunday yondashuvli tasnif (logik yoki struktur sintaktik) mavjud emas. Chunki tilda bunday murakkab konstruktsiyalar fikr mantig‘idan uzoqlashishga, stilistik g‘alizlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun, tarjima jarayonida rus tilida keltirilgan bir abzats miqdorda keladigan bir murakkab gaplar ko‘pincha bir nechta gaplarga bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilinish holatlari uchraydi. Bunday tashqari rus tilida **контаминированные типы сложных синтаксических конструкций** deb nomlangan tur bo‘lib, ularning tarkibida butun boshli qo‘shma gaplarning o‘zaro bog‘lanishlarini kuzatish mumkin, Masalan,



Xilma-xil ko‘rinishga ega bu tipdagi gaplar tarjimada struktur jihatdan o‘zbek tilida maydalanishi kuzatiladi. Bu ikki tilning nafaqat struktur jihatdan farqli ekanligini, balki nutqiy istifoda, idrok mexanizmi, qolaversa

mantiqiy tahlil bilan bog‘liq mezonlar bilan ayricha xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAPLAR

O‘zbek va rus tillarida o‘zga gaplar tipologiyasining o‘rganilishi. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar o‘zbek tilida “o‘zga gap” mavzusi ostida o‘rganiladi. Rus tilida u “чужая речь” deb ataladi. Har ikkila tilda ham ular o‘zlashtirva va ko‘chirma gap turlariga bo‘linadi. Bu xildagi gaplarning qiyosiy tahlili, dastlab, O.Azizov (va b.) kitobida berilgan. Olimlar bu mavzuni quyidagicha yoritadi.

Boshqa birovlarining nutqi ikki yo‘l bilan beriladi:

1. Aynan, ya’ni ham mazmunan, ham formasi saqlangan holda beriladi. Bunday gap ko‘chirma gap (прямая речь) deyiladi. Masalan: *Talaba Rahim: “Men kecha imtihon topshirdim”, - dedi. – Студент Рахим сказал: «Я вчера сдал экзамен».*

2. O‘zlashtirilgan tarzda, ya’ni mazmunini saqlab, formasini biroz o‘zgartirgan holda beriladi. Bunday gap o‘zlashtirma gap (косвенная речь) deyiladi. Masalan: *Talaba Rahim kecha imtihon topshirganini aytdi. – Студент Рахим сказал, что он вчера сдал экзамен.*

O‘zbek tilida ham, rus tilida ham bu xil gaplar odatda ko‘chirma gaplar va muallif gapi (авторские слова) bilan izohlanadi, ko‘chirma gap yozuvda qo‘shirnoqqa olinadi.

Ko‘chirma gap avtor gapidan oldin, undan keyin yoki uning ikki yog‘ida kelishi mumkin. bularda tinish belgilarining ishlatilishi har ikki tilda ham bir xil. Masalan: *Navoiy aytganidek: “Kishiga ze bu ziynat hikmat va donishdur”. – Наваи провозгласил: «Знание и мудрость украшают человека».*

Muallif gapidagi so‘z tartibi har xil ekanligini ham ta’kidlab o‘tish kerak bo‘ladi. Agar muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelgan bo‘lsa, avval ega, so‘ng kesim keladi: *Maksim Gorkiy yozgan edi: “Inson – bu mag‘rur jaranglaydi”. – Максим Горький писал: “Человек – это звучит гордо”.* Agar muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin yoki ko‘chirma gapning orasida kelgan bo‘lsa, u vaqtda avval kesim, gap oxirida ega keladi: *“Inson – bu mag‘rur jaranglaydi”, deb yozgan edi M.Gorkiy. – «Человек – это звучит гордо», – писал М.Горький. “Inson, – deb yozgan edi M.Gorkiy, – bu mag‘rur jaranglaydi”. – “Человек, – писал М.Горький, – это звучит гордо”.*

Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirish bu ikki xil gap orasidagi farqni yaqqol ko‘rsatib beradi. Dastlab shu narsani ko‘rsatish kerakki, o‘zlashtirma gapda ko‘chirma gap bilan muallif gapi bir butun gap shaklida birlashadi (qo‘shirnoq ham ishlatilmaydi). Bundan tashqari, ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirishda ko‘chirma gapning fe’l kesimi har ikki tilda ham o‘zgaradi: o‘zbek tilida harakat nomiga o‘tadi va *-i+ni* affikslari qo‘shiladi yoki *-gan* formasidagi sifatdoşga o‘tadi va *-lig+i+ni* affikslari qo‘shiladi (demak, to‘ldiruvchiga aylanadi); rus tilida fe’l kesim saqlanadi, lekin 1- va 2-shaxs formasidan 3-shaxs formasiga o‘tadi; 1- va 2-shaxs olmoshlari ham 3-shaxs olmoshi bilan alashadi:

Ко‘chirma gap (прямая речь)	О‘zlashtirma gap (косвенная речь)
<i>“Men sportni sevaman”, – dedi Komil. “Я люблю спорт”, – сказал Камил.</i>	<i>Komil sportni sevishini aytdi. – Камил сказал, что он любит спорт.</i>
<i>Men o‘rtog‘imdan: “Sen qaysi institutda o‘qiyapsan?” – deb so‘radim. – Я спросил товарища: «В каком институте ты учишься?»</i>	<i>Men o‘rtog‘imdan uning qaysi institutda o‘qiyotganligini so‘radim. – Я спросил товарища: в каком институте он учится.</i>
<i>Bir turistlardan: “biror qiziq narsa aytib beringiz”, - deb so‘radik. – Мы попросили туристов: “Расскажите что-нибудь интересное”.</i>	<i>Biz turistlardan biror qiziq narsa aytib berishlarini so‘radik. Мы попросили туристов рассказать что нибудь интересное.</i>

Eslatma: ruscha ko‘chirma gapning kesimi buyruq formasidagi fe’l bo‘lsa, o‘zlashtirma gapda u infinitiv bilan almashadi. (keyingi ruscha misolga qarang.)

Har ikki tilda ham ko‘chirma gap bilan muallif gapi bigalikda qo‘shma gapni tashkil qiladi. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirganimizda, ular o‘zbek tilida sodda gapga, rus tilida esa to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapga o‘tadi. (Yuqoridagi eslatmada ko‘rsatilgan ruscha o‘zlashtirma gap bundan mustasnodir.)

O‘zga gapning o‘zbek va rus tillaridagi tasnifiy belgilari. “O‘zga gap” grammatik atama sifatida odatdagi o‘z lug‘aviy (boshqa, o‘ziniki bo‘lmagan) ma’nosidan farq qiladi. Bu atama muallif bayonigacha iste’molda, aloqa-aralashuvda bo‘lgan va ikkinchi marta qayta

qo‘llanilayotgan barcha turdagi gaplarni anglatadi. Shu sababli o‘zga gap vazifasida nafaqat boshqalarning gapi, hatto muallifning o‘zi tomonidan ilgari aytilgan gapi ham qo‘llana oladi. Hatto qushlar, hayvonlar, ba‘zi predmetlarning tovushi yoki ularga qilingan muomala ham o‘zganing gapi holda bayon etilishi mumkin. Masalan, “ - *Bu yoqda nima qilib yuribsiz? - dedim*” (A.Q.) gapida o‘zganing gapi muallifning ilgari aytilgan gapini ifoda etsa, “*Faqat buxgalteriya joylashgan xonadan cho‘t tovushi eshitilar edi: “shaq-shuq”*” (O.) gapida o‘zga gap predmetning tovushini aks ettiradi.

Rus tilida o‘zganing gapi o‘zlashtirilganda uncha katta farq bermaydi. Semantik-struktur jihatdan o‘zganing gapi ko‘pincha o‘z holicha qoladi, masalan, *Давыдов перевел глаза на меня и сказал глухо: “Не я один отдал жизнь пустыне” – Давыдов перевел глаза на меня и сказал глухо, что не он один отдал жизнь пустыне.* Bu yerda *я он* olmoshiga almashgan. Ko‘chirma gap o‘zganing gapini qanday shaklda yetkazayotgan bo‘lsa, o‘zlashtirma gap ham so‘zma so‘z yetkaza oladi, faqat u mastaqil qo‘llanmaydi xolos. *Он спросил: «Скоро ли приедет отец?» – Он спросил, скоро ли приедет отец.*

O‘zga gap, ya‘ni ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni ifoda etishda yana bir o‘ziga xos shakl paydo bo‘ladi, u rus tilida ***o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap*** (несобственно-прямая речь) deb nomlanadi. Masalan, *Угрюмый день без солнца, без мороза. Снег на земле за ночь растаял, лежал только на крышах тонким слоем. Серое небо. Лужи. Какие там санки: противно даже выйти во двор.* Bu yerda o‘zga gap so‘zma-so‘z keltirilgan, lekin uni olib kiruvchi so‘z yo‘q, u muallif gapida shaklan ajratilmagan.

O‘zbek tilida ham o‘zga gapli qurilmalarning, asosan, ***ko‘chirma gap, o‘ziniki bo‘lmagan o‘zga gap va o‘zlashtirma gap***dan iborat ko‘rinishlari farqlanadi. Tilshunos olim A.Abdullayev bu turga qo‘shimcha tarzda ***tematik, bilateral, chog‘ishtirma va aralash*** turdagi o‘zga gaplarni ham ko‘rsatadi. O‘zga gapning qayd etilgan har bir ko‘rinishi o‘zganing gapini bayon etish xarakteri hamda sintaktik vazifasiga ko‘ra farqlanadi.

Ko‘chirma gapli qurilmalarda o‘zganing gapi hech o‘zgarishsiz aynan beriladi. Masalan, “*Yashang, oshpaz!*” – *kinoya bilan qichqirdi O‘ktam*» (O.) gapida “*Yashang, oshpaz!*” gapi o‘zganing gapi hisoblanadi.

O‘zlashtirma gapli qurilmalarda o‘zganing gapi grammatik jihatdan o‘zgartirilib, mazmuni saqlangan holda bayon etiladi. Masalan: *O‘ktam qanday yangiliklar borligini so‘radi.* (O.)

Tematik o'zga gapli qurilmalarda o'zganing gapi aks etmaydi, faqat uning nima yoki kim to'g'risida gapirganligi bayon qilinadi. Masalan: *U menga hamshahari haqida so'zlab berdi.* (So'zl.)

Chog'ishtirma o'zga gapli qurilmalarda o'zga gap so'zlovchining o'z gapi bilan qorishib ketadi. So'zlovchi o'z mulohazasini bayon qilishda o'zganing gapiga asoslanadi. O'zga gap egasi ko'rsatilishiga qaramay, bu gap muallif gapidek bayon qilinadi. Masalan: *Ustoz Alisher Navoiy aytganidek, ilm olmoq igna bilan quduq qazishga tengdir.*

Bilateral o'zga gapli qurilmalarda so'zlovchi o'zganing gapini bayon qilmaydi, balki uning o'rnida o'zi o'ylaydi yoki gapiradi. Shu sababli bunday gaplarda muallif va o'zganing gapini ajratish qiyin kechadi. Masalan: *Bir narsa Oyshaxonni iztirobga soldi. Sattor Oyshaxon bilan yashayotganidan baxtiyormi? ... Unga osonmi bunday yashash?* (P.Q.)

M.Asqarova bilateral gaplarni "O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar" deb nomlaydi. A.Abdullayevning fikricha "o'ziniki bo'lmagan gap" atamasi rus tilidagi "несобственная прямая речь" atamasiga muvofiq emas, shu sababli bu turdagi gaplarning ham muallif, ham personajga taalluqli ekanligi hisobga olinsa, bilateral (ikki tomonlama) atamasining qo'llanishi to'g'ri bo'ladi.

Aralash o'zga gapli qurilmalar. Bunday qurilmalarda o'zganing gapi ham ko'chirma gap, ham o'zlashtirma gap holida bir gapda beriladi. Masalan: *U qizning salom aytganligini, "Tez orada yana kelaman" deganini eslatdi.*

Rus tilida bunday chuqur tasnif mavjud emas. O'zbek tilida ham ana shu qolip asosida ananaviy grammatikada o'zga gapli qurilmalarning, rus tili grammatikasiga monand ravishda, 3 turi qayd etiladi:

1. Ko'chirma gap.
2. O'ziniki bo'lmagan o'zga gap.
3. O'zlashtirma gap.

Ko'chirma gap. O'zganing gapi semantik, leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlari saqlanib qolib, muallif gapi bilan birga ifodalansa, ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gaplar muallif gapi bilan qo'llanadi. Muallif gapi ko'chirma gapning nimga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Ko'chirma gap bir so'zdan, bir gap yoki butun bir matn ko'rinishidan iborat bo'lishi mumkin. Muallif gapi esa ko'pincha ikki bosh bo'lakli gaplardan tashkil topadi.

Rus tilida bunday gaplar 1) o'zga shaxsning gapini (masalan, *Пораженный, он спрашивал: «Но зачем же вы ходите на мои лекции?»*); 2) muallifning o'z gapini (masalan: *Я говорю: «Что ему*

надобно?»); 3) gapirilmagan fikrni (masalan, *Я только тогда выпрямился и подумал: «Зачем это отец ходит ночью по саду?»*) ifoda etadi. O‘zbek tilida bu xil tasnif alohida turlarga ajratilmaydi. Muallif o‘z fikrini ifoda etganda *dedi, aytdim, bayon etdim* kabi “gapirmoq” tushunchasi bilan bog‘liq barcha 1-shaxs birlik shaklini olgan fe’llar qo‘llaniladi. Gapirilmagan fikrda esa ilgari bayon qilingan o‘zganing gapi bilan birga hali ifoda etilmagan, o‘ylangan fikr ifodalanadi. Bunday hollarda muallif gapining kesimi *o‘yladi, dedi ichida, dedi o‘ziga-o‘zi* fe’l shakllaridan tashkil topadi.

Rus tilida ham ko‘chirma gapni o‘zga gap tarkibiga kirituvchi so‘zlar deb ataladigan guruhga *сказать, говорить, спрашивать, спросить, ответить, подумать, заметить* (“сказать” ma’nosida), *проговорить, воссоздать, закричать, обратиться, воскликнуть, прошептать, прервать, ствить* kabi fe’llar kiradi. Ko‘chirma gapni o‘zga gap tarkibiga olib kiruvchi yana maqsadli yo‘naltirilgan ifodani bildiradigan fe’llar ham bor: *упрекнуть, решить, подтвердить, согласиться, поддакнуть, посоветовать* va b. Bundan tashqari, ba’zan harakat bilan his-hayajon bir vaqtda sodir bo‘ladigan fe’llar ham qo‘llaniladi: *улыбнуться, огорчиться, удивиться, вздохнуть, обидеться, возмутиться* va h.k. bunday hollarda ko‘chirma gap yorqin emotsional bo‘yoqqa ega bo‘ladi, masalan, «*Куда же вы?» – ужаснуля Старцев; “Тоже, скажи, пожалуйста!” – усмехнулся Дымов; “Да куда едем?” – хихикнул Супругов.*

O‘zbek tilida ko‘chirma gapning kesimi fe’l, ot va boshqa turkumdagi so‘zlardan, muallif gapining kesimi esa hamma vaqt fe’llar bilan ifodalanadi. Muallif gapining kesimi vazifasida so‘zlash bilan bog‘liq nutq fe’llari (*aytmoq, gapirmoq, demoq, so‘zlamok, murojaat qilmoq*), so‘zlash bilan bog‘liq holat fe’llari (*qichqirmoq, pichirlamoq, buyurmoq, undamoq, ogohlantirmoq...*), oldingi fikr bilan bog‘liqlikni ifodalovchi nutq fe’llari (*javob bermoq, (gapini) bo‘lmoq, davom ettirmoq...*), so‘roqni ifodalovchi nutqiy fe’llar (*so‘ramoq*), muallifning his-tuyg‘ularini, kechinmalarini ifodalovchi nutq fe’llari (*do‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq, to‘ng‘illamoq...*) qo‘llanadi. Masalan: *Yigit uning otini eslay olmay: “Agronom aka!”- deb qichqirdi. (O.) Sakson ota uning gapini bo‘ldi: “Umr shomiga etsak ham, yurakda o‘timiz bor”.* (O.)

Ko‘chirma gap va muallif gapi o‘zaro birikib, murakkab sintaktik qurilmani hosil qiladi. Bunday qurilmada ko‘chirma gap va muallif gapining joylashuv tartibi muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumotlarga qaraganda til taraqqiyotining turli davrlarida ko‘chirma gap va muallif gapining o‘rinlashuv tartibi farqli bo‘lgan. Tilshunos

M.Haydarovning ko‘rsatishicha, eski o‘zbek tilida ko‘chirma gap va muallif gapining joylashish tartibi chegaralangan bo‘lib, keyinchalik adabiy tilning rivoji tufayli muallif gapining vazifasi kengayib, ko‘chirma gapni baholash xususiyati kuchayib borgan. Natijada muallif gapi bilan ko‘chirma gapning joylashuv tartibida ham o‘zgarish yuz bergan.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida ko‘chirma gap va muallif gapining, asosan, quyidagi tartibda o‘rinlashuvi qayd etiladi:

1. Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin keladi: *“Qalay, rais ko‘zini ochdimi?” – deb so‘radi Qamchi.*

2. Ko‘chirma gap muallif gapidan keyingi o‘rinda joylashadi: *Kanizak o‘ychan javob berdi: “Moskvaga borsam...”*

3. Ko‘chirma gap muallif gapining o‘rtasida joylashadi: *Sayramov cholni ikki qo‘li bilan engil, lekin samimiy ravishda quchoqlab: “Hali ko‘nglingiz g‘unchaday yosh, bilaman, ota”, - dedi.*

4. Muallif gapi ko‘chirma gapning o‘rtasida keladi: *“Albatta, boramiz, - dedi u, - bormasak bo‘lmasov”.*

Rus tilida muallif gapigi nisbatan **препозиция** (*“Говори мне о будущем”, - просила она его*), **постпозиция** (*И, когда он протянул руку ей, она, поцеловав ее горячими губами, сказала: “Прости меня, я виновато перед тобой”*) va **интерпозиция** (*И только когда он шептал: “Мама! Мама!” – ему становилось как будто легче...*) da bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari ko‘chirma gap muallif gapi bilan bo‘linishi mumkin: *Синьорина – мой постоянный оппонент, - сказал он – не заходит ли она, что в интересах дела будет лучше, если мы познакомимся ближе?»*

M.Asqarova muallif gapi va ko‘chirma gapning aralash holda kema-ket qo‘llanishini ham ko‘rsatadi. Ya‘ni: ko‘chirma gap + muallif gapi + ko‘chirma gap + muallif gapi. Masalan: *Buni ko‘rib O‘rmonjon: “Ha, demak, hovuridan tushibdi” deb o‘yladi-da, eshik oldiga borib: “Qayerda edingiz?” - deb so‘radi. (A.Q.)*

Rus tilida ko‘chirma gapning o‘rinlashuviga qarab muallif gapidagi bosh bo‘laklarning tartibi o‘zgarishi mumkin. Ko‘chirma gapni o‘zga gap tarkibiga olib kiruvchi so‘z doim uning yonida joylashadi, shunda ko‘chirma gapning oldidan kelgan muallif gapidagi fe‘l kesim egadan keyin turadi, masalan: *Кермани весело сказал: “Гора становится долиной, когда любиш!”* Agar muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin kelsa, fe‘l kesim egadan oldin turadi, masalan: *“Ты будешь архитектором, да?” – внушала и спрашивала она.*

O‘zlashtirma gap. Nutqda o‘zganing gapi o‘zlashtirma gap shaklida bayon etilishi ham mumkin. O‘zlashtirma gap faqat sintaktik tuzilishi o‘zgartirilgan, ammo semantik jihatdan o‘z qiymatini yo‘qotmagan o‘zganing gapi hisoblanadi.

O‘zlashtirma gap ko‘chirma gap asosida hosil qilinsa-da, sintaktik tuzilishi, ohangi jihatdan undan farq qiladi. Xususan, o‘zbek tilida ko‘chirma gapda keng qo‘llaniladigan *demoq* fe‘lining rang-barang ko‘rinishlari o‘zlashtirma gaplarda qo‘llanmaydi. Uning o‘rnida, asosan, *aytmoq, gapirmoq* fe‘llari ishlatiladi.

Rus tili grammatikasida o‘zlashtirma gap ko‘chirma gapning mazmunini saqlagan holda muallif tomonidan yetkazilgan o‘zga gap ergashgan gap shaklida berilsa, o‘zbek tilida ko‘chirma gap tarkibida nechta gap qo‘llanmasin, o‘zlashtirma gapga aylantirilganda sodda gap shakliga keltiriladi. O‘zlashtirma gapda muallif gapining bosh bo‘laklari saqlanadi, ko‘chirma gap esa birikmali to‘ldiruvchiga aylantiriladi. Qiyoslang: “*Uyni tozaladim*”, – *dedi qiz. Qiz uyni tozalaganini aytdi.* Rus tilida o‘zlashtirma gap har doim ergashga qo‘shma gapning bosh gapi hisoblangan muallif gapilan keyin o‘rinlashadi. Qiyoslang: “*Сейчас все перемениться*”, – *сказала дама. – Дама сказала, что сейчас все перемениться.*

O‘zbek tilida ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda uning nafaqat sintaktik tuzilishi, balki uslubiy xususiyati ham o‘zgaradi. O‘zlashtirma gapda ko‘chirma gapda qo‘llangan kirishlar, undov so‘zlar tushirib qoldiriladi. Undalma esa jo‘nalish, chiqish kelishidagi vositali to‘ldiruvchiga aylanadi. M.Asqarovaning qayd etishicha, undov gap, atov gap hamda ritorik so‘roq gaplarni o‘zlashtirma gapga deyarli aylantirib bo‘lmaydi.

Rus tilshunosligida ham o‘zga gapni o‘zlashtirilgan gap shakliga keltirish jarayonida ayrim leksik o‘zgarishlar yuz beradi. Jumladan, o‘zga gapda mavjud bo‘lgan emotsional leksik unsurlar (undov va yuklamalar), o‘zlashtirilgan gapda tushib qoladi va ular ifodalagan mazmunidagi, yana har doim ham aniq emas, balki shunga yaqin boshqa leksik vositalar qo‘llaniladi: *Иногда Чмырев вздыхает, глубоко и тоскливо; “Эх, кабы грамотен был я да кабы научен, доказал бы я все начала, ей-бо-о!..” – Иногда Чмырев вздыхает, глубоко и тоскливо, что кабы грамотен он был да кабы научен, доказал бы он все начала.*

Demak, shunday xulosaga kelish mumkinki, olimi bunday tasnifni amalga oshirishda rus tili grammatikasiga suyangan, qolaversa o‘zbek tilining tarixiy ildizlarida boshlab bunday shakllar bo‘lmagan, keyinchalik tilning taraqqiy etishi, glaballashuvi, tafakkur, dunyoqarash rivoji natijasida

ko'chirma gapni turlicha ifoda etish imkoniyatlari paydo bo'lib, buning natijasida tarjima jarayonida yengilliklar tug'ilgan.

Ko'chirma gapli qurilmalar o'zlashtirma gapga aylantirilganda o'zbek tilida ko'chirma gapning (o'zga gapining) zamoni o'zgarmaydi. Masalan: – *Institutda o'qiyapman, – dedi Iroda. (So'zl.) // Iroda institutda o'qiyotganligini aytdi.*

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda uning faqat kesim shakli emas, balki boshqa bo'laklari (ega, qaratqich aniqlovchi) ham sintaktik jihatdan o'zgarishga uchraydi. Masalan: “*Ukamning o'g'li hozir shaharda yashayapti*”, - *dedi Olim//Olim ukasining o'g'lining hozir shaharda yashayotganligini ta'kidladi.*

Rus tilida esa o'zlashtirma gap bog'lovchi va bog'lovchi so'zlar yordamida hosil bo'ladi. Masalan,

- agar o'zga gap darak gap bo'lsa, o'zlashtirma gap *что* bog'lovchisi orqali yuzaga keladi: *После некоторого молчания дама сказала, что в этой части Италии лучше ездить ночью без света. – После некоторого молчания дама сказала: “В этой части Италии лучше ездить ночью без света”*

- agar o'zga gap undov gap bo'lsa, o'zlashtirma gapga *чтобы* yuklamasi bilan aylantiriladi: *Ребята кричат, чтоб я помог им траву увязать. – Ребята кричат: «Помоги нам траву увязать!»*

- agar o'zga gap o'ztarkibida so'roq olmoshlari bo'lgan so'roq gapdan iborat bo'lsa, u holda o'zlashtirma gapga aylantirishda qo'shimcha bog'lovchilar talab etilmaydi: *Я спросил, куда едет этот поезд. – Я спросил: “Куда едет этот поезд?”*

O'zbek tilida ham ko'chirma so'roq gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi holat kuzatiladi:

1. So'roq yuklamali ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda uning kesimi bo'lishli-bo'lishsiz shaklda takrorlangan to'ldiruvchi vazifasidagi sifatdash holatiga keltiriladi. Masalan: «*Saida keldimi?*» – *so'radi u. // U Saidaning kelgan-kelmaganligini so'radi.*

2. So'roq olmoshli ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda uning kesimi *-ganligi // -ganini* morfologik ko'rsatkichlarini yoki *ekanligini* so'zini qabul qilib, to'ldiruvchiga aylanadi. Masalan: «*Qachon kelding?*» – *so'radi u. // U qachon kelganligimni so'radi.*

3. Kesimi *bor* yoki *yo'q* so'zlari bilan ifodalangan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, *bor, yo'q* so'zlari juftlashgan holda to'ldiruvchi vaziyatiga o'tadi. Masalan: «*O'g'ling bormi?*» – *so'radi u. // U o'g'lim bor-yo'qligini so'radi.*

Buyruq shaklidagi ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda buyruq maylidagi fe‘l-kesim *harakat nomi + egalik affiksi + kerak // lozim//zarurligini* shaklidagi to‘ldiruvchiga aylantiriladi. Masalan: «*Uni xona olib kiring*», – *dedi tergov xodimi.*//*Tergov xodimi uni xona olib kirish kerakligini aytdi.*

Rus tilida yana *полупрямой* deb nomlanuvchi shakl ham bo‘lib, unda ko‘chirma hamda o‘zlashtirma gap birga qo‘llaniladi. Ergash gap (o‘zlashtirma gap)da o‘zga gapning hamma leksik o‘ziga xosliklari, hatto ekspressiv va stilistik qirralar ham saqlanib qolinadi. Bunday shakl so‘zlashuv nutqiga xos: *Степан сказывал мне по моем возвращении, что “Яков Емельянович почти всю ночь не почивали, все ходили по комнате”; Отец отвечал ранодушно, что у него есть дело поважнее концертов и всех заезжих виртуозов, но, впрочем, посмотрит, увидит, и если выдастся свободный часок – отчего же нет? Когданибудь сходит.*

O‘zbek tilida bunday tip alohida o‘rganilmaydi. Buning sababini o‘zbek tilining mantiqqa asoslanishi, grammatik meyor chegarasidan chiqmaslik ko‘nikmasi borligi, qolaversa, bunday gaplarning asli o‘zbek tili tabiatiga xos emasligi kabi jihatlardan izlash kerak. Ehtimol, kelajakda tadqiqotlar qilinib, tilshunosligimizning bu xususiyatlari ham kashf etilar.

XULOSA

O'zbek tilini dunyoga yoyish, o'zga til vakiliga targ'ib qilish, til taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tarjima masalalari davr taqozosi hisoblanib, o'zbek tiliga ixtisoslashgan oliy ta'limda rus va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish maxsus predmet sifatida joriy qilinganligi quvonarli holdir. Shuni aytish mumkinki, tillarning tipologik jihatlari, grammatik aspektlari, leksik zahirasi asos tilning semantik-struktur xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgani bilan, glaballashuv jarayonida muayyan bir tilning ayrim xususiyati ikkinchi tilning shu kabi xususiyati bilan qorishib ketishini kuzatish mumkin. Bu esa tipologik tasniflarda anglashilmovchiliklarga, turli xil yondashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda rus va o'zbek tilining qaysidir tasnifda o'zaro kesishuvini, qaysidir tasnifda ayri tarmoqlarni egallashini ko'ramiz. Tasnif etilgan tillar orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki bir tilda uchraydigan ayrim til hodisalari boshqalarida ham uchrab qolishi mumkin. Masalan, Okeaniya tillarini ham amorf tillar, ham agglyutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin. Ingliz tili ko'p yillar davomida xalqaro muloqot tili bo'lganligi va soddalashtirilganligi sababli, u deyarli butunlay flektiv turdan amorf turga aylangan. Shunday qilib, hind-evropa tillari oilasiga kiruvchi rus tili va turkiy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tili nominativ tillar tipidan ekan, ular santaktik aloqa borasida muayyan o'xshashlikka ega.

O'zbek va rus tillarining grammatikasi ikki bo'limdan iborat bo'lib, ularning tipologiyasi o'zaro o'xshash va farqli tomonlari bor. Eng asosiysi, keyingi yillarda olib borilgan tadqiqod ishlari o'zbek tilining mantiqqa asoslangan grammatik xususiyatlari o'ziga xosligini ko'rsatmoqda. Xususan, predikativ bog'lanma mohiyat jihatdan rus va o'zbek tillarida bir xil bo'lsa ham, bunday bog'lanma a'zolarining grammatik shakllanishida va o'zaro sintaktik munosabatida har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi ko'zga tashlanadi. Masalan, gapning ifoda-maqсадiga ko'ra tasnifi uning funktsional belgisi hisoblanadi. Shunga ko'ra gaplar rus tilida 1) повествовательные (darak), 2) вопросительные (so'roq) va 3) побудительные (buyruq); o'zbek tilida esa 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar va 4) istak gaplar ajratiladi. Ya'ni istak gaplar o'zbek tilida alohida mavqegaga ega.

Ana shunday o'zga xoslikdan yana biri ajratilgan bo'lakdir. Ular ruscha nutqda ko'p uchraydigan, o'zbekcha nutqda esa juda oz uchraydigan hodisa. Izoh bo'lak o'z tabiatiga ko'ra ajratilgan bo'lakdan farqlanib turadi. Izoh bo'lak, garchand ruscha nutqdagi darajada bo'lmasa ham farqlanib turadi. Izoh bo'lak, garchand rus nutqdagi darajada bo'lmasa ham, o'zbekcha

nutqqa ham xos.

Shundan xulosa qilish mumkinki, ikki tilning tilshunoslikda bir biridan andoza olishdan ko'ra, ichki imkoniyatlari asosida o'rganishni davr taqozo qilmoqda. Ularning turli tillar oilasidan kelib chiqish sababidan har birida o'ziga xos xususiyatlar – grammatik belgilar, semantik vaziyatlar mavjud. Ular faqat qiyosiy tahlil, tasnif va tavsifga muhtoj, yanada chuqurroq izlanishlarni kutmoqda.

Qiyoslanayotgan tillarning semantik-struktur o'ziga xosliklari ularning tasnifida ham o'z aksini topadi. Bu jihatlar ikkala tilda ham qiyosiy tahlilga tortilishga muhtoj. Ularni chuqurroq ilmiy ishlarda ko'rib chiqish, nozik qirralarini kashf etish ilm-fan oldida turgan dolzarb masaladir. Jumladan, bog'langan qo'shma gaplar qurilish qolipi, sintaktik tarkibi, qismlarini bog'lovchi vositalari, ohangi jihatidan har bir tilda o'ziga xoslikka ega. Bog'langan qo'shma gaplar o'zbek tilida bog'lovchi vositalariga ko'ra biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarga ajratiladi. Rus tilida esa biriktiruvchi (соединительное), zidlov (противительное) va ayiruv (разделительное) munosabatlari bo'lib, har biri struktur jihatdan ochiq va yopiq toifadagi turlarda o'z aksini topadi. Shuningdek, o'zbek va rus tillaridagi ega va kesim ergash gapli qo'shma gaplarning tipologik ilmiy xulosalari hali o'z navbatini kutmoqda. Uning qirralari chuqurroq tadqiqotlar bilan ochilishi, isbotlanishi kerak.

Yana o'zbek va rus tillarida asosan, bog'lovchi so'zlar, xususan olmoshlar yordamida to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qilinadi, deb xulosa qilish mumkin. O'zbek tilida bunday gaplarda bog'lovchi so'zlardan tashqari ayrim qo'shimchalar ham ishtirok etadi. Shuningdek, ko'rsatuvchi, ishora qiluvchi olmoshlar havola bo'lak deb talqin qilinadi. Shunday qilib, o'zbek va rus tillarida bog'lovchi vositalar sifatida olmoshlarning o'рни bo'lakcha bo'lib, rus tilida ular ikki xil ko'inishga ega. Ya'ni otlashgan-aniqlovchili va olmosh-aniqlovchili ergashgan gaplar farqlanib ular ham o'z navbatida eragash gapning vazifasiga ko'ra aniqlashtiruvchi, oydinlik kirituvchi kabi nozik qirralariga urg'u beriladi. O'zbek tilida havola bo'laklarning ishtirokiga ko'ra bir havola bo'lakli ikki havola bo'lakli kabi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarning turlari ajratiladi.

O'zbek va rus tillarida bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining ohang yordamida birikuvidan tashkil topgan alohida tur hisoblanadi. Misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan sinonimik

munosabatga kirishuvida qismlari orasidagi aloqa turi hamda bog'lovchi vositalarning mavjud yoki mavjud emasligi asos qilib olinadi.

Har ikki tilda ham har birining o'z tarkibiy bo'linishlari, sxemasi, struktur semantik xususiyatlari bor. Har biri alohida katta mavzu bo'lishga loyiq jihatlariga ega. Farq shundaki, o'zbek tilida bog'langan, ergashgan va aralash turdagi gaplar bitta paradigmada, rus tilida esa bog'lanish, ergashish yo'li bilan bog'langan va bog'lovchisiz ergash gapli murakkab gaplarning turlari bir guruh, aralash turdagi murakkab qo'shma gaplar o'z ichida turli ko'rinishlari bilan alohida guruh sifatida o'rganiladi.

Xilma-xil ko'rinishga ega bu tipdagi gaplar tarjimada struktur jihatdan o'zbek tilida maydalanishi kuzatiladi. Bu ikki tilning nafaqat struktur jihatdan farqli ekanligini, balki nutqiy istifoda, idrok mexanizmi, qolaversa mantiqiy tahlil bilan bog'liq mezonlar bilan ayri-ayri xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ikki tilda ham ko'chirma gap bilan muallif gapi bigalikda qo'shma gapni tashkil qiladi. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganimizda, ular o'zbek tilida sodda gapga, rus tilida esa to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga o'tadi. Bunda o'zbek tilining mantiqqa asoslanishi, grammatik meyor chegarasidan chiqmaslik ko'nikmasi borligi, qolaversa, ko'chirma gaplarning asli o'zbek tili tabiatiga xos emasligi asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қiyosiy грамматикаси (қисқа курс). – Т.: “Ўқитувчи”, 1965.
2. Аракин В.Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. – М.: «Высшая школа», 1989. С.142 – 157 с.
3. Асилова Г. Русский язык. – Т.: Издательство национального общества философов Узбекистана. 2008, - С. 146
4. Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка: учебник. - М.: Агар, 2000. 416 с. 10000 экз. Электрон нашри: <http://www.hi-edu.ru/e-books/xbook089/01/about.htm>
5. Мещанинов, И. И. Номинативные и эргативные предложения: Типологическое сопоставление структур. – М.: Наука, 1984.– 295 с.
6. Мусаева Л.С., Тазукаева С.С. Основные проблемы изучения сложных предложений русского языка в школе и вузе. // Современное педагогическое образование. №4 2019, С.43-47. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-problemy-izucheniya-slozhnyh-predlozheniy-russkogo-yazyka-v-shkole-i-vuze/viewer>
7. Распопов И.П. Строение простого предложения в современном русском языке. – М.: УРСС. 2013. С. 70-71 – 192 с.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қiyослаш. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995.
9. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) талқини. – Т.: “Фан”, 2007, - 257 б.
10. Шарафутдинова Н.С. Лингвистическая типология и языковые ареалы. – Ульяновск. УлГТУ. 2011. С. 60. – 160 с.
11. Qodirova X. O‘zbek tili: Oquv qo‘llanma. – Toshkent, Navro‘z. 2020. – 366 b.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
I bob. Tillarning tipologiyasi	5
Tillarining genealogik xususiyatlari.....	5
Tillarining tipologik xususiyatlari.....	7
Tillarining grammatik xususiyatlari.....	10
II bob. O‘zbek va rus tillarida sintaktik aloqa va gap	13
O‘zbek va rus tillarida sintaktik aloqa turlari.....	13
O‘zbek va rus tillarida so ‘z birikmasi.....	18
O‘zbek va rus tillarida gap.....	25
O‘zbek va rus tillarida sodda gap.....	32
O‘zbek va rus tillarida to‘liq va to‘liqsiz gaplar.....	37
O‘zbek va rus tillarida bir bosh bo‘lakli gaplar.....	38
O‘zbek va rus tillarida uyushiq bo‘lakli gaplar.....	43
O‘zbek va rus tillarida ajratilgan bo‘lakli gaplar.....	46
III bob. Ozbek va rus tillarida qo‘shma gap	49
O‘zbek va rus tillarida qo‘shma gap.....	49
O‘zbek va rus tillarida bog‘langan qo‘shma gap.....	55
O‘zbek va rus tillarida ergashgan qo‘shma gaplar.....	59
O‘zbek va rus tillarida ega ergash gapli qo‘shma gaplar.....	67
O‘zbek va rus tillarida kesim ergash gapli qo‘shma gaplar.....	70
O‘zbek va rus tillarida to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	71
O‘zbek va rus tillarida aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar.....	73
O‘zbek va rus tillarida shart ergash gapli qo‘shma gaplar.....	76
O‘zbek va rus tillarida o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar.....	78
O‘zbek va rus tillarida payt ergash gapli qo‘shma gaplar.....	81
O‘zbek va rus tillarida ravish ergash gapli qo‘shma gaplar.....	83
O‘zbek va rus tillarida miqdor daraja ergash gapli qo‘shma gaplar..	85
O‘zbek va rus tillarida sabab ergash gapli qo‘shma gaplar.....	86
O‘zbek va rus tillarida maqsad ergash gapli qo‘shma gaplar.....	88
O‘zbek va rus tillarida natija ergash gapli qo‘shma gaplar.....	90
O‘zbek va rus tillarida o‘xshatishh ergash gapli qo‘shma gaplar.....	91
O‘zbek va rus tillarida to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplar.....	92
O‘zbek va rus tillarida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.....	94
IV bob. O‘zbek va rus tillarida murakkab qo‘shma gap	102
O‘zbek va rus tillarida murakkab qo‘shma gaplar.....	102
O‘zbek va rus tillarida aralash turdagi murakkab qo‘shma gaplar...	109
O‘zbek va rus tillarida ko‘chirma gaplar.....	114
O‘zbek va rus tillarida o‘zlashtirma gaplar.....	122
Xulosa	123
Foydalanilgan adabiyotlar	126

XURSHIDA QODIROVA

**O‘ZBEK VA RUS TILLARI
SINTAKSISINING TIPOLOGIYASI**

Monografiya

Adadi 100 nusxa. Hajmi 8 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.